

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“SALOHIYAT – MEZON”



3-SON

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOYIY-IQTISODIY FAKULTETI

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA HUQUQ
ASOSLARI KAFEDRASI

ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI

“SALOHIYAT-MEZON”

3-SON

NAMANGAN-2013



UO`K: 001.89
BBK: 63.3 (50`zb)
M-54

Mazkur maqolalar to'plami Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasining 2013 yil 5-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Mas'ul muharrir: B.Talapov, Tarix fanlari nomzodi

Taqrizchilar: M.Nishonov, falsafa fanlari doktori, professor
A.Isoqboyev, tarix fanlari nomzodi

Ilmiy to'plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2013 yil 19 yanvar kungi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

NG $\frac{1071-3243,75-1550657}{1072 - (4,75) - (01)}$ 2013

ISBN - 978-9943-4050-0-4

21138/1
NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
Axborot-resurs markazi

© "NAMANGAN" NASHRIYOTI
© NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI, 2013 YIL

DEMOKRATIK YANGILANISH JARAYONLARI

Bahriddin Talapov,

*NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi mudiri,
tarix fanlari nomzodi*

XXI asrda global miqyosda insoniyat hayotining barcha sohalarida keskin o'zgarishlar amalga oshmoqda. Kurrai zamindagi biror bir xalq, etnik birliklar bu jarayonlardan chetda qolayotgani yo'q. To'g'ri, bu umumjahoniy o'zgarishlar qaysidir xalq hayotiga chuqurroq, boshqalariga kamroq ta'sirini o'tkazmoqda. Ayniqsa, bu jarayonlarning jamiyat va davlat boshqaruvi sohasida sezilari namoyon bo'layotgani zaruriy xol. Zero, insoniyat yaralgandan buyon tinch-osuda, xafvsiz va farovon yashashga intilib keladi. Hali xanuz dunyo xalqlari o'zlari uchun bu shart-sharoitlarni ta'minlab beruvchi boshqaruv instituti-davlatdan boshqa muqobilini topilganlaricha yo'q. Insoniyat davlat shakllangandan buyon bu institutni takomillashtirish, mukammallashtirish, insonparvarlashtirish, modernizatsiyalash kabi uzluksiz jarayonlar bilan mashg'ul. Xo'sh, o'zi, "davlat nima"? Bu savolga qisqacha to'htalamiz. Chunki, maxsus ijtimoiy-gumanitar, siyosiy, falsafiy, yuridik bilimga ega bo'lmagan odam "davlat" deganda alohida davlat organlarining nomini, "parlament", "hukumat", "prezident" kabilarni tasavvur qiladi. Ma'lumki, bu xususda qadimdan turli-tuman fikr va mulohazalar bildirilib kelinadi. Jumladan, qadimgi rim faylasufi va siyosiy arbobi Mark Tulliy Sitseron (m.a. 106-43) ushbu savolga javob berib shunday deb yozadi: "Davlat-bu umumiy tartibotdir; davlat-bu xalq ishi, faoliyati, xalqqa munosib ishdir".

Davlatning mohiyatini tushunish bobida frantsuz mutafakkiri Jan Boden quyidagi fikrlarini bayon etadi: davlat suveren hokimiyatning odamlar ustidan amalga oshiradigan rahbarligidir. Uning ta'biricha, suverenitet davlatning doimiy va mutlaq hokimiyatidir.

Hozirga kelib davlat tushunchasining ta'rifi davlatning o'zichalik mukammallashti, ijtimoiy-siyosiy fanlarning bu boradagi tadqiqotlari evaziga yanada boyidi. Bugungi "davlat- jamiyatning yagonaligi va yaxlitligini ta'minlaydigan siyosiy tashkilot bo'lib, maxsus mexanizm (apparat) vositasida jamiyat ishlarini boshqaruvchi suveren ommaviy-siyosiy hokimiyat sifatida huquqqa umum majburiy xususiyat baxsh etadi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniylik va huquqiy tartibotni kafolatlaydi".

Endi, davlatning boshqaruv shakliga xos bo'lgan siyosiy rejimi xususida to'xtalsak. Siyosiy rejim-davlat hokimiyatini amalga oshirishda foydalaniladigan tartib va usullar yig'indisidir. Har bir davlatning siyosiy rejimi mazkur davlatning o'ziga xos xususiyatga ega. Ya'ni, davlat hokimiyatining aholi bilan munosabati qaysi yo'llar va qanday usullar orqali amalga oshirilishi, siyosiy sohada turli kuchlarning o'zaro munosabatlari, jamoat tashkilotlarining jamiyat siyosiy tizimidagi mavqei qay darajadali bilan belgilanadi. Shu boisdan, davlatlar siyosiy rejimiga qarab nodemokratik va demokratik turlarga bo'linadi. Mustaqillikka erishgandan so'ng, davlatni boshqarishda prezidentlik instituti joriy etildi. O'zbekiston

Respublikasi boshqaruv shakli bo'yicha prezidentlik respublikasi shaklidagi davlat, tuzilish shakli bo'yicha oddiy-unitar davlatdir, siyosiy rejimiga ko'ra, demokratik tartibdagi davlat.

Mustaqillikning ilk kunlardanoq mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida izchil islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlarni amalga oshirishda Konstitutsiyamizda mustahkamlab quyilgan tamoyil va normalarga, shuningdek, dunyo tomonidan e'tirof etilgan "o'zbek modeli"ga tayanildi. Avvalo, Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishda "... har qanday demokratik tizim negizida yotgan-hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud-huquq tarmoqlarini vazifa va vakolatlarini aniq belgilab qo'yish, ularning manfaatlar muvozanatini va bir-birini tiyib turishini ta'minlash, siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish tamoyillariga asoslangan siyosiy tizimni shakllantirish..."ga qaratildi.

Ushbu murakkab vazifa hozir to'la amalga oshirildi, hokimiyatning taqsimlanishi yuridik-tashkiliy va huquqiy nuqtai nazardan yakunlandi. Unda hokimiyat bo'g'inlarining faoliyati chegaralangan, qonun bilan tartibga solingan. Huquqiy demokratik davlatda ijtimoiy hayot inson manfaatlari va intilishlari ustidan hokimiyat, davlat emas, balki huquq, qonun hukmronlik qiladi. Aynan huquq qonun davlat hokimiyatiga jamiyatdan tashqarida turuvchi alohida institut sifatida qarashni bartaraf etadi va uning jamiyatga, insonga xizmat qilishini ta'minlaydi.

Konstitutsiyaning muqaddimasidayoq, O'zbekiston xalqining inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalari, demokratiya va ijtimoiy adolatga sodiqligi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustuvorligini tan olgani va insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni maqsad qilib qo'ygani qayd etiladi.

Demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri xalq hokimiyatchiligini, davlat va jamiyat hayotini boshqarishda fuqorolarning keng ishtirok etishining ta'minlanganligidir. O'zbekiston Konstitutsiyasining II bobi aynan xalq hokimiyatchiligiga bag'ishlangan. Unda xalq davlat xokimiyatining birdan-bir manbai ekani, davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi (7-modda), davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim qilishi, umumiy ovozsizga (referendum) qo'yilishi (9-modda) ko'rsatilgan. "Xalq hokimiyatchiligi" deganda O'zbekiston xalqining davlat va jamiyat hayotini boshqarishdagi ishtiroki nazarda tutiladi.

O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish doktrinasi mamlakatimiz Konstitutsiyasidagi inson, uning hayoti erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa huquqlarini oliy qadriyatdir (13-modda), davlat inson va jamiyat farovonligini ta'minlash, ijtimoiy adolat va qonuniyligni qaror toptirishga (14-modda) xizmat

qiladi, degan fundamental tamoyillarga tayanadi. Ular qatoriga insonning ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarda erkin qatnashishi, mulkka egalik huquqi (36-modda) ham kiradi. Bozor iqtisodiyoti mustaqil ishlab chiqaruvchi, mustaqil haridor va mustaqil ozod fuqaro o'rtasidagi xususiy mulkka asoslangan demokratik munosabatlar tizimini yaratishga ko'maklashadi.

2010 yil noyabr oyida qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan demokratik yangilanish va modernizatsiya jarayonlarining mantiqiy va qonuniy davomidir.

Ushbu kontseptsiya doirasida so'ngi yillarda mamlakatimiz parlamenti tomonidan 12 ta qonun qabul qilindi. Ayniqsa, 2011 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78,80, 93, 96, va 96 moddalariga)gi Qonun davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasidagi muhim qadam bo'ldi.

Mazkur Qonun Prezident- Davlat boshlig'i bilan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib konstitutsiyaviy vakolatlar taqsimotini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unda, shuningdek, Bosh vazirga ishonchsizlik votumi bildirish instituti joriy etilgan, ayrim vakolatlar Prezidentdan Senatga va Vazirlar Mahkamasiga berilgan, mahalliy kengashlarning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilgan.

Mamlakatimizni siyosiy jihatdan modernizatsiya qilish jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va televidenie tizimida so'z erkinligini ta'minlash borasida, jamoat tashkilotlarini odamlarning konstitutsiyaviy huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi rolini oshirish, hokimiyat tuzilmalari faoliyati oshkoraligini kuchaytirish va boshqaruv sohalarida qonunlar va huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Ayni vaqtda shuni qayd qilish lozimki, mamlakatda yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Demokratik islohotlarni qandaydir havo maqsadlar, ambitsiyalar va soxta obro' topish uchun sun'iy ravishda tezlashtirish, o'z hoxishini amaldagi haqiqat deb ko'rsatishga urinish odatda teskari natijaga olib keladi va buni ko'plab misollarda ko'rish qiyin emas

Albatta, "demokratlashtirish va liberallashtirish, biz uchun printsipl jihatdan mutlaqo yangi davlatni shakllantirish,-yurtboshimiz qayd etganlaridek,-bu bir-ikki yilda hal etiladigan vazifa emas, balki, muayyan muddat bilan chegaralanib qolmaydigan uzoq va uzluksiz jarayon..." dir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat //O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. Toshkent: "O'zbekiston". 2006
- 2 Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza, Xalq so'zi, 2012 yil 8 dekabr.
3. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.- Toshkent, Sharq, 2009.

YANGICHA QADRIYAT

Akmal Husainov,

*NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrası dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi*

Mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston o'zi tanlagan o'ziga xos, o'ziga mos taraqqiyot yo'lidan dadil olg'a odimlamogda. Jahon hamjamiyati tan olgan "o'zbek modeli" tamoyillariga qat'iy amal qilayotgan va davlat boshqaruvini shu asosda tashkillayotgan O'zbekiston hukumati ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda qisqa davr ichida kishini lol qoldiradigan ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritayapti. Mamlakat mustaqil taraqqiyot yo'lini belgilab, milliy davlatchilik, yangi siyosiy-ijtimoiy tizim barpo etib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurishning mustahkam huquqiy poydevorini yaratdi.

Bugungi kunda jamiyatning eng muhim va hal qiluvchi qatlami, ijtimoiy-siyosiy barqarorligini kafolatlanganligi, mamlakatda keng miqyosda islohotlarni amalga oshirilishi va modernizatsiya qilinishi yangi mulkdorlar sinfini vujudga keltirdi. Shahar va qishloqlar o'rtasidagi tafovutlar yo'qolib, barcha qulayliklarni o'zida mujassamlashtirgan zamonaviy turar-joy binolari qad rostlayapti. Kishilarning mulkka nisbatan munosabatlari o'zgardi. Ma'naviyatning yuksalishi natijasida o'zaro va millatlararo totuvlik, hamkorlik tobora kuchayib bormogda. Albatta, bunday ko'rsatkichlar o'z-o'zidan qo'lga kiritilgani yo'q. Yurtboshimiz I.A. Karimovning tinimsiz izlanishi, olib borgan oqilona siyosatining natijasidir.

Nemis iqtisodchisi-nazariyotchi K.Marks ijtimoiy hayotning asosini iqtisodiy munosabatlarda deb bildi. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan inson tabiatini faol o'zlashtiruvchi va o'zgartiruvchi kuch sifatida ko'rdi. Inson hamisha iqtisodiy manfaat, foydani ko'zlar ekan, ijtimoiy munosabatlarni iqtisod hal qiladi, deb hisobladi. U ingliz iqtisodchilari A.Smid va D. Rikardoning "iqtisodiy inson" g'oyasini bir yoqlama rivojlantirdi. Bu bilan K. Marks har qanday iqtisodiy taraqqiyot negizida ilm-ma'rifat, ma'naviyat, urf-odat, axloq-odob, insonga xos fazilatlar yotishini e'tibordan chetda qoldirdi. Agar jamiyat moddiy hayotning asosini iqtisod tashkil etsa, unda erkin faoliyat yuritish uchun uning a'zolariga salohiyat, bilim, malaka, iymon, e'tiqod, ma'naviyat va boshqa omillar ham zarurdir.

O'tmishdan farqli o'laroq mamlakatimizda iqtisodiyotga nisbatan munosabat o'zgarib, iqtisod mustaqillik yillarida o'zgacha mazmun, mohiyat kashf etdi. Inson hayotiga iqtisod ijtimoiy turmushning omixtasi sifatida kirib keldi. Erishilayotgan yutuqlar-u moddiy sohadami, yoki u ma'naviy sohadami qay birida bo'lmasin, ular bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlab, to'ldirib kelmogda. Kishilarning iqtisodiy taraqqiyotga ongli munosabatini ta'minlash maqsadida mamlakatda ilm-fan, ma'naviyat va madaniyatning rivojlantirishni davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylantirildi. Ta'lim-tarbiya sohasi isloh qilindi. Jahon andozalariga mos kadrlar tayyorlash tizimi yaratildi. Milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarimiz qayta tiklanib,

toptalgan g'ururimiz o'z qaddini rostladi. Millatning turmush darajasi tubdan o'zgardi, dunyoqarashi yangilandi, o'zligini anglay boshladi.

Istiqlol O'zbekistonni kundalik hayotini yangi milliy qadriyatlar, an'ana va udumlar asosida bunyod etilgan, zamon bilan hamnafas, barchaning qalbi va shuuridan joy olayotgan, ajoyib urf-odatlar, marosimlar bilan bezay boshladi. Uslub jihatdan hammabop, shakl jihatdan milliy, mazmun jihatdan umuminsoniy qadriyatlar turmishimizga dadil kirib kela boshladi. Ana shundaylardan biri Prezident Islom Karimovning bunyodkor taklifi ila O'zbekistonda o'tayotgan kalendar' yillarini maqsadli nomlar bilan atab, shu asosda inson omili, ma'naviyatni yanada yuksaltirish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, bunda fuqarolar faolligini oshirish, tinchlik, totuvlik, osoyishtalikka erishish va millatlararo hamkorlikni yanada kuchaytirishning yangicha usulini hayotga tatbiq etildi.

Mazkur yangi milliy qadriyat o'zbek xalqi, keng jamoatchilik tomonidan zo'r ko'tarinki ruh bilan qarshi olindi. O'tayotgan har bir yilning belgilangan aniq yo'nalishi, maqsad-vazifasidan kelib chiqib amalga oshirilajak ishlarning davlat harakat dasturi tayyorlandi, joylarda ularning bajarilishi ta'minlandi. Bu xayrli ish O'zbekistonda 1996 yil-Amir Temur yilidan boshlanib, hozirgacha o'tgan davr mobaynida u o'zini amalda oqladi. Agar birgina o'tgan "Mustahkam oila yili"-2012 yilni misol qilib oladigan bo'lsak, mamlakatda, turli sohalarda amalga oshirilgan keng ko'lamdagi ibratli ishlarning salohiyati Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida **"Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish-bizning bosh maqsadimizdir"** mavzusida qilgan ma'ruzasida o'z ifodasini topdi. U ta'kidlaganidek, "Dastur doirasida barcha moliyaviy manbaalar hisobidan 2 trillion so'mdan ortiq hamda 100 million AQSh dollaridan ziyod mablag' sarflanganligining o'zi, o'ylaymanki, bizning amalga oshirgan ishlarimizning ko'lami va miqyosi naqadar keng va ulkan ekanidan yaqqol dalolat beradi".

Insonparvarlik, vatanparvarlik, Vatanni gullab-yashnashi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo do'stlik va hamkorlikni yuqori pog'onalarga olib chiqish va boshqalar yuzasidan "Mustahkam oila yili"-2012 yilda boshlangan ishlar 2013 yilda, ya'ni "Obod turmush yili"da ham izchil davom ettiriladi. Kirib kelayotgan yangi yilning mazmun va mohiyatini yurtboshimiz ta'rifi bilan aytganda, "obod degan so'zning ma'nosini biz juda keng va chuqur tushunamiz. Obod deganda, xalqimiz, millatimiz nafaqat ko'rkam va chiroyli, shu bilan birga, tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat, ahillik, fayz-baraka hukumron bo'lgan joylarni, doimo pok niyat va sog'lom intilish bilan yashashni tasavvur qiladi".

"Obod turmush yili"-2013 yilning davlat harakat Dasturi oltita ustivor yo'nalishdan iborat bo'lib, unda asosiy o'rinni inson, uning qadr-qimmatini, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, namunali turmush tarzini yaratish, xotin-qizlar faolligini oshirish va boshqa masalalar egallagan. Chunki, har bir odam, har bir

oila, qolaversa butun xalqimizning qalbi-dan o'rin olgan vazifalarni amalga oshirish, taraqqiyotimizni jadallashtirish, hayotimizni yanada farovon qilish bizning aynan ezgu maqsadimiz, muddaoimizdir. Har qaysi inson, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, bu dunyoga baxtli yashash uchun keladi. Bunday yuksak orzuga erishishining sharti va garovi bo'lgan omillar ko'p. Lekin ular orasida hayotimizga ma'no-mazmun beradigan, uni yanada yorug' va fayzli qiladigan bir omil borki, u ham bo'lsa, odamning o'z uyi, o'z yurtini har tomonlama go'zal va obod qilib, yashashidan iborat.

Xalqimizning "Mehnatdan kelsa boylik-turmush bo'lar chiroylik" degan naqli zamirida mujassamlashgan haqiqatni real turmush voqealigiga aylantirib yangi yilda ham katta-katta bunyodkorlik va yaratuvchilik ishlarini amalga oshirishimiz zarur. Shundagina 2013 yil haqiqatan ham "Obod turmush yili" bo'ladi. Insonlarning orzu-umidlari ro'yobga chiqadigan, baxtli, saodatli yil bo'lib, har bir xonadonga fayz-baraka, quvonch olib keladi.

MAFKURAVIY TO'SIQLAR

O.Mamatov,

Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari mavjud. Bu qonuniyatlarni jamiyatdagi kishilar, guruxlar, sinflar va hokazolar o'rtasidagi munosabatlarda amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan bu qonuniyatlarni u yoki bu xalqning muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichida turganligi bu xalqning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy turmush tarzi bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Shuning uchun jamiyat taraqqiyotining umumiy va muayyan bir taraqqiyotida amal qiladigan qonuniyatlarni mavjud. Masalan, ishlab chiqaruvchi kuchlar va, ishlab chiqaruvchi munosabatlar o'rtasidagi muvofiqlik umumiy qonuniyat hisoblanib jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida amal qiladi. Lekin bu qonuniyat jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi, bu yuqoridagi ikki jihatning rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq tarzda amalga oshadi.

Shuningdek jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagina amal qiladigan qonunlar borki u jamiyatning mohiyatidan kelib chiqadi. Masalan, talab va taklif qonuni muayyan jamiyat doirasidagina, aniqrog'i bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatdagina amal qiladi.

Jamiyat taraqqiyotiga u yoki bu tarzda ta'sir etadigan boshqa omillar ham mavjudki, bu omillar ham shu jamiyatning mohiyatidan kelib chiqadi. Bunday ta'sir omillari jamiyatning mohiyatidan kelib chiqqanligi sababli jamiyat taraqqiyotiga hal qiluvchi o'zgartirish kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi va shuning uchun bunday omillarga jiddiy e'tibor berish zarur. Bu shuning uchun ham zarurki, u jamiyat

taraqqiyotiga yo salbiy yo ijobiy ta'sir o'tkazishi, jamiyatda barqarorlik, yoki beqarorlik omili bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha ana shunday omillardan eng muhimi mafkuraviy omillardir. Mafkura ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning jamlangan ifodasi hamda harakat dasturidir. Frankfurt maktabi vakillari bejizga jamiyatni qandayligini bilmog'chi bo'lsang uning mafkurasiga boq, deb aytmaganlar.

Jamiyatning ahvolini undagi mafkuraviy munosabatlar anglatadi. Demak, mafkuraviy munosabatlar shu jamiyatning o'z ichidan o'sib chiqadiki va ba'zilari uning rivojlanishi uchun turtki bersa ba'zilari taraqqiyotga to'siqlik qiladi.

Mavzuimiz mafkuraviy to'siqlarga bag'ishlangani uchun, biz bevosita mafkuraviy to'siq tushunchasini taxlil etishimiz lozim.

Mafkuraviy to'siq eng avvalo illatdir. Mafkuraviy to'siq tushunchasiga bizning bilishimizcha hali ta'rif va tavsif berilgan emas. Shuning uchun ham quyida ushbu tushunchaga ta'rif berib o'tmoqchimiz.

Ma'lumki, birinchi galda to'siq, taraqqiyotni to'xtatadi, yoki eng xatarlisi uning yo'nalishining o'zgarishiga olib keladi. Jamiyatning barqarorligini buzadi. Tinchlikka, osoyishtalikka tahdid soladi. Bunday to'siqlarni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va boshqa turlarga bo'lish mumkin.

Mafkuraviy to'siqlar bular ichida universal xususiyatga ega bo'lib, jamiyatning barcha sohalariga xavf solib turadi. Bunday to'siqlar o'z navbatida mafkuraviy tahdidga aylanishi mumkinki, bular tajovuzkor g'oyalarning natijasidir.

Mafkuraviy to'siqlar, sof to'laqonli mafkura sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, voxobiylik, kommunistik mafkura, hizbut-taxrir va hokazolar aniq maqsadni ifodalaydi. Lekin, mafkuraviy to'siqlarning shunday turlari mavjudki, ularni yaqqol mafkura deb aytish mumkin emas, aniq bir dastur sifatida namoyon bo'lmasligi ham mumkin. Lekin bular jamiyatning birligiga putur yetkazadi. Jamiyat sog'lomligiga, ijtimoiy gurux yoki millat, yoki xalq manfaatlariga zid bo'ladi, garchi, g'oyaviy asosga ega bo'lmasa ham. Shuningdek, bunday fikr va munosabatlar davlatning ham siyosiy negizlariga daxl qilishi mumkin.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda mafkuraviy to'siq tushunchasiga ta'rif berishimiz mumkin.

Mafkuraviy to'siq deb, biror bir ijtimoiy guruh, toifa, millat yoki jamiyat yoki davlatning tub iqtisodiy siyosiy manfaatlariga va maqsadlariga zid kelgan, jamiyatdagi barqarorlikni buzadigan mafkuralar yoki qarashlar, yoki munosabatlarga aytiladi.

Vayronkor g'oya va mafkuralar jamiyat taraqqiyotiga qanchalik xatarli bo'lsa, mafkuraviy to'siqlar ham shunchalik darajada zararli va xavflidir. Lekin, juda ko'p hollarda biz bu jarayonlarga jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf deb qaraymiz.

Aytaylik, mahalliychilikka nisbatan ko'p hollarda shunchaki illat sifatida qaraladi, lekin u jamiyat va davlat negizida jiddiy xavf solib turishi haqida hatto, tasavvur ham qilmaymiz. Agar mahalliychilik avj olib, ziddiyatlar keskinlashadigan bo'lsa, u nafaqat xatar, balki jamiyatda mu'xish fojialarni ham keltirib chiqarish

mumkin. Shu nuqtai nazardan biz uni hattoki, biror bir g'oyaga asoslanmagan bo'lsa ham, mafkuraviy to'siqlar qatoriga keltiramiz. Shuning uchun mafkuraviy to'siq tushunchasini uning mafkuraviy negizi bor-yo'qligiga nisbatan ikki turga ajratamiz:

➤ birinchisi, ma'lum bir maqsadni, toifa, guruh, millat manfaatlarini ifodalagan mafkuralar asos qilib olingan mafkuraviy to'siqlar.

➤ ikkinchisi, stixiyali tarzda yuzaga keladigan lekin xatarli, mafkuraviy jarayonlarning yuzaga kelishi uchun shart-sharoit yaratib beradigan mafkuraviy to'siqlar.

Yuqoridagi har ikki turdagi nafkuraviy to'siqlarning ham umumiy jihatlari mavjudki, u ham bo'lsa ijtimoiy ruhiyatdir. Farqi birinchisi, nazariy va ishlab chiqilgan dasturlar, g'oyalar tizimi sifatida shakllanadi. Ikkinchisi, ijtimoiy ruhiyat sifatida kelib ketaveradi. Har ikkisi vayronkor guruxlarning tajovuzkor quroliga aylanadi. Agar, sog'lom muhit, sog'lom ijtimoiy jamiyat shakllantirilmagan ekan, o'sha joyda yuqoridagi illatlarga nisbatan immunitetni shakllantirib bo'lmaydi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, mafkuraviy to'siqlar doimo bo'lib kelgan va u jamiyat taraqqiyotini uzoq muddat bir maromda ushlab turishiga sabab bo'lgan.

Masalan, qulchilik mafkurasi XVIII asrgacha ayrim davlatlarda hukmron bo'lib keldi va u bu davlatlar va xalqlar taraqqiyotiga to'siq qilib keldi.

TIL TARAQQIYOT OMILI

T.Qozoqov,

NamDU «Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi katta o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, jamiyat hayotining barcha sohalarida ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbekistonning jahonga yuz tutishi, xalqaro hamjamiyat oldida davlatimiz nufuzining ortib borishi chet tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni orttirib yubordi.

Ayniqsa bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Unda jumladan shunday deyiladi: "... 2013/2014 o'quv yilidan boshlab Respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatika o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi."

Agar tariximizga nazar tashlasak, yurtimiz taraqqiyotga erishgan davrlarda ilm egalari, jamiyat a'zolari o'z ona tillaridan tashqari ko'plab xorijiy tillarni ham puxta egallaganliklarini guvohi bo'lamiz. Masalan, Farobiy va Beruniylar 70 dan ortiq

tillarni bilganlar. Allomalarimiz eng kamida uchta arab, fors, turkiy tilni mukammal bilib, shu tillarda ijod qila olganlar. Beruniy, Ibn Sino, Farobiyalar esa, qadimgi o'lik tillarni sanskrit, yunon, lotin tillarini ham mukammal bilganlar.

XX asr boshlaridagi jadid namoyondalari ham bu borada ibratli faoliyat ko'rsatganlar. Masalan, Boboovun Salimov, Ishoqxon Ibrat, Sayyid Rizo Alizoda, Ashurali Zohiriylar o'ndan ortiq tillarni bilganlar.

Til o'rganishning ahamiyati, xorijiy tillarni o'zlashtirishning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni xususida ular ibratli fikrlarni bildirib o'tganlar.

Jadidlar ko'targan muammolar, bugungi kunimiz uchun ham hamohangdir. Jumladan, jadidlar o'lkani taraqqiyotga erishuvini bilimli yoshlar qo'lida deb bilganlar va ularni rivojlangan mamlakatlarga ta'lim olish uchun yuborish, xorijiy tillarni o'rganish, zamonaviy ilm-fan va texnikani egallash kabi masalalarni ko'targanlar.

Til mustaqilligi muammosi jadidlar qarashlarida o'zining qat'iy ifodasini topgan. A. Avloniy, Sh. Muxtorov, A. Zohiriy, A. Cho'lpon va boshqalar o'z vaqtida bu haqda kuyunib yozdilar. Jumladan, A. Avloniy: «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oinai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak, millatni ruhini yo'qotmakdur», (A. Avloniy. O'son millat. Istiqlol fidoyilari seriyasi.- Toshkent: Sharq-1993.-B.7.) degan bo'lsa, A. Zohiriy: «...qachonki bir millat tilini yo'qotsa, ul vaqt dinini va millatini ham yo'qotur...», degan edi (Zohiriy A. Ona tili //Sadoyi Farg'ona.-1914.-13 apr.).

Ashurali Zohiriy «Sadoyi Farg'ona» gazetasida e'lon qilingan «Ona tili» maqolasida kishilarni chet tillarni ham yaxshi o'zlashtirishga da'vat etgan holda, o'z ona tilini ham mukammal egallashga chaqiradi: «...qachonki o'z tilimizni yaxshilab bilmadikmu, boshqa tilni albatta durust bilmaymiz. Shuning birla na oni bilurmiz va bunil...» (Zohiriy A. Ona tili //Sadoyi Farg'ona.-1914.-13 apr.).

Zohiriy o'tkir tilshunos va jurnalist, iste'dodli adabiyotshunos, bilimdon tarjimon, ajoyib tashkilotchi, sahovatli murabbiy bo'lgan. U o'z ona tilidan tashqari arab, fors va rus tillarini ham yaxshi bilar edi. 1925 yilda u ikki jildli «Ruscha-o'zbekcha lug'at» ni tuzdi va nashr ettirdi. (Uzoqov H. Ashurali Zohiriy //Guliston.-1968.-№10(22).-B. 28.).

Jadidlar o'z maktablari o'quv dasturlariga xorijiy tillarni ham kiritganlar. Masalan, Ishoqxon Ibratning jadid maktabida ilk bor Evropa tillaridan ham darslar o'tilganligi ma'lum. (Nosirov O., Ma'murov M. O'zbek adabiyotining muhim sanalari.- Namangan: Namangan Davlat Universiteti, 1993.-B. 124.).

Xulosa qilib aytganda Turkiston taraqqiyparvarlari xorijiy tillarni o'rganishni Vatan taraqqiyotining omili deb bildilar. Bu borada ular shaxsiy o'rnak va namuna ko'rsatdilar.

YOSHLARNI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SOHASIGA KENG JALB QILISHNING AHAMIYATI

Odiljon Topildiev,

*NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida
katta o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi*

Mustaqillik mamlakatda keng ko'lamdagi islohotlarning muhim bir bosqichini boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarda bilimli yosh mutaxassis kadrlarning ishtirok etishini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini va qishloq joylaridagi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston aholisining 64 foizini tashkil etayotgan yoshlar kelajagimizning bunyodkorlari bo'lib, Prezident I.A.Karimovning ta'kidlashicha: "Bizning eng katta tayanch va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yosh avlodimizdir. Darhaqiqat, mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda. Yoshlarga katta ishonch bildirib, ularni rag'batlantirish, ruhlantirish ham katta samara bermoqda. Shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la echilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, ularni hayotda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turlishi shart.

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Tadbirkorlik-mamlakat iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uni rivojlantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 53-moddasida ko'rsatilganidek: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini hilma hil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan xollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin» deb ko'rsatilgan. Shunga ko'ra kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, xo'jalik sub'ektlari faoliyati qonun bilan himoya qilinadi. Ayniqsa xususiy mulk shakliga asoslangan fermer xo'jaliklari hamda yakka tartibdagi kichik biznes sub'ektlari faoliyati asosiy o'rinda turadi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarining birinchi bosqichida kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlik tez rivojlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hududlarida kichik biznes hamda tadbirkorlik asosan yakka tartibdagi va oilaviy korxonalar, mas'uliyati

cheklangan jamiyat hamda shirkatlar shaklida tashkil etildi. 1991-1995 yillarda ularning soni o'rtacha 140 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlarning kasbiy ta'limini qayta yo'naltirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 1995 yil 29 iyulda 296-sonli qarori chiqarildi. Buning natijasida qishloqda xususiy sektorni rivojlantirish va qishloq yoshlarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, zarur kasblar va mutaxassisliklarni egallashga hamda ularni moddiy rag'batlantirishga e'tibor qaratildi.

Dastlabki bosqichda kichik va o'rta biznes korxonalarining tez rivojlanib borishiga quyidagi omillar ta'sir etdi:

- Kichik xususiy biznesning korxonalar va sub'ektlarning erkin faoliyat olib borishga o'tishi;
- Kichik xususiyashtirish dasturlarining amalga oshirilishi, korxonalarining davlat tasarrufidan chiqarilishi, nodaviat kichik va o'rta biznes sub'ektlarining tashkil bo'lishi;
- Ularning rivojlanishi uchun erkin iqtisodiy muhitning mavjud bo'lganligi, oilaviy korxonalarining ko'payishiga olib keldi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichi bo'lgan 1996-1999 yillarda esa kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi respublikada bir muncha susaydi. 1996-1999 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganligi ayon bo'ldi. Jumladan, hududlar bo'yicha tahlil qilganda Toshkent shahri va viloyati, Farg'ona vodiysi, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Buxoroda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan to'liq foydalanildi. Biroq, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmadi. 2001 yil 1 yanvariga kelib, 159719 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridan 125719 tasi faoliyat ko'rsatdi. Qolgan 29 mingtasi faoliyat ko'rsatmadi.

Iqtisodiy islohotlarning uchinchi bosqichi 2000 yildan boshlandi. Bu davrda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati faollasha boshladi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar va xo'jalik sub'ektlari faoliyatini tartibga solish maqsadida qonunlar, qarorlar chiqarildi. Chunonchi, "Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi PF-1987-sonli Farmoni, 2000 yil 25 may "Tadbirkorlik faoliyatini erkinliklarining kafolati to'g'risida"gi Qonun, "Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2005 yil 14 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida"gi 2005 yil 24 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ymoqda. Shu bilan birga, 2011 yilni Prezident I.A.Karimov tomonidan

"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi va Davlat dasturini qabul qilinishi yoshlar orasida tadbirkorlikni rivojlanishida aniq maqsadlarga qaratilgan chora-tadbirlarga keng yo'l ochib berdi.

Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida eng muhim va dozarb vazifa mulkni haqiqiy egalari qo'liga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib berish va mulkdorlarda egalik hissiyatini tarbiyalashdan iborat. Agar 1991 yili mamlakatda atigi 9,3 ming kichik korxonalar bo'lgan bo'lsa, 2003 yilga kelib ularning soni 65 mingdan oshib ketdi. 2008 yilda Respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 1,9 barobar ko'paydi va 400 mingtani tashkil etdi.

2000 yili faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlari yalpi ichki mahsulotning 30 % ni ishlab chiqargan bo'lsa, 2002 yilda kichik biznes va tadbirkorlik asosida ish yuritayotgan korxonalarning ulushi sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda 14,1 %, qurilish-pudrat ishlarida 36,8 %, chakana savdo oborotida 45,8 %, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishda 75,6 %ni tashkil etdi. 2007 yilda esa kichik biznes va tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 45,8 %dan 2008 yilda 48,2 %ga ko'tarildi. 2008 yilda O'zbekistonda ish bilan band bo'lgan jami aholining 76 %dan ko'prog'i aynan shu sohada mehnat qilayotgani va 55 %ni yoshlar tashkil etayotganligi diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda mamlakatda yalpi ichki mahsulotning 80 foizdan ortig'ini nodavlat sektori ta'minlamoqda. O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni 2000 yilda 4467100 nafar, 2003 yilda 5439700 nafar, 2006 yilda 7235000 nafar, 2008 yilda 7762800 nafar kishini tashkil etdi.

Shu bilan birga, "Kamolot" Yo'l Markaziy Kengashining "Yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, bandlik va tadbirkorlikka ko'maklashish" bo'limi ham yoshlarning hayotida uchraydigan turli muammolarni hal etish borasida muayyan ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, Harakatning joylarlagi bo'limlari 2001 yilda 95 nafardan ortiq yoshlarga kichik va o'rta biznes korxonalarini ochish yoki faoliyatini rivojlantirish uchun banklardan kredit olishda bevosita yordam ko'rsatdi, 2002 yilda 348 nafar yosh tadbirkorlar, o'rta va kichik biznes sub'ektlarining manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi murojaatlari Harakat tizimlarining rasmiy so'rovi orqali tegishli idoralarning amaliy ko'magida ijobiy hal etildi. 413 nafar yosh tadbirkorlarga mustaqil ravishda tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun tijorat banklaridan kredit olishda yordam ko'rsatildi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yirik biznes iqtisodiyotning tanasi bo'lsa, kichik va o'rta tadbirkorlik uning qon tomirlari, demakdir. 2012 yilga kelib O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiy etishi uchun mustahkam huquqiy zamin, imtiyoz hamda kafolatlar yaratildi.

Mamlakatda bozor iqtisodiyoti rivojlangani sayin mehnat bozoridagi raqobat yanada keskinroq tus olmoqda, jamiyatning o'qimishli, yangicha fikrlaydigan yosh tadbirkorlarga bo'lgan ehtiyoji yanada kuchayib bormoqda.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston yoshlarining tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

birinchidan, yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularda axloqiy va mehnat ta'limini tadbirkorlik bilan bog'lashga o'rgatish zarur;

ikkinchidan, yoshlarning tabiati ham uning ma'naviy-axloqiy yuksalish darajasini ko'rsatadi. Iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik bevosita kishilar ehtiyojiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning rivojlanishiga intilishi tadbirkorlikda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Iqtisodiy holatning qay darajada rivojlanganligi tadbirkorlar tashabbuslariga ham bog'liq bo'ladi;

uchinchidan, iqtisodiy tarbiya bevosita mehnat tarbiyasi bilan bog'liq bo'lib yoshlarda iqtisodiy bilimlar asosida tadbirkorlik madaniyati yuzaga keladi. Aholi tarkibida tadbirkor yoshlarning ko'payishi jamiyat rivojini va iqtisodiy taraqqiyotni nihoyatda kuchaytiradi.

Demak, iqtisodiy tarbiya kelajakda yoshlarni har tomonlama yuksalishida va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yoshlar jamiyat hayotining muhim bir bo'lagi bo'lib, ularning o'zini namoyon etishi va intellektual qobiliyatlarini yuksalishi, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Yoshlarni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

TEMUR TUZUKLARIDAGI MA'NAVY G'OYALAR

Bobomurod Tillayev,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi

«Temur tuzuklari» podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir. Asar ikki qismdan iborat: birinchi qismda jahon tarixida mashhur fotih sarkarda va iste'dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning 7 yoshidan to vafotigacha qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati aniqroq qilib aytganda, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, feodal tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va mamlakatlarni, jumladan: Eron va Afg'onistonni o'z tasarrufiga kiritish, Oltin O'rda hukmdori To'xtamishxonga (1376-1395), butun Evropaga qo'rquv va dahshat solgan Turkiya Sultoni Boyazid Yildirimga (1389-1402) qarshi va nihoyat, Buyuk Jahongirning Ozarbayjon, Gruziya, Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan. (Xalqaro Amir Temur Jamg'armasi. Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni mavzuidagi xalqaro konferentsiya tezislari.- Toshkent: O'zbekiston, 1996. b-77.)

Ikkinchi qismi Jahongirning nomidan aytilgan va uning toji taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. U davlatni i'ora qilishda

kimlarga tayanish, toju-taxt egalarning vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohiyarlarni maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarini burch vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida ko'rsatgan xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi. «Temur tuzuklari» Amir Temurning tarixi uning zamonida, aniqrog'i 1342-1405 yillar orasida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli Temur va temuriylar davlati hamda, qo'shini tuzilishi, o'sha yillarda Temur davlatining qo'shni mamlakatlari va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlari haqida hikoya qiladi. Davlat asosini 12 toifa:

1. Sayidlar, ulamo, mashoyiq, fozil kishilar;
2. Ishbilarmon, donishmand odamlar;
3. Xudojo'y, tarkidunyo qilgan kishilar;
4. No'yonlar, amirlar, mingboshilar;
5. Sipoh va raiyat;
6. Maxsus ishonchli kishilar;
7. Vazirlar, sarkotiblar;
8. Hakimlar, tabiblar, munajjimlar;
9. Tavsir va hadis olimlari;
10. Ahli hunar san'atchilar;
11. Sufiylar;
12. Sayyohlar va savdogarlarni tashkil etadi.

Uning taqdirini esa uch narsa podsho, xazina, askar hal qiladi.

Ikkinchi misol, qo'shin asosan o'n, yuz, ming va tumanga bo'lingan. O'n kishilik harbiy bo'linma tepasida turgan boshliq o'nboshi, yuz kishilik qismning boshlig'i yuzboshi, ming kishilik qo'shin etakchisini nomi-mingboshi, tuman boshlig'i no'yon deb atalgan. Asarda ularning haq-huquqlari, oylik maoshi ham aniq ko'rsatilgan. Masalan, oddiy sipohiy mingan otning bahosi barobarida, o'nboshi qaramog'idagi askarga nisbatan ikki barobar ko'p, yuzboshi o'n boshidan ikki barobar ko'p maosh olishgan.

Vazirlar-deyiladi, Tuzuklarda saltanat ustunlaridir. Ular mamlakat obodonchiligini raiyatning tinchligini, sipohlarning birligini, xazina boyligini doimo ko'zda tutadilar. Davlat saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydilar. Saltanatga zararli narsalarni qaytarishda moli-jonini ayamaydilar.

Tuzuklarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda amirlar asosan harbiy kishilar bo'lishgan va Amir Temurga tobe bo'lgan qirq aymoqdan 12 tasi: Barlos, Sergin, Jaloyir, Tokuvchi, Do'doy, Mo'g'ul, Sulduz, Tugay, Qipchoq, Arlot, Tatar va Tarxonlar ichidan saylab olingan. Tuzuklarda vazirlar, amirlar, hokimlarga beriladigan in'omlar haqida ham gapirilgan. Masalan, qaysi bir amir biron qo'shinni yengsa yoki mamlakatni olsa uni uch narsa;

1. Tug', nog'ora va bahodirlik martabasi;
2. Davlat kengashlariga bemaol kirish huquqi;
3. Biror sarhadning noibligi bilan saylanganlar;

Temur buyuk siyosatchi va davlat arbobi sifatida o'z davlatining ma'naviy va ijtimoiy-falsafiy tamoyillarini yaratdi. Temur ma'naviy qarashlarining asosida adolat kategoriyasi alohida o'rin egallaydi. Darhaqiqat, ma'naviyat markazida inson va jamiyat munosabatlari masalasi turadi. Inson tabiatda mavjud eng murakkab mavjudot bo'lib, u barcha falsafiy ta'limotlarning tadqiqot ob'ektiga aylanadi. Uning adolatli yoki adolatsiz xatti-harakatlari esa ma'naviyatning tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi. "Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu-sitam yo'lini to'sdim", -degan so'zlar Temurning adolatli jamiyat qurish uchun mazkur jamiyatni avvalo insonparvar shoh boshqarishi lozim, -deydi Temur. Uning barcha qilgan ishlari davlat va xalq tomonidan qabul qilingan qonunlar va islom falsafasiga tayanmog'i kerak. Islom ma'naviyati bu davrda bir-biri bilan uzviy bog'liq ikki muhim vazifani boshqarishga qaratilgan. Birinchidan ilmi al-Fiqh islom diniy falsafasi asosida Oллоhni tavsiflash va fuqarolarning burchini ado etishni, ikkinchidan a) kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni; b) shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarni; v) davlatlararo munosabatlarni tartibga solish qoidalarini o'rganishdan iborat bo'lgan. Shuning uchun ham, Sharq ma'naviyati, xususan Temur qarashlarida yuqorida qayd etilgan har ikki vazifani ham bajarishga va ularni takomillashtirishga qaratilgan edi. U olimu-ulamolar oldida tez-tez ma'ruzalar qilgan va bu chiqishlarning asosiy mazmunini adolat, insof, huquq, shariat, imyon va umuman inson hayoti falsafasi tashkil etgan.

Temur o'z faoliyatida ma'naviyatning islom dini qoidalari, shariat, fiqh qonunlari asosida olib boradi. Garchi uning davlati markazlashgan davlat bo'lsada, butun hokimiyat davlat boshlig'i qo'lida bo'lgan. Lekin, Temur davlat va xalq manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan qarorlar qabul qilishda mavjud ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy muammolarni echishda turli darajalardagi kengashlar chaqirib, ulamolar, donishmandlar fikrlarini o'rganish asosida qaror qabul qilgan. Amir Temur dunyoqarashida ma'naviyat, davlat boshqaruvi tizimida ma'naviy va diniy normalarning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi o'z aksini topgan.

JAMIYAT MA'NAVY TARAQQIYOTIDA MAHALLANING O'RNI

Bobomurod Tillayev,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi

Prezident I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarlarida yosh avlod tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan uch tabarruk makonga alohida e'tibor qaratadi: ularning birinchisi – oila, ikkinchisi – mahalla, uchinchisi- ta'lim-tarbiya tizimi.

Agar shu uch makonda ma'naviy muhit ko'ngildagidek bo'lsa, hammo ish ko'ngildagidek bo'ladi, agar ular tanazzulga qarab ketssa, butun jamiyat halok bo'ladi.

yuz tutadi. "Biz o'z farzandlarimizning baxt-u saodatini, iqbol va kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-kuydagi odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur", - deydi davlatimiz rahbari. Inson bir-biridan ma'naviy ozuqa olib yashaydi. U o'zining ongi, tafakkuri, ma'naviy olami bilan bir-biridan farq qiladi va bir-biriga ta'sir qilib yashaydi. Ayniqsa, Sharqda odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, o'zaro yaqin muloqotda bo'lib yashashga chorlovchi maskan – bu mahalladir. Inson ma'naviyatini boyituvchi, unga hamisha ma'naviy ozuqa, tarbiya beruvchi maskan sifatida mahallaning o'рни alohida. Shuning uchun bugun yurtimizda mahallalarga e'tibor berilayotgani ham bejiz emas, chunki mahalla asrlar davomida odamlar hayotida muayyan o'rin egallab kelgan. "Bir bolaga etti qo'shni ota-ona" degan maqol negizida mahalladagi yoshlarning tarbiyasida shu mahalla mas'uliyati yotadi.

Mahallada amalga oshirilayotgan har bir tadbir albatta shu mahallada o'sib-unib kelayotgan yosh avlod ko'z o'ngida sodir bo'ladi. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, keksalar, kasallar holidan xabar olishlik, etim- esirlarga muruvvat, obodonchilik, saronjom-sarishtalik, halollik va poklik, insonparvarlik singari fazilatlar, xalqimizga xos bo'lgan urf-odatlar ilk bor mahallada kamol topgan.

Zero Prezidentimiz aytganidek: "Mustaqillik yillarida bosib o'tgan yo'limiz va to'plagan tajribamizni holisona baholash, qo'lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan modelning naqadar to'g'ri ekanini va shu yo'ldan bundan buyon ham og'ishmay qat'iyat bilan borishimiz zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda".

Jamiyatning eng kichik bo'g'ini oila bo'lsa, mahalla ana shu jamiyatning ijtimoiy institutidir. Oilada bo'lib turadigan ba'zi bir masalalar azaldan mahalla doirasida hal etilishi xalqimizning qadriyati bo'lib kelgan. Mana shu kadriyatlarimiz hisobga olingan holda, O'zbekiston Konstitutsiyasida ota-onalarning farzandlari voyaga etgunga qadar ulami boqish va tarbiyalashlari, voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar oldiga ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishlari majburligi belgilab qo'yilgan.

Inson odob-ahloqini muayyan tartibga soluvchi, uni ezgulik sari undovchi, unga ma'naviyat qoidalaridan dars beruvchi va sharq kishisining qalbida yuksak ma'naviy fazilatlarini tarbiyalaydigan maskan-bu mahalladir. Mahalladagi tartib-qoida, urf-odatga hamma birdek bo'ysinishi shart.

Mamlakatimizda mahalliy boshqaruvda ham islohotlarni izchil amalga oshirib borilmoqda: "...Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, "Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmag" degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik". Bizning ajdodlarimiz iymonli hayot kechirish deganda aynan shunday turmushni tushungan, ular hech qachon kam bo'lmagan.

O'z mahallasi haqida qayg'urish, shu mahalladan chiqqan ulug' insonlar bilan faxrlanish, mahallaning sha'nini saqlash, mahalla obodligi uchun xizmat kilish bugun ham xalqimizning ezgu fazilatlaridan hisoblanadi. Bugun odamlar hayotini, ular ma'naviyatini mahallalar timsolida bemaolol kuzatish mumkin. Hech ikkilanmasdan aytish kerakki, biz har qaysi xonadon, butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo'lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini, avvaio, mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bo'lamiz. Mahalla hayotini haqqoniy yoritib berishda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyosdir.

Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarni, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmasligini o'zimiz yaxshi tasavvur etamiz. Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi. Mahallada odamlar bir-birini yaxshi biladi. Bu erda biror begona odam paydo bo'lsa, darrov seziladi. Shuning uchun ham O'zbekistonda mahallalarga bo'lgan munosabat o'zgacha. "Mahalla"-arabcha "joy", "o'rin", "makon" ma'nosini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakat "Mahalla" xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 1992-yil 12-sentabrdagi hamda xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi 1992-yil 8-oktabrdagi Farmoni mahallalarga homiylikni tashkil etishda katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Farmon mahalla qo'mitalarining o'z hududlarida istiqomat qiluvchi nogironlarga, yolg'iz keksalarga moddiy yordam berish hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida keng miqyosli ishlarga katta ko'mak berdi.

"... Bu dunyoda har qaysi inson baxtli bo'lishni, munosib hayot kechirishni istaydi. Xalqimizning bu boradagi ezgu orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, el-yurtimiz uchun hech kimdan kam bo'lmagan hayot darajasini ta'minlash yo'lida o'zimizni ayamasdan mehnat qilish biz-rahbar va faollarning nafaqat vazifamiz, ayni vaqtda muqaddas burchimizdir". (Karimov I.A. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi. //shonch.-2010.-18 dekabr.) Baxtli turmush uchun esa oila va mahallada zamin yaratiladi. O'zini o'zi boshqarish va idora qilishning milliy modeli sifatida mustaqillik yillarida o'zbek xalqining azaliy tarixiy udumlari, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda haqiqatdan ham ommani har tomonlama rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashdek oliyanob ishda mahallaning roli beqiyosdir.

O'RTA OSIYO NOTIQLIK SAN'ATI TARIXIDAN (VOIZ KOSHIFIY MISOLIDA)

Barotjon Ibrohimov,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi

Madaniyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan voizlardan biri mavlono Koshifiy edi. O'z sohasida butun Markaziy Osiyoga mashhur va manzur bo'lgani bois uning nomi yoniga voiz tahallusi ko'shib aytilar va yozilar edi. Kamoli ehtirom ila sohibi suxan deb ta'riflangan siymo mavlono Navoiyning zamondoshi va do'sti bo'lgan, Mir Alisher degan biroz keyin bandalikni bajo keltirgan. Ularning juda yaqin do'stona munosabatda bo'lganliklarini tasdiqlaydigan tarixiy manbalar bor.

Voiz Koshifiyning hozirgi notiqlar uchun ham namuna bo'ladigan asosiy fazilati bilimining chuqur, keng, binobarin, boyligi edi. U o'z zamonasida juda ko'p bilimlarni puxta egallagan, hatto ilmiy tadqiqotlar olib borgan zukko olim bo'lgan. "Majolis un-nafois"da yozilishicha, u olim "xususan va'z insho va nujumning haqqi durur, har qaysisida muta'yyin va mashhur ishlari bor".

Dotsent S. Inomxo'jaev eronlik olim Sayd Nafisiyini dalil keltirib, Koshifiyning asarlari 40 ta bo'lganligini eslatadi va o'z risolasida bulardan forsiyda yozilgan 14 tasini qayd qilib o'tadi. Shulaming o'ziyoq, "Ilmu fanning adabiyot, tarix, diniy, axloq, nafasat, huquqshunoslik, astronomiya kabi o'nlab tarmog'ini qamrab oladigan bu asarlar majmuasi Koshifiyning naqadar zo'r qudrat va bilim egasi ekanligidan jonli shahodatdir".

Voiz Koshifiyning o'z zamonasida zabardast notiq bo'lganligi xususida tarixiy dalillar ko'p. Uning notiqlik san'ati va u ijod qilgan o'sha davr nutq shinavandalarining unga bergan bahosini yorqinroq tasavvur etish uchun Koshifiyning o'g'li Safiyning bir asaridagi rivoyatni keltirish o'rinlidir. Unda yozilishicha, Sayid G'iyosiddin degan mashhur voiz bir anjumanga ancha fursat kechikib kelgan. Bu anjumanga mavlono Jomiy tashrif buyurgan ekanlar. Bu ulug' zot G'iyosiddin kirib kelgan ondayoq so'rabdilar:

Nechun kechikdingiz, Mavlono G'iyosiddin?

Meni ma'zur tuting, ustoz, degan ekan-u, kelayotgan edim, masjidi jom'eda Husayn Voiz nutq so'zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo'lib qolibman.

Xo'sh, qanday yangilik eshitingiz?

Hech qanday, debdilar G'iyosiddin.

Sabab?

Sabab shuki, debdi Kohkor, odam juda ko'p ekan. Olomon meni turtib, chekkaga chiqarib yubordi. Men shunchalik uzoq masofada edimki, uning ba'zi so'zlari zo'rg'a qulogimga chalindi.

Unday bo'lsa, nima qilib o'tirdingiz?

Qarab o'tirdim, debdi G'iyosiddin, Husayn voiz shunday nutq so'zlayotgan ediki, gaplarini eshitmasam ham uning mahoratiga mahliyo bo'lib, nutqining oxirigacha qarab o'tirdim.

Mavlono Koshifiyning zakovatu-mahorati shunchalik yuqori bo'lganki, Mir Alisher va Husayn Boyqaro ham o'z rasmiy mushoiralarida o'qib, sharxlab berish zarur bo'lganda uni taklif etganlar. 1492 yilning 8 noyabrida Jomiy dafn etilayotganda va'z aytish ham unga topshirilgan. Jumladan, shu marosimda mavlono Navoiy o'zining 7 band, 140 misradan iborat purhikmat marsiyasini o'qib eshittirishni Koshifiydan iltimos qilgan. Undagi bir to'rtlikning hozirgi o'zbek tilga yo'g'rilgan erkin tarjimasini keltiramiz:

Haqiqat konining gavhari, ma'rifat dengizining durrikim, Haqiqatga erisha oldi va qalbida undan boshqa narsa yo'q edi. Shubhasiz ilohiy sirning ochuvchisi edi, shu sababdan, Vafotining tarixi "Koshifi asrori iloh" bo'ldi.

Mavlono Mir Alisherdek siymo voiz Koshifiyga shunchalik yuksak baho bergan ekanlar, demak, u zo'r iste'dod va zakovat sohibi, dono va yuksak fazilatli olim bo'lgan ekan. Bitta nutqi shu bo'lganki, unda Mehnagay yoki Riyoziydagi kabi jur'at kamligidanmi, o'z davridagi hukmron mafkura qobig'ini yorib chiqqa olmagan. Shu bois u va'zlarida o'z iste'dodini to'liq namoyon eta olmagan.

Shunga qaramay, Koshifiyning voizlik salohiyati va zakovati yuqori bo'lgan. Bu o'rinda atoqli tarixnavis olim Xondamir o'zining "Habib us-siyar" asarida keltirgan tavsif diqqatga sazovordir. Uning yozishicha, Koshifiy voizlikdagina emas, ilmi nujum va inshoda o'z davrining yagonasi, o'zga bilimlarda eng zukko olimlardan biri hisoblangan; buning ustiga, yoqimli ovoz sohibi ham bo'lgan. Bu imkoniyatlardan esa u o'ta mohirlik bilan va o'z umida foydalangan.

Rivoyat qilishlaricha, mavlono Koshifiyning "haridori" shunchalik ko'p bo'lgan ekanki, sanalari oldindan aniq belgalangan jadval bo'yicha voizlikka tashrif buyurishga majbur bo'lgan ekan. Xondamirning shohidlik berishicha, u "juma kuni ertalab Hirotning markaziy chorsusida joylashgan shoh nomozgohida va'z aytgan, shu kuni peshindan keyin Alisher Navoiyning masjidida, seshanba kuni Husaynning madrasasida, chorshanba kuni pir Valid Ahmad mozori boshida, payshanba kuni Axmad Mirzo mozori boshida nutq so'zlardi".

HUQUQIY MADANIYATNING YOSHLAR ONGIDA SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Barotjon Ibrohimov,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi

Yoshlarning huquq va majburiyatga bo'lgan munosabat huquqiy hayotining barcha hodisalarning baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yuridik huquq va majburiyatlar orqali ularning madaniyat-qadriyat sifatida huquqqa bo'lgan undagi talablarga nisbatan ruhiy munosabatini ochib beradi. Yuridik huquq va

majburiyatlarga bo'lgan sub'ektiv-ruhiy munosabat, ularni huquqiy faoliyati orqali amalga oshirilishi talablari yoshlarning jamiyatdagi huquqiy hodisalarga nisbatan qadriyatlarni baholashini ochib beribgina qolmay balki madaniyatini faoliyat yurish turish bilan bog'liq tomonlarini aniqlaydi. Huquqiy madaniyatga huquq erkinlik va majburiyatlar orqali yondashib huquqiy madaniyatning yoshlarning huquqiy sohadagi faoliyatining muhim usullaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Yoshlarning huquqiy madaniyati to'g'risida gap borganda, birinchidan uning o'z huquq erkinlik va majburiyatlarini bilishi tushunishi va to'g'ri anglashi, baholashi, ikkinchidan esa ulardan amaliy faoliyatida foydalanishi haqida so'z yuritish joizdir. Yoshlarning huquqiy madaniyati asosi va o'ziga xos tomonlari quyidagi ko'rinishlarda o'z aksini topdi:

Birinchidan, yoshlarning huquqiy savodxonligi, ya'ni huquqiy bilimlarni o'zlashtirib olish, yuridik ma'lumotga esa bo'lishdir. U.Tajixonov ta'kidlaganidek, yuridik savodxonlik huquqiy bilimlar alifbosini, eng oddiy normalarni bilishni, huquqiy ko'rsatmalarning murakkab labirintida adashmaslikni, barcha zarur holatlarda mutaxassisga yordam so'rab murojaat etish ehtiyojini o'zida shakllantirishni taqozo qiladi. Chunki, bu savodxonlik uning har qanday holatda ham o'z xatti-harakatlarini belgilab olishda huquqiy talablarga muvofiq keladigan etalonlarga suyanishga imkon beradi. Huquqiy savodxonlik, bu faqat ma'lum bir huquqiy normalar, huquq tarmoqlari haqida ma'lumotga ega bo'lishgina emas, balki turli xil huquqiy ko'rinishlar, davlat va jamiyat hayotini huquqiy asoslarini rivojlantirish to'g'risida xabardorlik ham demakdir. Shunday qilib huquqiy savodxonlik, huquqiy bilimlarga ega bo'lish huquqiy madaniyatning bazasini tashkil etadi va jamiyatda insonlarning xulq-atvoriga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy savodxonlik, yuqorida ta'kidlab o'tganidek, faqat huquqni bilishgina emas, balki to'g'ri tushunish hamdir, qonun amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy vazifalarni bajarishdir. Ammo, yoshlarimizning qonunlarni o'zlashtirib olish darajasi pastligi bilan ajralib turadi. O. Balzakning "Fojiamiz shundaki, hech narsani qonunlarni bilganchalik yomon bilmaymiz" – degan fikrlari bizning yoshlarimizga ham taalluqlidir.

Ikkinchidan, yoshlarda qonunlarga bo'lgan chuqur hurmatni shakllantirishdir. Qonunga hurmat bilan yondoshish, bu hurmatni amalda namoyon etishning o'zi huquqiy madaniyatining oliy darajada namoyon bo'lishidir. Huquqqa hurmat – shaxs huquqiy madaniyatining muhim xususiyatlaridan biridir. Bu esa huquqning ijtimoiy qadr-qimmatini, uning ko'rsatmalarini bajarishning zarur va foydaliligini, huquq bilan qoniqqanlik tuyg'usini undagi talablarning adolatligini, qonuniy va burchlarni amalga oshirishda faol va ijodiy munosabatni tan olishdan iborat. Huquqqa hurmat munosabati o'zida ruhiy va mafkuraviy bosqichlarni mujassamlashtiradi, deb ko'rsatadi taniqli huquqshunos olim U. Tojixonov. Ruhshunoslik darajasida huquqqa hurmat, huquq bilan qoniqish tuyg'usida, undagi talablarni adolatligida namoyon bo'ladi, qonunlarga bo'lgan hurmat – barkamol yosh avlod huquqiy madaniyatining mavjud ko'rinishidir. Huquqqa yuksak hurmat

bilan qarovchi yoshlar har qanday huquqiy qoida va talablarni buzilishiga qarshi turadi, har qanday huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz bo'ladi. Shuningdek, yoshlarda huquqiy javobgarlik va intizom tuyg'usi yuqori darajada shakllangan bo'lishi kerak. Har bir qilingan ish uchun javob berish kerakligini tushunib etish kerak, javobgarlik borgan sari mustahkamlanib eng foydali va zaruriy odamga aylanmog'i lozim. Ayniqsa, insonning oila oldidagi ijtimoiy-huquqiy javobgarligi va burchi tuyg'usi bebahodir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlariga to'xtalib o'tsak: "Huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni emas, balki, ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ruyobga chiqadi". Huquqqa yuksak hurmat bilan qarovchi yoshlar har qanday huquqiy qoida va talablarning buzilishiga qarshi turadi, har qanday huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz bo'ladi. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan tasdiqlangan "Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish milliy dasturi"da mamlakatimizda qonun hujjatlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalar va standartlarga izchillik bilan muvofiqlashtirib borish zarur, Qonunlar hayotiy, amaliyot bilan uzviy bog'lik bo'lishi va undan kelib chiqishi lozim. Bunda qonunlar to'g'ridan-to'g'ri amal qilish kuchiga ega bo'lishi kerak, ijro etuvchi organlar qonun osti hujjatlarini qonunga qo'shimcha kiritish sifatida emas, balki ularning ijrosini ta'minlash uchungina qabul qilishlari mumkin, deya alohida ta'kidlagan edi. Qonun ustivorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri ham fuqarolarni qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, har kimda, asosan yoshlarda qonunga hurmat tuyg'usini shakllantirishdan iboratdir.

Uchinchidan, qonunga itoatkorlik masalasi. Qonunga itoatkorlik-jamiyatning ijtimoiy munosabatlari va huquqiy madaniyat rivojlanishi jarayonida shakllanib turadigan hodisadir. Qonunga itoatkorlik to'g'risida huquqning shaxs erki bilan uzviy boshqa jihatlari bo'lganidek, sobiq sovet davrida qariyb hech nima yozilmadi. Shu boisdan hozirgacha qonunga itoatkorlik ilmiy axloqiy va huquqiy tushuncha sifatida o'ziga munosib tadqiqotlarga ega emas. Yoshlarning qonunga itoatkorligi ularning yuksak huquqiy onglilik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib etib, ijtimoiy burch, davlat va jamiyat oldidagi javobgarlik tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Yoshlar qonun normalariga jazolanishdan ko'rqib emas, balki ixtiyoriy ravishda amal qilishlari zarur. Bu ularning ichki e'tiqodlariga aylanmog'i lozim. Akademik Sh. Z. O'razaev ta'kidlashicha, qonunlarga rioya qilish odati chuqur anglangan ehtiyoj bo'lishi kerak. Bu ehtiyojning realligi shundaki, yosh inson muayyan huquqiy me'yorlarni bajarish chog'ida har gal qonun talablaridan bajarishdan formal zaruriyat uning asosiy ichki ehtiyojiga aylanib qolgani uchun u mazkur talablarni tegishlicha qabul qiladi. Qonunlarga rioya qilish odati haqidagi masalani ko'rib chiqqan vaqtda, uning qo'llanish sohalarini turlicha bo'lishi mumkinligini E. M. Abzalov tadqiqotlarida uchratamiz. Bu birinchidan, huquqning u

yoki bu me'yorini bajarish odatini va ikkinchidan barcha huquqiy talablarni bajarish odatini farqlash kerak. Yoshlarda qonunlarga itoatkorlikni shakllantirish uchun, ularda ishonch hissini qaror toptirish lozim. Agarda mansabdor shaxslarning o'zlari qonunga itoat qilmas ekanlar, bu yoshlarda qonunga bo'lgan ishonchsizlikni yuzaga keltishiga sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari" nomli asarida, "O'tish davrining muayyan qiyinchiliklari sharoitida fuqarolar ongida, ayniqsa yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va huquqiy nazoratning e'tiboridan chetda qolsa ayniqsa hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlarni yomon yo'lga og'diradi. Axir jamiyat va davlat uchun yosh avlodning axloqan buzilishi va yuztuban ketishilan ayanchlirok, halokatlirok xol bormi o'zi?"-deb xalqimizga murojaat etdilar. Yoshlar orasida Huquqiy madaniyatning tarkib topishida va shakllanishida mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari, muomala madaniyati katta ta'sir kuchiga ega. Ayrim mansabdor shaxslarning o'zlari qonunlarni mensimasligi, ko'ra bila turib uni buzishi, boshqalarga nisbatan kalondimog'lik bilan munosabatda bo'lishi yoshlarga ayniqsa, yuridik sohadagi shaxslarga huquqiy negilizm (norma va qonunlarni inkor etish)ni keltirib chiqaradi, qonunlarga itoatsizlik huquqbuzarlik uchun jazo mukarrarligi, qonun oldida hamma tengligini har bir yosh chuqur anglab etishi kerak. Prizedent I.A.Karimov aytganidek: "huquqiy davlatning belgisi-barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi printsipini ta'minlashdir". Amir Temurning quyidagi so'zlarini shu o'rinda eslash joizdir: "Hokimlar va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm etkazishini eshitsam, ularga nisbatan shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim" yoshlarning o'zlarining olgan o'zlashtirgan huquqiy bilimlarini hayotga tadbiiq eta olishlari, yoshlar huquqiy madaniyatining o'ziga xos tomonlaridan biridir. Yoshlarning huquqiy madaniyat-huquqqa doir bilimlarni shunchaki o'rganib olish emas, balki ulardan huquq-targ'ibotni va qonuniyligni mustahkamlashga ongli suratda yo'naltirilgan amaliy faoliyatda foydalana olishidir. Agar bu bilim va ishonch yoshlarning amaliy faoliyatida yuzaga chiqmasa, u o'likdir va jonsizdir.

IQTIDORLI YOSHLARNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI

Akmal Abdullaev,

Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedراسi o'qituvchisi

Insoniyat taraqqiyoti shuni ko'rsatdiki, jamiyat rivojini jadallashtirishda, hatto davlat siyosatida tub burilishlarning yuzaga kelishida iste'dod egalarning roli juda kattadir. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Leonardo da

Vinchi, Mikelanjelo, T.Edison, A.Eynshteynlarining ishi jamiyat rivojlanishiga, dunyoning o'zgarishiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasida bunyodkor g'oyalar asosida iste'dodli yoshlar bilan ishlash yo'lga qo'yilmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «...birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi», deyiladi.

Yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan keyin iqtidorli talabalar bilan ishlash yangi bosqichga ko'tarildi va yanada takomillashdi. Bakalavr tayyorlash darajasida iqtidorli talabalar bilan ishlash ta'limning muvofiq yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashgan kafedralarda amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlari rahbarlari (prorektor, dekan) ixtisoslashgan kafedralarning mudirlari bilan hamkorlikda iqtidorli talabalarning arizalariga muvofiq, ularni bakalavriat ta'limi yo'nalishlarida o'qishni davom ettirish uchun taqsimlaydi va bakalavriat ma'muriyatiga talabalarning hisob kartochnalari hamda ilmiy tadqiqot ishi bo'yicha individual rejalari yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni tarbiyalash, o'quvchilarga puxta ta'lim berish, oliy ma'lumotli yangi avlod kadrlarini tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Zero, Yurtboshimizning «Farzandlarimiz bizdan ko'ra bilimli, kuchli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart» degan fikrlarida katta ma'no mujassamlashgan. Ayni paytda, ularni ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoyalash masalalariga ham e'tibor qaratilmoqda. Xususan, respublika oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan iqtidorli talabalarni taqdirlash va moddiy rag'batlantirishga oid O'zbekiston Prezidentining alohida Farmonlari talaba-yoshlarni yanada quvontiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi shu farmonlar asosida bir qator tadbirlarni belgilab, uni amalga oshirib kelmoqda. Prezident tashabbusi bilan 1990 yil 1 sentyabrdan boshlab barcha o'zlashtiruvchi talabalar (hatto "uch baho"ga o'qiyotganlar ham) stipendiya olishi joriy etildi. Amerika universitetlarida stipendiya tizimi mavjud bo'lsa ham, ammo u o'ta qobiliyatli va muhtoj talabalargagina beriladi.

O'zbekiston Madaniyat vazirligi 1991 yilda atoqli kishilar nomidagi 9 ta stipendiyani ta'sis etdi. Ular respublika san'at va madaniyat oliy o'quv yurtlarining talabalariga o'qishdagi alohida muvaffaqiyatlari uchun hamda ijodiyotda yangi yutuqlarga rag'batlantirish maqsadida belgilandi. Stipendiyalarga milliy madaniyatni rivojlantirishga katta va munosib hissa qo'shgan atoqli adabiyot va san'at arboblarning nomi berilgan. Xususan, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Muxtor Ashrafiy, Isoq Rajabov, Muhiddin Qori-Yoqubov, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov nomidagi stipendiyalar ta'sis etildi. Mannon Uyg'ur nomli Toshkent davlat san'at institutida ham talabalar o'z stipendiyalariga ega bo'ldi. Mannon Uyg'ur nomidagi birinchi stipendiya teatr fakul'teti talabalariga, Kamoliddin Behzod nomidagi ikkinchi stipendiya esa rassomchilik fakul'teti talabalariga berilmoqda.

Respublikamizda iqtidorli talabalarni rag'batlantirishning eng yuqori shakli Prezident stipendiyasining joriy etilishidir. Talabalarning iste'dodlarini namoyon etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda mustaqil O'zbekiston fuqarosining yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishga muhim ahamiyat berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 5 fevraldagi "O'zbekistonning o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish choralari to'g'risida"gi farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 25 martda «O'zbekiston o'quvchi yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida» qaror qabul qilgan edi. Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari va musobaqalari g'oliblari bo'lgan maktab va bilim yurtlari o'quvchilarini rag'batlantirish tartibi asosida Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi, Davlat sport qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari va musobaqalari g'oliblari tegishli oliy ta'lim muassasalarining mos ta'lim yo'nalishlariga test sinovlarisiz va kasbiy ijodiy imtihonlarsiz qabul qilinib kelinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 10 iyunda qabul qilingan «Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish to'g'risida»gi farmoniga muvofiq har yili Zulfiya nomidagi davlat mukofotlari sohiblari bo'lgan maktab, litsey, kollej, o'quvchilari ham mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasiga uchinchi o'quv yili aspirantlari uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalarini tayinlash yuklatildi. Oxirgi yil o'qiyotgan talabalar va aspirantlar-butun o'qish davridagi a'lochilar hamda tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotganlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari ta'sis etildi. Ijodiy ishda qatnashadigan uchinchi va undan yuqori kurslarning talabalari uchun quyidagi davlat stipendiyalari ta'sis etildi: texnika fakul'tetlari uchun-Beruniy stipendiyasi, tibbiyot fakul'tetlari uchun-Ibn Sino stipendiyasi, gumanitar fakul'tetlar uchun-Navoiy stipendiyasi, tabiiy fakul'tetlar uchun-Ulug'bek stipendiyasi va h.k.

Hozirgi kunda ishlab chiqarishning komp'yuterlashtirilishi va avtomatik boshqaruvning joriy etilishi davr talabidir. Ikkinchidan, ishlab chiqarishga eng ilg'or xorijiy texnologiyalar jadal ravishda kirib kelmoqda. Bunday texnologiyalar bilan ishlash va ularni boshqarish uchun talaba eng zamonaviy muhandislik bilimi hamda ko'nikmalariga ega bo'lmog'i lozim. Hozirgi bakalavr va magistr talabalar eng so'nggi jihozlar bilan yangilangan ilmiy-o'quv laboratoriyalarida, yangi texnologiyalar bilan qurollangan korxonalarda zamonaviy bilimlarni o'zlashtirmoqda. Buning ustiga professor-o'qituvchilar bilan bir qatorda, ko'plab magistrant-talabalar ham xorijiy ilmiy va ishlab chiqarish markazlariga safarbar etilmoqda. Ta'limda bunday faol xalqaro integratsiya avval yo'q edi.

Yaqin o'tmishda talabalar o'zbek tilidan tashqari rus tilini puxta bilsa, hayotda katta hurmat-ehtiroimga sazovor bo'lardi. Bugun esa talabalar, ayniqsa, magistrlar bir necha xorijiy tillarni bilishlari talab qilinmoqda.

Xorijda ta'lim olish baxtiga muayassar bo'lgan 742 ta iqtidorli talabaning 296 tasi Toshkentdan (shahar va viloyat), 75 tasi Samarqanddan, 65 tasi Farg'onadan, 59 tasi Andijondan, 53 tasi Buxorodan, 50 tasi Namangandan, 31 tasi Qashqadaryodan, 24 tasi Qoraqalpog'istondan, 23 tasi Xorazmdan, 22 tasi Jizzaxdan, 20 tasi Surxondaryodan, 16 tasi Navoiydan, 8 tasi Sirdaryodan tanlab olindi.

Respublikamiz ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy taraqqiyotidagi muhim o'zgarishlar, ro'y berayotgan tub burilishlar erishgan mustaqilligimizni mustahkamlashga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqimiz ozod, demokratik, huquqiy davlat qurish yo'lini tanlab, o'z ichki imkoniyatlariga tayangan holda yangi jamiyat poydevorini yaratmoqda. Bu jarayon mamlakatda o'ziga xos murakkab siyosiy, ijtimoiy munosabatlar majmuasini shakllantirishni, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy tarbiyamizni milliy istiqlol ruhiga moslab, keng miqyosda olib borishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda yurtimiz va xalqimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun olib borilayotgan g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1) talaba yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularda mustaqillik tafakkurini, qadriyatlarimizga hurmat, yuksak axloq, huquqiy bilimlar, ma'naviy etuklikni chuqur egallab, qonunlarimiz ustuvorligini tan oladigan, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini shakllantirish; 2) talaba yoshlarga ta'limning ijtimoiy-siyosiy jihatlarini keng targ'ib qilish; 3) mustaqillikning o'ziga xos xususiyatlarini yoshlar ongiga singdirish, o'zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar davlatimizning siyosiy, madaniy birligini ta'minlaydigan asosiy omil ekanligini chuqur tushuntirish; 4) talaba yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda milliy g'oya, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy madaniyat, tarixiy, falsafiy-axloqiy meros, shaxs erkinligi va rivojining davlat tomonidan himoya qilinishining afzalliklari.

Yurtboshimiz o'zining yoshlarga bo'lgan ishonchini quyidagicha bayon etadi: «Zamonaviy bilimlarni egallayotgan yoshlarimizga katta umid va ishonch bilan qarayman. Chunki o'z oldimizga qo'ygan ana shunday yuksak maqsadlarga erishish uchun yoshlarimizda barcha imkoniyat-aql-zakovat ham, kuch-g'ayrat ham etarli. eng muhimi, farzandlarimiz dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan insonlar bo'lib voyaga etishi uchun davlatimiz, jamiyatimiz barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Jumladan, YUNESKO xalqaro tashkiloti homiyligida «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasining ko'pgina loyihalari asosida, shuningdek, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Kamalak» bolalar tashkilotlari bilan hamkorlikda «Yangi avlod», «Navqiron O'zbekiston», «Kelajak ovozi» kabi respublika iqtidorli yoshlar tanlovlari, iqtidorli talabalar uchun stipendiyalar dasturi, festivallar, iqtidor egalarining intellektual bellashuvlari, fanlar bo'yicha olimpiadalar, konsertlar, badiiy ko'rgazmalar, ta'lim, pedagogik yo'nalishdagi grantlar dasturi ko'rik-tanlovlari o'tkazilishi mamlakatimiz yoshlari o'rtasida tobora ommalashib bermoqda. Forum jamg'armasi madaniyat, san'at,

ta'lim, sport sohalariga, noyob milliy merosimizni asrab va uni targ'ib qilishga, fan hamda ijodning turli yo'nalishlari bo'yicha yosh iqtidor sohiblarini kashf qilishga ko'maklashmoqda, san'at sohasidagi xalqaro almashinuv va madaniy muloqotni faollashtirmoqda. «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali iqtidorli o'g'il-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularga o'z iqtidor va salohiyatini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillikni mustahkamlashning asosiy vazifalaridan biri yoshlarda fuqarolikni shakllantirish, ularni umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, fuqarolik vazifalarini bajarishga tayyorlash, milliy ong darajasini oshirish, milliy fe'l-atvorning eng yaxshi belgilarini tarbiyalash orqali O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'uradigan, xalqi, Vatanining qadr-qimmatini, or-nomusini anglab, uni himoya qiladigan, yuksak g'oyalari, yangi kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, bor imkoniyatini yurti, eliga baxshida etadigan barkamol avlodni etishtirishdan iboratdir. Bu esa o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlarning ta'lim va tarbiya mazmuniga bevosita bog'liqdir.

«Umid» jamg'armasi, «Ustoz» jamg'armalari 2003 yil 1 iyulda birlashtirilib, ular negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi tashkil topdi. «Iste'dod» jamg'armasi orqali respublikamiz oliy o'quv yurtlari AQSh, Angliya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Finlyandiya, Italiya, Gretsiya, Xitoy, Koreya, Belgiya, Misr, Malayziya, Isroil kabi xorijiy davlatlarning oliy o'quv yurtlari bilan ta'lim, ilmiy, ilmiy-uslubiy sohalarda tajriba o'tirish uchun talabalar, aspirantlar va professor-o'qituvchilar almashuvi bo'yicha hamkorlikda ish olib bormoqda. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari respublikamizning universitet va institutlarida dars berish uchun taklif qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, iste'dodli yoshlar bilan ishlash yangicha g'oyaviy-siyosiy asosda yo'lga qo'yildi. Bunda, birinchidan, davlat va jamiyat qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy kabi sohalarda zamon talablariga javob beradigan iste'dodli kadrlarni tayyorlash izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ikkinchidan, yangi avlod kadrlari yangicha asosda, milliy istiqloq g'oyasiga tayangan holda tayyorlanmoqda. Uchinchidan, bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amaliyotga joriy etilib, ma'lum ijobiy yutuqlarga erishildi. To'rtinchidan, tarmoq vazirliklariga qarashli oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida yangi avlod kadrlarini tayyorlash tizimi isloh qilinib rivojlanib bormoqda. Beshinchidan, Davlat va jamiyat qurilishi, Tibbiyot, Qurolli kuchlar singari akademiyalarda yangi avlod kadrlari bilan birgalikda, rahbar ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ham keng yo'lga qo'yildi.

DINIY VA ETNIK ZIDDIYATLARNING YOSHLAR HAYOTIGA TA'SIRI

Abdulla Mansurov,

Namangan muhandislik texnologiya instituti o'qituvchisi

Bugun qator davlatlar fuqarolari orasida turli xil milliy, diniy, hududiy, professional jihatga ko'ra bo'linishlar jarayonlari kuzatilmoqda. Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvi oqibatida turli ziddiyatli vaziyatlar sodir bo'la boshladi.

Omma psixologiyasida ham chuqur o'zgarishlar kuzatilib, u ayniqsa o'z oldiga qo'yilgan maqsadning ijtimoiy shart-sharoit bilan o'zaro mutanosib kelmasligi, globallashtirish sharoitida shakllangan ijtimoiy jarayonlarning tezlashuviga insonlar dunyoqarashi hali tayyor emasligi, ijtimoiy sarosima holatiga va unga xos bo'lgan-qo'rquv, agressiyaning kelib chiqishiga olib kelmoqda.

Bu ayniqsa, ma'naviy sohaga ko'p ta'sir etishini kuzatish mumkin. Ma'naviy sohaning muayyan qismini din, diniy qarashlar, ta'limotlar, g'oyalar tashkil etadi. Bugungi kunda dunyoda qaysidir dinga e'tiqoq qilmaydigan biror-bir xalq yo'q. Oxirgi ming yillik ko'pgina millat va xalqlar o'rtasidagi turli xil diniy ta'limot va o'qimlarning to'qnashuvi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonni Amerikalik mashhur siyosiy arbob Semuel Xantington o'zining "Tamaddunlar to'qnashuvi" asarida atroflicha ta'xtalib o'tgan edi.

Avvalo din jamiyatni birlashtirish va integratsiyalashtirishga xizmat qiladi. Biroq, dinning ta'sir doirasi ijtimoiy jarayonlarga jiddiy aralashishni taqozo etayotganligi kuzatilsa, ijtimoiy va millatlararo ziddiyatlarning kelib chiqishiga, jamiyatda ro'y berayotgan hodisalarning murakkablashib borishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bulgarga islom fundamentalizmi, diniy ekstremizm, mahalliy diniy ziddiyatlar kabilarni kiritsak bo'ladi. Zamonaviy siyosiy institut va davlat hokimiyati tizimlari diniy ekstremistlar tajovuzkor tashlanishlarining ob'ektiga aylanmoqdalar. Zamonaviy islom ekstremizmining harakatlantiruvchi kuchlarini asosan yoshlar, talabalar, ishchilar, kichik savdogarlar, injenerlar, diniy qarashlarni o'zgartirgan shaxslar tashkil etadi. Konfessional va etnik sabablar asosida sodir etilgan konfliktlar bir necha yillarga cho'zilishi mumkin. Masalan, Shimoliy Irlandiya, Bolqon, Kavkaz hududlari bunga yorqin misol bo'la oladi. Ammo Hindiston-Pokiston o'rtasidagi konfessiyalararo konflikt birinchi marotaba yadro qurollariga ega bo'lgan mamlakatlar o'rtasida sodir bo'lmoqda. Yaqin Sharq inqirozining boshqa lokal diniy konfliktlardan farqli ularoq xususiyati shundan iboratki, muammoning markazida turgan Quddus, nafaqat konflikt ishtirokchilari (musulmon va yahudiylar), balki hamma nasroniy konfessiyalari uchun ham katta ahamiyatga egaligidir. Irlandiyadagi katolik va protestantlar o'rtasida davom etayotgan diniy qarama-qarshilik katoliklarning Buyuk Britaniya tarkibida qolishni xohlamayotganligi bilan murakkablashib bormoqda. Bu erda diniy konfliktlar etnik va mafkuraviy qarama-qarshilik bilan uyg'unlashib ketgan. Irlandiya Respublikasi

Armiyasining (IRA) g'oyaviy-nazariy asosini radikal-sotsialistik, deb baholash mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi kunda ko'pgina g'arbiy "separatistlar" sotsialistik va kommunistik g'oyalarga murojaat qilmoqdalar. Masalan, basklar mustaqilligi va Ispaniya tarkibidan chiqib ketish uchun kurashayotgan ETA terroristik tashkiloti radikal natsionalizm bilan uyg'unlashgan marksizمنى targ'ib qiladi.

Bundan tashqari insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida irqchilik hamisha u yoki bu davlatlarning chegaralarini kengaytirish, bosib olish, kolonizatsiyalash, zo'rvonlik kabi xatti-harakatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni oqlab kelgan. Zamonaviy tilda bunday harakatlarni "etnik tozalash" yoki "genotsid" deb atash mumkin.

1970 yillarga kelib, "skinheads"-sochi olingan, qo'pol oyoq kiyimlar kiygan, badaniga turli belgilar chizgan kishilarning umumiy qiyofasi vujudga kelgan. Bular asosan kambag'al oilalardan kelib chiqqan ishchilar bo'lib, o'zining shu kabi tashqi qiyofasi bilan boylarga nisbatan isyonini namoyish etgan edilar. Ingliz "sochi olinganlar"ning ko'pchiligi qora tanlilar, yahudiylar, gomoseksualistlar va xorijliklarga ochiqdan-ochiq murosasiz munosabatda bo'ladilar. Evropada "Irqiyo zo'rvonlikka qarshi skinxedlar" (ShARP), deb o'zini atovchi tashkilot mavjud. Ammo uning a'zolari irqchilikka qarshi kurashish niyatidan yiroqdalar. Skinxedlar qatorlarini turli mamlakatlarning neonatsistlari, faol jangarilari to'ldirib bormoqdalar. Ular irqning tozaligini saqlash tarafdorlaridir. Germaniyada skinlar turklarga, Vengriya, Slovakiya, Chexiyada lo'lilarga qarshi, Britaniyada osiyoliklarga, Frantsiyada negrlarga qarshi, AQShda esa turli irqiy kamsonli guruhlar va emigrantlarga, ayniqsa, yahudiylarga qarshi kurash olib boradilar.

Bu erda yangi harakat umrini surib kelayotgan irqiy va antisemit guruhlar (Ku-Klus-Klan), yarim harbiy neonatsist tashkilotlar qo'llab quvvatlashi oqibatida kuchayib bormoqda. Bu haqda Patrik Byukenon "G'arbnig o'limi" asarida ko'plab misollarni keltirib o'tadi.

"Ommaviy" madaniyat ta'siri ostida shakllangan tasavvur va madaniy "to'loqinlanishni" o'zida mujassamlashtirgan, o'z "jozibadorligi", ko'p yillar davomida "mumkin bo'lmagan" mavzularni o'zida aks ettirganligi bilan ayrim yoshlarimizni o'ziga rom etmoqda. Yoshlar orasida sochi "olinganlar"ga, skxinderlarga va chet el qo'pol metallistlariga ixlos qo'yganlar uchramoqda.

Yurtboshimiz I.A.Karimov "Fidokor" gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida bu masalaga alohida to'xtalib, afsus bilan inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlarni, ya'ni xatti-harakatlarni qo'zg'atib yuborish osonroqligini ta'kidlab o'tdilar. Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yoshlar bunday ta'sir ostiga kirib bormoqdalar, bundan esa ular shafqatsizlikni o'rganadilar, xolos. "Natijada,-deydi I.A. Karimov, - ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'rvonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi".

Mamlakatimiz yoshlarini bunday ta'sirdan ma'muriy yo'l bilan, qonun chiqarib ham to'xtatib bo'lmaydi va u davlatimiz, xalqimiz, yoshlar tarbiyasi va dunyoqarashiga ta'sir etib, katta xavfni o'zida mujassamlashtiradi. Shuni a'lohida aytish kerakki, g'arazli kirdikorlarini amalga oshirish maqsadida izg'ib yurgan kimsalar targ'ibot ishlarini qaysi yo'l bilan bo'lmasin olib borishga urinayaptilar.

Masalaning ikkinchi tomoni, afsuski, hozirgi kunda ham oramizda ma'nan qashshoq, dunyoqarashi tor, o'zini-o'zi o'ylaydigan yoshlar uchrab turishidadir. Aynan shunday kimsalar afyun mahsulotlariga bo'lgan talab bozorini vujudga keltiradilar. Xorijiy mamlakatlar hayotiga ko'r-ko'rona, bemorlarcha havas qilayotgan yoshlar ham uchramoqda. Turli yo'nalishdagi harakatlar, ommaviy madaniyat ta'siri ostida shakllangan qarashlar bugungi kunda bizning o'lkamizga ham kirib kelmoqda va o'z salbiy ta'sirini yoshlarimizga ko'rsatishi mumkin. Ularning oldini olish, yoshlarimiz ongining zaharlanishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borayotganligi, yo'ldosh aloqalarining katta imkoniyatlari mazkur muammoni yanada chigallashtirishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega. Rasmiy ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda dunyoda 500 dan ortiq terrorchilik tashkilotlari mavjuddir. Ular 60 ta davlat hududida o'z tarmoqlarini yoyishga muvaffaq bo'ldilar. Ayni davrda 84 ta davlat fuqarolariga qarshi terrorchilik harakatlarini amalga oshirmoqdalar. Mutaxassislar fikricha, jahonning turli mamlakatlarida sodir etilgan qo'poruvchilik harakatlarining 47 foizi-portlash (ulardan 13,7 foizi bombalar yordamida), 7,4 foizi-qotillik, 7,5 foizi-fuqarolarni o'g'irlash, 5,5 foizi-qurolli tajovuzlar orqali amalga oshirilgan ekan.

Darhaqiqat, terrorism ko'pgina davlatlarda jiddiy xavfga aylanib, xalqaro miqyosdagi muammo bo'lib bormoqda. Bu yovuzlikka qarshi samarali kurash olib borish uchun kurashning yangi, noan'anaviy shakllari va usullarini ishlab chiqish zarur.

Islom ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatdir. U biz uchun ham imon, ham diyonat qonunlarining majmuasidir. Bu e'tiqod, millionlab kishilar dunyoqarashining mavjudligining zaminidir. Hozirgi kunda O'zbekistonda "Movarounnaxr", "Islom nuri", "Movarounnaxr musulmonlari" nashrlari muntazam ravishda chiqib turibdi. Birinchi marotaba musulmonlarimiz muqaddas kitobi "Qur'oni Karim" o'zbek tilida nashr etildi.

1999 yil 7 aprelda "Toshkent Islom universitetini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni e'lon qilindi. Bunday maskan tashkil qilinishining asosiy sababi aholi tomonidan muqaddas islom dinimizga o'sib borayotgan qiziquvchanlik va talabchanlikdir. Islomni to'g'ri targ'ibot qiluvchi mutaxassislarni tayyorlash va ular faoliyatini jonlantirish aholining turli diniy ekstremistik kuchlar ta'siri ostida qolishining oldini olishga imkon yaratadi.

Yurtboshimiz I.A. Karimov aytganlaridek: "Biz ham farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning *mafkuraviy immunitetini* kuchaytirishimiz zarur. Toki, ular milliy ildizlari baquvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan inson bo'lib etishsin". (Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasini xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir //Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild.-Toshkent: O'zbekiston, 2000.-B.494-495) Negaki, ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan xalq, millat taraqqiy etadi, kelajakka qarab dadil, izchillik bilan qadam bosadi va aksincha, ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan mamlakat yoki davlat tanazzulga uchraydi.

YOSHLARDA VATANPARVARLIK VA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI

B. Tillayev,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi

D. Abduqahorov,

NamDU talabasi.

Ma'lumki mamlakatimiz mustaqillikka erishgach yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda ta'lim tizimining o'zining alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, ta'lim tizimida ong va tafakkurning rivojlanish jarayoni kechadi va ular o'z navbatida yoshlarni bilim egallash bilan birga ularni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda vatanparvarlik, millatparvarlik va umuminsoniylik kabi qadryatlarni o'zlashtirish ishida yaqindan yordam beradi. Shuning uchun ham ta'lim bilan tarbiya uyg'un holatda yoshlarning ma'rifat va ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omili sifatida har doim katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyaning uzviy ravishda olib borilishi nafaqat mamlakatning intellektual jihatdan yuksalishiga shuningdek, odamlarning ma'naviy barkamol bo'lishini ham ta'minlaydi. Shu bilan birga o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Tarbiya bilan ta'limni uzviy ravishda olib borishda, ta'lim tizimida o'qilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'zining nihoyatda kattadir. Chunki, ana shu fanlar dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda yetakchilik qiladilar. Ular o'quvchi, talaba va bugun ta'lim tizimidagi yoshlarning nafaqat ongi, tafakkurini rivojlantirishda, shuningdek ularni ma'naviyatini boyitishda ham muhim o'rin tutadi. Vatan va millat taqdiri, uning rivoji va istiqboli uchun mas'ullik tuyg'ularini shakllantirib boradi.

Shuningdek, yoshlar ongini ma'naviy tahdidlardan himoya qilib ma'naviyatini shakllantirish va boyitish bugun butun ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilardan chuqur bilimni va yoshlar o'rtasida ta'lim va tarbiyani uzviy ravishda olib borish hamda ma'naviyatga ega bo'lishni talab etadi.

Tarbiyani bunday shakli hozirgi murakkab davrimizda yoshlarni past saviyali "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan ishonchli himoyalash vositasi hamdir. Shu jihatdan maktab o'quvchisining maktab hayotidan tashqari boshqa turli ma'naviy-marifiy tadbirlarga jalb qilinishi alohida ahamiyatga ega. Shunday ekan, bu borada xalq ta'limi tizimida ahamiyatga molik qanday tajriba mavjud?

Ulg'ayib kelayotgan yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish, siyosiy bilimlarini yuksaltirish "Prezident asarlari bilimdoni" ko'rik tanlovi orqali ham amalga oshirilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktab-internatlar o'quvchilar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari tomonidan mustaqillik va uning yutuqlari, Prezidentimiz tomonidan milliy an'alarimiz va qadriyatlarimizning tiklanishi, mamlakatimiz aholisini turmush tarzini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni aniqlash, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi, shu orqali o'quvchilarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, huquqiy bilimlarini puhta egallashga yo'naltirish, yoshlarda davlat siyosati g'oyalarni chuqurroq anglash, milliy g'oyani yoshlar ongi va shuuriga, qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yanada takomillashtirish katta ahamyat kasb etadi.

Ko'rik tanlov "Prezident asarlari bilimdoni" kitobini o'qish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish, ularning o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin fuqaro, ozod shaxsni shakllantirish, yoshlarning ma'naviy jismoniy kamoloti uchun barcha huquqiy asoslar mavjudligini bilish, o'zini kelajagi buyuk davlat bunyodkori sifatida his etib, mamlakat taraqqiyotiga munosib ulush qo'shishga astoydil intila oladigan fozil yoshlarni tarbiyalash, bugungi globallasuv va axborot kommunikatsiyalarining tezlik bilan rivojlanishi davrida ma'naviy tahdidlarga nisbatan mustahkam g'oyaviy imunitetni shakllantirish, O'zbekiston ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik, tinchlik, erkin va farovon hayot tarafdori ekanligini singdirish, Vatan tuyg'usini anglash kabi fazilatlarni tarbiyalash maqsadlariga ko'rik tanlov asos bo'lmoqda. O'quvchi yoshlarda xalqimizga xos bag'rikenglik, o'zaro hamjihatlik, sahovatpeshalik va mehr-oqibat kabi ezgu fazilatlarni yanada yuksaltirish, ular ongida milliy g'oyaning tub mohiyatini ochilishiga imkon yaratish eng muhimi ular qalbidan joy olayotgan ijodkorlik tuyg'usi va yurtga daxldorlik hissidir.

Mamlakatimiz farzandlari kim bo'lmasin, qayerda yashamasin, yilning qay fastida bo'lmasin ta'lim-tarbiyaning, dam olishning va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning faol ishtirokchilari bo'lib hayot kechirmoqdalar. Bu mustaqillikning eng buyuk ne'matlaridan biri bo'lib, barkamol avlodni shakllantirishning asosiy omilidir. Zero voyaga yetayotgan barkamol avlod, yosh niholga qiyoslansa ularni voyaga yetkazib kamol toptirish, ularga ziyon yetkazuvchi turli ta'sirlarni bartaraf etish hammamizning vazifamizdir. Xulosa qilib aytganda, shaxs ma'naviyatini boyitib borishning omillari va vositalari bisyor, faqat ulardan samarali foydalanish lozim bo'ladi. Ma'naviyatli yuksak shaxsni tarbiyalash vazifasi mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun amaliy ahamyatga molik bo'lgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

TURKISTON TEMIR YO'LI TARIXIDAN

*Bahromjon Jalolov,
Farog'at Tursunova,*

Namangan yuridik kolleji o'qituvchilari

1917 yil oktyabrda Rossiya imperiyasi harobalarida davlat to'ntarishini amalga oshirib, o'zini "ishchilar sinfi rahbarligidagi ishchi-dehqon davlati" deb nomlagan Lenin etakchiligidagi bol'sheviklar hukumatining olib borgan siyosati talonchilik va zo'ravonlikdan iborat ekanligi jamiyatning barcha qatlamlariga ayon bo'la boshladi. Buning oqibatida podsho Rossiyasi o'rnini egallagan "Qizil imperiya"ning barcha sarhadlarida, shuningdek Turkistonda ham bol'sheviklar tuzumiga qarshi milliy ozodlik harakati boshlandi. Bu urushni yanada kuchayishini ta'minlagan bol'sheviklar "dohiy"si V.I.Lenin mamlakatning butun xo'jalik va siyosiy hayotini harbiy tartibda qayta qurishni talab qilib, o'z chiqishlarida "modomiki ish urushga borib etgan ekan, mamlakatning butun ichki hayoti va hamma narsa urushga bo'ysundirilishi lozim. Bunda zarracha ham ikkilanishga yo'l qo'yish mumkin emas" degan ko'rsatmasi qirg'inlarni kuchayishiga dasturamal bo'lib xizmat qildi.

Lenin bu kurashda o'zining partiyasini va hukumatini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi hamda xalqning ishonchiga kirib, ularni o'ziga og'dirib olish yo'llarini yaratdi. Biroq, birgina xalqning qo'llab-quvvatlashi bilan bu urushda g'alaba qozonish mumkin emasdi. Bundan tashqari ham zo'r vositalar mavjud bo'lib, ularni ham qo'lga kiritish kerak edi. Bu yo'lda mamlakatning "qon tomirlari" bo'lgan temir yo'l transporti va iqtisodiy resurslar ustidan nazoratni qo'lga olish va markazlashtirish uchun tarixga "harbiy kommunizm siyosati" nomi bilan kirgan rejani yaratdilar. Lenin temir yo'lga o'z maqsadlariga erishishning samarali vositalaridan biri sifatida qarab, shunday degandi: "...Temir yo'l transporti qil ustida turibdi. Agar poezdlar yurmay qolsa, proletar markazlari halok bo'ladi".

Bol'sheviklar butun diqqatlarini temir yo'lga qaratishib, bu borada ayniqsa Turkiston temir yo'li transporti alohida o'rin egallardi. 1917 yil noyabrda sovetlarga qarshi bo'lgan ataman Dutovich Turkiston va Rossiya o'rtasida dovon rolini o'ynovchi Orenburg temir yo'lini bosib oldi. Natijada Markaz va Turkiston o'rtasida aloqalar uzilib qoldi. Tarixga bu voqea "Orenburg to'sig'i" nomi bilan kirdi. 1918 yil yanvar oyida bu to'siq bartaraf etilishi bilan, Lenin temir yo'l masalasidagi muammolarni tezlik bilan hal etish borasida yanvar oyining o'zida ButunRossiya temiryo'lchilarining se'ezdini chaqirdi va bu se'ezdda temir yo'l faoliyati boshqaruvini qo'lga olish uchun ButunRossiya temiryo'lchilari ijroiya qo'mitasi (VIKjeldar) saylandi.

Bu orada RSFSR Xalq Komissarlari soveti Lenin imzosi bilan temir yo'l sohasiga oid ikkita dekretni qabul qildi. Birinchi dekret Yo'llar xalq komissarligining

ish faoliyati doirasiga taalluqli bo'lib, unda ushbu komissarlikni vakolatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash borasida bo'lib, temir yo'lda yuk tashish va poezdlarni harakatga keltirish ishida transportga rahbarlik qiluvchi yagona organ-Yo'llar xalq komissarligi ekanligi qayd etildi hamda mamlakat miqyosida temir yo'lda yuk tashish ishlari faqatgina Yo'llar xalq komissarligi ruhsati bilangina olib borilishi va boshqa har qanday tashkilotning bu ishga aralashuvi taqiqlandi. Bu talablarni kim buzsa, ular transportni buzuvchilar deb qoralanib, dushman sifatida inqilobiy sudga berilishi ta'kidlandi. Ikkinchi dekretida esa, "temir yo'lda boshqarishni markazlashtirish, yo'llarni saqlash va ularni poezdlarni o'tkazish qobiliyatini oshirish vazifalari belgilab berildi. Ushbu qarorlardan so'ng Markazning Turkiston temir yo'lga bo'lgan ta'siri yanada kuchaya bordi.

1918 yili yanvar oyining o'zidayoq, O'rta Osiyo temir yo'lida harbiy holat e'lon qilindi va Turkiston temir yo'llari boshqarmasi Turkiston temir yo'llarining harbiy boshqarmasiga aylantirildi hamda uning qoshida harbiy kengash tuzildi. Markaz bilan bu bog'lanish va qaramlik ko'pga cho'zilmadi. 1918 yili aprelida sovetlarga qarshi guruhlar tomonidan yana Orenburg ishg'ol qilinishi oqibatida Turkistonda vaziyat keskinlashdi, yoqilg'i tangligi boshlandi. Oziq-ovqat tanqisligi va ocharchilik kuchaygan bir vaqtda parovoz o'txonalarida paxta yog'i, quritilgan baliq, yoki saksovul, o'tin yoqilishi holatlari yuz berdi. Turkistonda avjiga chiqqan sovetlarga qarshi milliy ozodlik harakati va qarama-qarshiliklar tufayli temir yo'llar shikastlandi, temir yo'l vokzallari va stantsiyalari jang markazlariga aylantirilib, vayron qilindi. Temir yo'l bol'sheviklar uchun hayot-mamot masalasiga aylanib, bu holatga Markaz keskin choralar orqali javob qaytardi. Temir yo'lda "harbiy kommunizm siyosati"ni boshlanishi tufayli o'sha davrda xususiy bo'lgan ayrim temir yo'l tarmoqlari ustidan ishchilar nazorati o'rnatildi, biroq bu kamlik qildi, 1918 yili iyun oyida Turkistondagi barcha temir yo'llar musodara qilinib, temir yo'llar davlat mulkiga aylantirildi.

1918 yilning oxirida RSFSR mudofaa va mehnat kengashi temir yo'l transporti ishini tartibga solish, boshqa tashkilotlarning temir yo'l ishiga aralashuvini taqiqlash, harbiy anjom va oziq-ovqatdan iborat yuklarni tashilishini uzluksiz davom ettirish, qasddan poezdlarni halokatga uchratuvchilarni ogohlantirish to'g'risida maxsus qaror chiqarildi va ko'p o'tmay 1918 yili dekabrda esa Turkiston MIQ si "bo'sh ishchi kuchini temir yo'llardagi qor uyumini tozalashga safarbar etish to'g'risida" qarori qabul qilinib, qishloq va shahar aholisini bu ishga keng miqyosida jalb qilindi. Bu ishlar harbiy kommunizm siyosatining temir yo'ldagi "zo'ravonlik kurtaklari" edi. 1919 yil sentyabrda ikkinchi "Orenburg to'sig'i"ni bartaraf etishdagi kurash oqibatida Turkiston-Orenburg temir yo'lidagi tuzumga qarshi chiqqan guruhlar chekinish paytida temir yo'lga katta talafot etkazdilar. Turkiston fronti qo'mondoni M. V. Frunzening 1919 yil 16 sentyabrda Leninga yuborgan telegrammasida, uchastkada 100 tadan oshiq ko'priklar buzib tashlanganligi, temiryo'l tarmoqlari vayron etilganligi haqidagi ma'lumotnomasi orqali talafotlarning qay darajada ekanligini bilib olish mumkin.

Vayron bo'lgan temiryo'lni barpo etish masalasida mamlakatda so'nib borayotgan "mehnat jo'shqinligi"ni yana jonlantirish uchun Lenin tashabbusi bilan Sharqda insonparvarlik yordamining beqiyos namunasi bo'lgan "xayriya hashari"ni inqilobiy g'ayrat-shijoatning qudratli vositasiga aylantirishga, Turkiston xalqlarining oliyjanob saxovatlarini kommunistik mafkuralashtirishga urindi va jarayon "kommunistik shanbalik"larda o'z ifodasini topdi.

O'lkada birinchi shanbalik 1919 yil 11 oktyabrda Toshkentdagi tovar stantsiyasida o'tkazilib, ilg'or ishchilarni shanbaliklarda qatnashishi majburiy deb e'lon qilindi. 1919 yil oktyabrdan dekabrgacha 22 marta shanbaliklar o'tkazildi. Ushbu shanbaliklar tufayli Toshkent-Orenburg yo'lidagi vayronagarchiliklar bartaraf etilganligi haqida 11 oktyabrda Frunze Markazga xabar jo'natdi va o'z fikrini isboti sifatida 9 noyabr kuni temir yo'l uchastkasida harakat boshlanganligi va Toshkentdan paxta ortilgan birinchi poezd Orenburgga etib borganligi haqida xabar qildi. 1920 yili Markaz temiryo'lichilarning ishga bo'lgan munosabatini yaxshilash, faqat shanbaliklar bilangina ish bitmasligini sezib, 1920 yil 20 fevralda Leninning "remont qilingan yo'nalishlarda keltirilgan g'allaning 50 foizi ana shu remontlarda ishtirok etgan temiryo'lichilarga berilishi haqida" farmoni qabul qilindi.

Aytish mumkinki, vagon va parovozlar remontini jadallashtirish yo'lida temir yo'l ishchilarini rag'batlantirishning yangicha tartibi farmonda o'z aksini topgan edi. Bu farmon o'z samarasini ko'rsata boshladi, xususan, 1920 yil aprel-oktyabr oylarida Turkistonda o'tkazilgan transport haftaliklarida mahalliy-ishchi-xizmatchilardan 12 664 kishi ishladi va qisqa muddat ichida 99 ta parovoz va 182 ta vagon remondan chiqarildi. Buzilgan temir yo'l uchastkalari, vokzallar, stantsiyalar qayta ta'mirlandi. Kirib kelgan 1921 yil butun mamlakat hamda Turkiston temiryo'lichilari va aholisi uchun og'ir sinovlar yili sifatida tarixga muhrlandi.

Bol'sheviklarning olib borgan "harbiy kommunizm siyosati", qurg'ochilik, oziq-ovqat tanqisligi oqibatida Volgabo'yi, Uraloldi hamda sovetlar ta'siri ostidagi ayrim hududlarda ocharchilik sodir bo'ldi. 1919 yili Turkiston temir yo'lida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari ocharchilikka yo'liqqan ochlarni asrab olishga yo'naltirildi. Buning ustiga 1921 yil aprelda Lenin temir yo'ldagi ocharchilik tufayli yuzaga kelgan tartibsizliklar va yo'ldagi boshqaruvni izdan chiqib ketishini oldini olish, temir yo'ldagi ma'suliyatni yanada kuchaytirish maqsadida Yo'llar xalq komissari etib, ayni paytda mamlakat ichki ishlar xalq komissari lavozimida bo'lgan F. E. Dzerjenskiyni tayinladi. Ko'rinib turibdiki, temir yo'ldagi barcha ishlar Ichki Ishlar komissarligi tassarufiga o'tkazilganligi temir yo'l ustidan nazoratni qattiq olib borishni Markaz o'z oldiga maqsad qilib qo'yg'anligidan dalolat berib turibdi. Biroq, bu tadbir Markaz kutganchalik natija bermadi, Orenburg-Toshkent uchastkasida ocharchilik tarqalgan hududlardan Turkiston tomonga evakuatsiya qilinuvchilar miqdori belgilangan me'yoridan ham oshib ketishi o'lka temiryo'lichilarini imkoniyatlari evakuatsiya ishlarini nazorat qilishga etmadi.

1921 yil noyabr' oyi oxirlarida, Orenburg-Toshkent yo'nalishida ko'chiriliyotgan ochlar bilan to'lgan poezd eshelonlari yo'lda to'planib qolishlari natijasida har kuni yuzlab odamlarni ochlik va kasalliklardan o'lishlari, poezdlar va vagonlar etishmasligi, hamda temir yo'dagi boshqaruvni izdan chiqqanligining yaqqol belgisidir. Shuningdek, 1921 yilning 21 noyabrida Orenburg-Toshkent temir yo'l uchastkasida yog'och, metall, va bolalar, keksalar, kasalmandlar bilan to'la 55 eshelon to'xtatib qo'yilgani, temir yo'dagi ahvol izdan chiqib ketganligi va poraxo'rlik avjiga chiqqanligini ko'rsatardi.

Orenburg temir yo'lida 1921 yil 1 sentyabr' holatiga ko'ra, 26774 kishi ishlar, harakatda 3360 vagonning mavjudligi vaziyatni yumshatishda o'jizlik qildi. Iqtisodiy vaziyatning keskinligi va moliyaviy jihatdan ahvolning og'irligiga qaramay, Markaz Turkistondagi temir yo'llarni ta'mirlash va tiklash ishlarini davom ettirdi. 1923 yil 5 oktyabrda SSSR Mehnat va Mudofaa Soveti qarori bilan F. Dzerjenskiy rahbarligi ostida Ettisuv temir yo'lini qurish qo'mitasi tashkil etilib, Markaz Turkistonda temir yo'llarni barpo etishga katta e'tibor bilan qaradi. Afsuski, Turkistonga nisbatan ko'rsatilgan ushbu "g'amxo'rliklar" Markaz manfaatlariga xizmat qilib, temir yo'l transportining rivojlanishi Turkistonda sovet mustamlakachiligini mustahkamlashga, keyingi yillar uchun esa o'lkani SSSRning xom-ashyo bazasiga aylantirishga xizmat qildi xolos.

Turkiston xalqlarining azaliy orzusi bo'lgan hurfikrlilik, istiqloлга intilgan Turkiston Muxtoriyati va milliy ozodlik harakatlari temir yo'lining "beminnat yordami" bilan bostirildi va yo'q qilindi. Tariximizda alohida o'rin egallagan sovet mustamlakachiligi davri o'zining turli jinoyatlari, oxiri ko'rinmagan turli siyosiy-iqtisodiy xatolar, yo'qotishlar hamda millionlab begunoh insonlarning umriga zomin bo'lgan tuzum sifatida o'tgan asr oxirida barham topdi. Tarixning ushbu qora dog'lari bo'lgan mudhish kunlarni o'rganish, bugungi kunda istiqlolni asrab avaylashga, mustaqillikni qadriga etmoqlikka da'vat etadi. Zero Prezidentimiz aytganidek: "...O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q".

YOSHLAR ONGIDA MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

*Muqaddas Xojiboeva,
Namangan tibbiyot kolleji "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi*

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab xalqimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho madaniy va ma'naviy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani muhim vazifa bo'ldi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayondir.

Millatning milliy-ma'naviy qadriyatlariga odob-axloq, ta'lim-tarbiya, urf-odat, an'analar, tarixiy davrlardan meros bo'lib qolgan millat uchun qadri bo'lgan barcha narsalarni kiritish mumkin. Prezident I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, "Odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, etakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi-bularning barchasi avvalo uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi". Biroq yoshlar tarbiyasi faqatgina oila doirasida shakllanadigan jarayon emas. Negaki, bir bolaga etti mahalla ota-ona, degan hikmat bor xalqimizda. Shu ma'noda aytish mumkinki, yoshlarni barkamol qilib voyaga etkazishda, uning tarbiyasiga, ma'naviy kamoliga faqat ular yashayotgan oilagina emas, balki butun jamiyat a'zolari javobgardir. Yoshlarni yangicha fikrlashga, yangiliklar yaratishga harakat qiladigan, mamlakat taraqqiyotiga yangicha o'zgartirishlar kiritadigan tashabbuskor farzandlar qilib tarbiyalashimiz lozim.

Jamiyatimizdagi o'zgarishlarni yoshlarsiz, ularning faol mehnati, aqlu-zakovatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yangiliklarga intiluvchi, kuch-g'ayrati to'la yoshlar jamiyatining kelajagi bo'lib, ularni barkamol inson qilib tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Ularning jismoniy salomatligi va ma'naviy kamolotining mushtarak rivojlanishiga e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda.

Milliy-ma'naviy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlari qadriyatlaridan farqlanib turuvchi, ularga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar, marosimlar ham mavjud. Qadriyatlarni tushunish, ularga xos munosabat, o'z millatiga, yurtiga tegishli qadriyatlarni avaylash, ularning ahamiyatini asoslash, kishilarda o'z xalqi o'tmishiga ishonch va hurmatni mustahkamlaydi, vatani istiqboliga katta umid bilan qarashga undaydi. Har bir millatning o'z milliy qadriyatlariga munosabati qanchalik faol bo'lsa, shu millatning jahon hamjamiyatidagi o'rni, obro'si, hurmati shu qadar baland, nufuzi shu qadar yuksak bo'ladi.

Bugun har bir sohada izlanuvchan, intiluvchan, g'ayratli, o'z mustaqil fikriga ega, shu zamin farzandiman, uning taraqqiyotida mening ham o'z o'rnim, o'z xissam bo'lishi zarur, degan olijanob maqsadni o'z oldiga qo'ygan yoshlarni ko'rib, kelajak mana shunday iqtidorli yoshlar qo'lida ekanligidan qalbimizda xotirjamlikni his qilamiz. Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan etuk barkamol yoshlari bilan jahonni qoyil qilishi lozim".

Bu o'rinda mustaqillik davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, ikki-uch tilda bema'lol gaplasha oladigan ming-minglab yoshlarimiz misolida ana shunda

orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Xulosa qilib ta'kidlaydigan bo'lsak, yoshlarni milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mustaqillik bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan jarayondir. Milliy o'zlikni anglashning tiklanishi esa o'z navbatida, yoshlar ongida milliy va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI

*N.Imomberdieva,
Namangan shahar 13-umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim-tarbiya ishlarini milliy andozalar asosida tashkil etish, uning samaradorligini oshirishga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Chunki, buning o'ziga yarasha sabablari bor. Vatan kelajagi, mamlakat taraqqiyoti yuksak bilimli, ma'naviyatli yoshlar qo'lida. Ozod va obod Vatan g'oyasi O'zbekiston zaminida kelajagi buyuk davlat, erkin va farovon jamiyat barpo etish uchun xalqimiz kuch-quvvatini jipslashtirishni, xalq irodasini bunyodkorlik ishlariga safarbar etishni, vatanparvar avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Bu o'rinda maktab va oila hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ilib o'sgan makon, oilada, ota-ona bag'rida voyaga etadi, aqlini taniydi. Maktab ostonasiga qadam qo'ygan bolalarning ta'limi va tarbiyasida keyingi navbatda o'qituvchining o'z o'rni bo'ladi. Bu jarayonda maktab va oila, ya'ni ota-ona va o'qituvchi hamkorligi g'oyat muhimdir.

Ota-ona birinchi navbatda tarbiya uchun mas'ul bo'lmo'gi lozim. Chunki, yaxshi tarbiya ko'rgan bola ayni paytda yaxshi ta'lim ham oladi. Yomon tarbiya ko'rgan bola na ilmni, na o'qituvchini qadriga etadi. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo sadoqat-yo falokat masalasidir", - deb bejiz aytmagan.

Go'zal axloq va tarbiya bilan kamol topgan shaxs Vataniga, tug'ilib o'sgan yurtiga, hamyurtlariga muhabbatli bo'ladi. O'z Vataniga, tavallud topgan zaminga yuksak hurmatda bo'lgan ulug' ajdodlarimiz ismlari oxiriga tug'ilib o'sgan joy nomini unutmilik uchun qo'shib ayganlar: Xorazmiy, Buxoriy, Farg'oniy, Termiziy, Marg'inoniy, Farobiy, Qoshg'ariy, Nomongoniy, Samarqandiy va boshqalar. Bu kindik qoni to'kilgan erga, Turkistonga, O'zbekistonga, o'z Ona-Vataniga bo'lgan azaliy sadoqat timsolidir. Buyuk ajdodlarimiz shu yo'l bilan o'z Vatanini, yurtini, madaniyatini, fanini, san'atini butun jahonga targ'ib qilganlar. Bu noyob vatanparvarlik namunasidan kelib chiqib, har bir O'zbekiston fuqarosi o'z tug'ilgan joyini gullatib yashnatishi, Yagona Vatani bo'lmish O'zbekistonning buyuk kelajagi

uchun fidokorona mehnat qilishi va Vatan ravnaqiga o'zining hissasini qo'shish lozim. Bu xislatlar tabiiyki, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi.

Ayrim holatlarda ba'zi ota-onalarning "bolamni maktabga berdim, endi uning ta'lim-tarbiyasi uchun o'qituvchi mas'ul", deb xotirjam yurishlari mutlaqo noto'g'ridir. Qushning ham ikki qanoti bo'ladi, ta'lim-tarbiya samaradorligini ham shunga qiyoslash mumkin. Faqatgina maktab va undagi o'qituvchining jonfidoligi etarli emas, bu borada. Ma'lumki, 3 yoki 4 ta bolaning nazorati 20-30 bolaning nazoratidan engilroq. Shu tufayli har bir ota-ona farzandining kundalik vaqt taqsimotini, bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotganligini, darslarni o'zlashtirishini, uy topshiriqlarini bajarishini kuzatib bormog'i lozim.

Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish yo'lida Namangan shahar 13-umumta'lim maktabida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Maktab rahbariyati ota-onalar bilan uchrashuvlar, suhbatlarni muntazam tashkil etib bormoqda. Odob-axloq, bilim borasida namuna ko'rsatgan o'quvchilar va ularning ota-onalari ma'naviy rag'batlantirib borilmoqda.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li, bunamunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak. Maktabda muallimlarning ta'lim berish usullaridan tortib, to «mayda-chuyda» xatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo'ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta'minlovchi omillardandir. Shu sababli ustoz-muallimlar ham o'z ustilarida tinmay ishlashlari lozim bo'ladi.

Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlar ruhiyatida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, adolatli va huquqiy jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi. Shuning uchun vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish butun tarbiyaviy ishimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmog'i lozim.

MILLIYLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN XAVF-XATARLAR

*Sirojiddin Jalolov,
NamDU talabasi*

Prezident I.A.Karimovning 2006 yil 25 avgust kuni "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 451-qarori e'lon qilingan edi.

Mazkur qaror talablariga ko'ra, joylarda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qaror talablari nafaqat ayrim idora yoki mas'ul shaxslarning vazifasi balki har bir fuqaroning vijdoniy burchi hisoblanmog'i lozim.

Birinchiidan, milliy qadriyatlarimizga bo'layotgan tahdidlarni to'g'ri anglab etib, ularga qarshi chora tadbirlar qo'llash ya'ni turmush tarzimizga kirib kelayotgan xurujlardan saqlanish. Aks holda g'arbcha axloqsiz (amoral) madaniyat kirib keladigan bo'lsa, bolaning otaga, otaning farzandga, kattaning kichikka, qudandalarning bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabatlari tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin.

Ikkinchiidan, urf-odatlarimizga kirib kelayotgan xatarlardan xoli bo'lish. Chunki, qarindosh urug'lar o'rtasidagi munosabatga darz ketadigan bo'lsa, g'arbcha amoral demokratiya tarbiyasini olgan quda xola bir kun kelib, "Qizim ham teng huquqli inson, shuning uchun qizim olti oy kuyov bilan nikoh qurmasdan turib yashashi kerak» deb, shart qo'yishi mumkin. Bu esa bizning milliyligimizga yot tushunchadir.

Uchinchiidan, farzandlar tarbiyasiga daxl qilayotgan tashqi ta'sirlardan himoyalaniş masalasi ham juda jiddiy. Ayanchli tomoni shundaki, yarim yalang'och kiyingan qizlar, erkaklarimiz tomonidan oilani boshqarishda etakchilikni qo'ldan chikarishi va subutsizligi natijasida xayvo va andishalar yo'qolib borib, pirovard natijada, oila degan muqaddas dargohga darz ketadi, natijada oila darz ketishi bois jamiyat yot unsurlarni o'z ichiga in qo'rib olishiga sharoit yaratib beradi.

Bular mayda-chuyda gaplar emas. Bugun maktabda ta'lim-tarbiya berayotgan ustoz o'qituvchining salgina dakkisini eshitgan o'quvchining himoya qilayotgan otanalar soni ancha-muncha ko'payib qoldi. Ular o'zlariga o'qituvchi bolamni bekorga koyimagandir degan savolni berishmaydi. Aksincha, "O'g'limga tanbeh berishga nima haqqingiz bor" deya do'qpo'pisa qilishadi. Vaholanki, ota-bobolarimiz bolasini ustozga «Eti sizniki, suyagi bizniki» deb topshirishgan. Farzandlarini bizdan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rishgani uchun ularning kelajagi haqida qayg'urishgan.

Bunday odatlarimizning asta-sekinlik bilan yo'qolib borayotgani esa milliylik, millatga bo'lgan tahdid, xavf-xatar sirasiga kiradi.

Endi bugungi kunda milliylikka tahdid solayotgan unsurlardan biri bo'lgan ommaviy madaniyat deb aytilayotgan tushunchaga to'xtalsak. «Ommaviy madaniyat» g'oyasi dastlab o'tgan asming boshtlarida paydo bo'lgan bo'lsada, asosan elliginchi-oltnishinchi yillarda g'arb dunyosida kuchaydi. Bu g'oya keng targ'ib qilinlar ekan, uni demokratiyaning asosi sifatida boshqalarga tiqishtirish boshlandi. eng dahshatlisi, bu g'oya turli xalqlarning milliy qadriyatlariga, urf-odat va an'analariga huruj qila boshladi. Uning salbiy oqibatlarlari yoshlar tarbiyasini izdan chiqardi. G'arb mamlakatlaridagi boshboshdoqlik va to's-to'polonlarda yoshlar tashabbuskor bo'lib qolishdi. Me'yorsiz erkinlik nafaqat axloq-odobda, balki beboshlikda ham etakchi kuchga aylandi. Bu illat buzg'unchi kimsalar va turli markazlar tomonidan targ'ib etilib, bir millatning boshqa millat, bir davlatning boshqa davlat, ma'naviyatsizlikning milliy qadriyatlar ustida hukmronligini o'matish vositasi bo'lib qoldi. Aslida «ommaviy madaniyat» hech qanday tarixiy, ma'naviy, diniy, millat-etnik, ilmiy-ijtimoiy asosga ega bo'lmagan, balki bir guruh g'araz niyatli kishilar tomonidan o'ylab topilgan o'ta zararli g'oyadir. Yurtboshimiz o'zining «Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch» asarida «ommaviy madaniyat»

tushunchasini va uning mazmunini «ma'naviy va axloqiy tubanlik illati» deb izohlagan.

Bu illatning xurujlari bizni ham chetlab o'tmayapti. Zamonaviylik, erkinlik, demokratiya, moda, hayotdan zavqlanish, taraqqiyot timsoli degan niqoblar ostida xurujlarga ba'zi yoshlarimiz duchor bo'lishayotgani bor haqiqat. Biz bolalab ketayotgan tungi barlarda yoshlarning shaytoniy vasvasaga tushish holatlarinigina nazarda tutayotganimiz yo'q. Balki. kundalik oddiy hayotda ko'rib-kuzatib turganimizga sha'ma qilayapmiz. Masalan, Namangandagi xiyobonlar, oromgohlar, boshqa xushmanzara joylar bahorda, yozda, kuzda shunday maftunkorlikka burkanadiki, qo'yilgan ko'plab o'rindiqlardan birida o'tirib biroz orom olsangiz, atrofdagi maftunkorlikdan bahramand bo'lgingiz keladi. Gohida, buning ilojini topolmay qolamiz. Chunki o'rindiqlarning deyarli hammasini bir-birlariga qapishib behayo va bachkana qiliqlari bilan atrofdagilarda nafrat uyg'otadigan yosh tengdoshlarimiz egallab olishadi. Qanday qilib ularning oldiga borib o'tirasiz? Mana sizga «ommaviy madaniyat» niqobidagi erkinlikning oqibati.

Shuning uchun bugun biz milliyligimizga xavf solayotgan jamiki, xatarlarni ongli ravishda oldini olishimiz kerak. Buning uchun ota-onalar va jamiyatni faol qatlami shu milliylikka havf solayotgan yot unsurlardan o'ziga yarasha immunitetga ega bo'lmog'i lozim deb o'ylayman. Chunki o'zi shu unsurlardan holi bo'lmagan inson qanday qilib boshqalarni bu yo'ldan qaytarsin yoki oldini olsin. Bu kabi hurujlarni oldini olish uchun avvalo insonlarni mafkuraviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash kerak. Shu o'rinda qishloqda va chekka hududlarda yashaydigan odamlarga qanday qilib, bu kabi illatlardan himoya qilish mumkin degan savol tug'ilishi mumkin. Buning uchun ommaviy axborot vositalari va radiolar orqali ko'proq shu haqda ma'lumotlar berish, kerak bo'lsa, maxsus ko'rsatuv ham tayyorlab efirga uzatish lozim. Bu ko'rsatuvni ko'rganlar birinchi gal qiziqmasliklari mumkin, ikkinchi gal ko'rganlarida qiziqib qolib, mafkuraviy-g'oyaviy hurujlarni naqadar havfli ekanligini anglab etadilar. Bu ko'rsatuvlarni shu qadar qiziq qilib tayyorlash kerakki, xotin-kizlar qanday qilib koreys va turk seriallarini kutganday keyingi ko'rsatuvni intizor bo'lib kutishsin. Buning uchun aniq va hayotiy misollardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lardi. Prezidentimiz I.A.Karimovning g'oyaga qarshi g'oya bilan, fikrga qarshi fikr bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerak, deb aytgan fikrlari naqadar to'g'riligiga ishonch hosil qilamiz.

MAFKURAVIY TARBIYA MASALASI

*Islomxo'ja Xo'jaxonov,
NamDU talabasi*

Hozirgi davr-dunyo g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib kommunistik partiya ta'siridagi sotsializm lageri parchalandi. Dunyo mamlakatlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga

bo'lindi. Ana shu rivojlangan ba'zi mamlakatlar jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinmoqdalar. Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonlarida emas, balki mafkura poligonlarida yuz beradi". Shu jihatdan qaralsa, bugungi kunda yoshlar ongini egallashga qaratilgan mafkuraviy tahdidlar nihoyatda avj olmoqda. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdan biri ekanligi barchaga ma'lum. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtu-saodati va kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida mehnat qiladi. Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir. Shuning uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridanoq Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yo'nalishi belgilab olindi. Bu o'rinda Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlash o'rinni "Biz yoshlarimiz tarbiyasini birovlariga berib quymaymiz". Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi faqat maktabda yoki oilada emas, balki butun jamoatchilik oldidagi muhim vazifadir.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunida yoshlarga oid siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, ularga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlarni belgilab quyilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yili 29 avgustdagi 9-sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'lim sohasini isloh qilishda muhim rol o'ynadi. Bugun bizga bitiruvchilar emas, balki maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak. Darhaqiqat, "mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda. Yoshlarga katta ishonch bildirib, ularni rag'batlantirish, ruhlantirish ham katta samara bermoqda". Shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la echilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, ularni hayotda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishi shart.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasida OAVning ham o'rni nihoyatda kattadir. Ommaviy axborot vositalari mafkuraviy qurol sifatida qaraladigan mamlakatlarda, so'z erkinligi ustuvor davlatlarda ham, jamiyatning ma'naviyati, mafkurasini o'zida aks ettiradigan, shakllantiradigan tizim hisoblanadi. Bugun yoshlar ko'proq vaqtini engii-elpi xorij kinolari, ko'rsatuvlarini tomosha qilishga, internetga sarflashi va ularning ongi o'sha kino, ko'rsatuvlardagi muammolar bilan to'lib, internetdagi turli xil yolg'on axborotlarga ishonishi ham katta muammodir. Endilikda xilma-xil usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotning asosiy maqsadi yoshlar ongi uchun kurash maydoniga qaratilmoqda. Shuningdek, yoshlar ongiga mafkuraviy tahdidlardan diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik va agressiv millatchilik, narkobiznes, xalqaro terrorizm, axloqsizlikni targ'ib qiluvchi ommaviy axborot vositalari katta hafv solmoqda. Shuning uchun ham yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish, milliy g'oya ruhida tarbiyalashni yanada

rivojlantirish, sog'lom mafkura tamoyillarini ular qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O'zbekistonda mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu istaklarni, maqsadlarni, milliy mafkuraning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. Bu o'rinda milliy g'oya birinchidan, yoshlarni o'zining ob'ekti sifatida qarasa, ikkinchidan, yoshlar milliy g'oyaning ilg'or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga etkazuvchilari hisoblanadilar, uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g'oya bilan qurollangan va uni anglab olgan bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Milliy g'oya qanchalik mazmunli, har bir kishining uzoqqa mo'ljallangan maqsad va manfaatlari, millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi. Buning uchun yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash ishlarini yanada kengaytirishga alohida e'tibor berish kerak.

Mafkuraviy tarbiya orqali yoshlarga qanday g'oya va fikrlar singdirilsa, shunga mos ravishda g'oyaviy jihatdan chiniqqan, vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'linadi. Yoshlar jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibligi holatlarini kuchliroq sezadilar. Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrim adolatsizliklar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ziyon etkazishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlar orasida milliy g'oya, milliy g'urur va or-nomus bilan bog'lik ma'naviy-ruhiy holatlar muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning oldida xaqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Ayni paytda, davlatimiz rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan sa'y-harakatlar tahsinga loyiq.

Bu o'rinda mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi ta'kliflarni berish mumkin:

1. Nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish.
2. Madaniy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish.
3. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutaxassislar faoliyatini yanada jonlantirish.
4. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli to'garaklar faoliyatini rivojlantirish.
5. Xulosa qiladigan bo'lsak, xilma-xil usullarda olib borilayotgan mafkuraviy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlari jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

KITOB-MA'NAVIYAT MANBAI

*Iqbol Abdurahimov,
NamDU talabasi*

Yaxshi kitob hayotning beqiyos ganch-xazinalaridan biridir. Shu ikki og'iz gapning zamirida olam-olam ma'no yotadi. Kitob insonyatning eng yaqin do'sti. Biror yaxshi kitobni o'qib o'z hayotida mutlaqo yangi sahifa ochgan kishilar esa ancha-munchadir. Biroq, shunday bo'lsada kitoblarga bo'lgan talab tobora kamayib bormoqda. Bu holat aksariyat yoshlarimiz orasida uchrashi barchamizga birdek ma'lum. Xo'sh bunga sabab nima? Ushbu savolga javoban ko'plar zamonnii ro'kach qilishadi. Aslida zamon emas, odamlar o'zgaryapti. Bu o'zgarishga sababchi zamon rivoji. Internet, telefon kabi yangi ixtirolar ko'paygani sayin, o'qishga bo'lgan qiziqishlar kamayib ketdi.

Yoshlarning kitobga emas, balki yangidan-yangi ixtirolarga qiziqishi bugunning dolzarb mavzusi deb o'ylayman. Bu bilan zamonamiz ixtirolarini yomon demoqchi emasman. Ammo, achchiq haqiqatni tan olish kerakki, ularning yaxshi tomonlari bilan bir qatorda, salbiy jihatlari ham mavjud. Misol uchun uyali aloqa telefonini olaylik, yoshlar bu vositadan qay tarzda foydalanishmoqda? Bu xususida qayta-qayta og'iz ochishning hojati yo'q. Chunki, telefonning salbiy tomonlari to'g'risida juda ko'p va xo'p gapirilgan.

Aziz ota-onalar! farzandlaringizga "Bu yil tug'ilgan kuningda nima sovg'a qilay? Telefonmi yoki ko'plab kitoblar?", deya bir savol berib ko'ring-a, albatta ularning aksariyati "Telefon", deb javob berishadi.

Bugun yoshlarimiz, nafaqat o'quv dargohlarida balki, radio, tv, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Masalan: Internetni olaylik. "Agent" deya nomlanuvchi chat orqali yoshlarimiz ongida bo'lmog'ur g'oyalar shakillanmayaptimikin? Kimlardir internetdan qiziqarli, kerakli ma'lumotlarni bilish uchungina foydalansa yana kimlardir ... Nahotki shu telefon, internet kabilar kitobdanda a'loroq bo'lsa? Bu bilan internetni yomon demoqchi emasman. O'z navbatida, internet ham o'ziga xos ma'lumot manbai hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek "Internet bu katta bir do'kon. Do'konga borganda odam xohlagan molini sotib oladi. Masalan: Biz bozorga o'zimiz istagan, manfaatimizga xizmat qiluvchi buyumni sotib olgani boramiz. Internetni ham kishilar extiyoji va manfaati uchun xizmat qiluvchi axborot bozori deb anglash kerak". Demak, yoshlarni ma'naviy jihatdan, shunday tarbiyalash lozimki, ular internet-axborot bozoriga kirganda faqat o'zi uchun foydali, ma'naviy asoslarga daxl qilmaydigan narsani olsin. Buning uchun yoshlarimizda axborot iste'moli madaniyatini shakillantirsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Toki, dunyoning qaysi burchagidan qanday ma'lumot kelmasin, qanday ma'naviy tajovuz tahdid solmasin, har qanday holatda, yoshlarimiz ularga nisbatan ma'naviy ruhiy

jihatdan o'z munosabatlarini bildira olsin. Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan sharoitda, yoshlarimiz ongini o'rab-chirmab, "uni o'qima, buni ko'rma", deb bir tomonlama tarbiya berish, ular atrofini axborot davrida temir devor bilan o'rab olish, zamon talabiga ham jamiyat maqsad muddaolariga ham to'g'ri kelmaydi. Kitoblar orqali yoshlarimizning, tasavvur doiralari kengayadi. Kitoblarni mutola qilmay turib, ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Usiz na so'z, na did, na keng ko'lami tushuncha mavjud. Insonlar asrlar davomida badiiy asarlardan ma'naviy oziqlanib, o'zini qiziqtirgan savol va jumboqlarga javob topib keladi. Kitoblarni bebaho boylik deyish mumkin. Afsuski, so'ngi yillarda yoshlarimiz bu bebaho boylikka nisbatan birmuncha e'tiborsiz munosabatda bo'lishyapti. Holbuki, taniqli adabiyotshunos olim, O'zbekiston qahramoni Ozod Sharofiddinov ta'kidlaganidek, kitob insoniyat yaratgan birinchi mo'jiza sanaladi. E'tibor bering: olim kitobni dunyoning siz bilgan yetti mo'jizasidan ham oldinga qo'ymoqda. Buning sababi nimada?

Kitobsiz inson hayoti bo'm-bo'sh. U do'stimizgina emas, balki hamisha, butun umrlik hamrohimiz hamdir. Kitobga do'st tutingan insonning qo'lidan razillik kelmaydi. Hamisha insonlardan yaxshilik kutib yashaydi. Kundalik turmushumizda barchamiz istaymizmi yo'qmi, atrofimizdagilar bilan muloqotga kirishamiz. Muloqot davomida har birimiz bir og'iz shirin so'zimiz bilan qarshimizda turgan insonning dunyosini gullarga burkashimiz mumkin. Tabiiyki, bunga erisha olishimiz uchun ham ma'lum miqdorda bo'lsa ham kitob o'qigan bo'lishimiz lozim.

Kitoblar turli-tuman, ammo ularning bir jihatigina o'xshash. Kitobni o'qib, anglab borganimiz sari, ro'y berayotgan voqealar, ya'ni yaxshilik-yomonlik, quvonch-u g'am, iztirob, afsus-nadomatlarni qandayligicha xis etsak, ayni shunday o'zimizda sodir bo'layotgandek, tuyiladi. Tasvirlangan joylarni ko'z oldimizda tasavvur qilamiz va bular bir umrga ko'nglimiz tubidan joy oladi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Har qanday kitob ham insonga ma'naviy ozuqa bera oladimi? Ushbu savolga har kim har-xil javob beradi. Kitobning sonidan ko'ra sifati yaxshi. Hamma narsani o'qiyverish ham yaramaydi. Albatta, bu mening fikrim, xolos. Axir kitob o'qib hech narsa tushinilmasa, bu hech narsa o'qimagan bilan barobar emasmi.

Ushbu maqolamni ulug' allomalardan birining gaplari bilan yakunlamoqchiman: "Kitob baxt va qudratli istiqbol yo'lida odamzot yaratgan, extimol eng murakkab va mo'jizalar ichidagi eng buyuk mo'jizadir!".

SOG'LOM G'OYAVIY TARBIYA

*Qambarali Asqarov,
Omonjon Usmonov,
Nam DU talabalari*

Tarbiya, xususan milliy tarbiya haqida so'z borganda, bu tushunchaning mohiyati ustida alohida to'xtab o'tish lozim. Tarbiya so'zi asli arabcha bo'lib, «parvarish qilish, ta'lim berish, o'rgatish» degan ma'noni anglatadi. Tarbiyachi esa yuqoridagi maqsadlarni amalga oshiruvchi shaxsdir. Mukammal tarbiya berish ma'naviy kamolotning barcha jabhalarini rivojlantirish uchun sub'ektiv omil bo'lib, unga asos ham yaratadi. Shuning uchun hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarni axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi hamda malakasini davr talablari va ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirib shakllantirishga harakat qilganlar. Shunga ko'ra, "har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir.

Sog'lom g'oyaviy tarbiya-yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini ham anglatadi. Shu o'rinda tarbiya hamda ta'lim beruvchining shaxsiy sifati hamda o'z ishiga fidoyiligi bu masalada g'oyat muhim ekanligini unitmaslik kerak.

Mafkuraviy tarbiya o'quvchining ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarini oddiygina qabul qilib olishinigina emas, balki ularni ongli ravishda tushunib etishini, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy hodisalarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bu ko'nikmalar o'quvchi dunyoqarashini, bilimlarini milliy istiqloq g'oyasi-Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) nuqtai nazaridan sekin-asta boyitib borish bilan ta'minlanadi. Shuning uchun yosh avlodni tarbiyalashda uning dunyoqarashi, bilim darajasi, madaniy va siyosiy saviyasi, xulq-atvori umuminsoniy qadriyatlarga va qonun-qoidalarga mos kelishi eng muhim ahamiyatga ega. Chunki, inson mavqei jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxs kamolining asosiy manbai jamiyatda, uning faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy va oilaviy-maishiy munosabatlar tuzumida ekanligini tarix tajribasi tasdiqlab bergan.

G'oyaviy tarbiya hozirgi globallashuv sharoitida nihoyatda muhimdir. Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi-bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu-inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, ahloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir. Chunki oilani olamizmi, bolalar bog'chasinimi, mahalla, maktab, kollej, litsey, universitet yoki akademiyani olamizmi-hammasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu ishlar bolaning dunyo

haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o'ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go'zallik haqidagi kengaytirishga xizmat qiladi. Bu-tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz inson, mafkurasiz guruh, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas.

OILADA MILLIY QADRIYATLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

*D. Abduqahhorov,
NamDU talabasi*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasillar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor». Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz fikrlarida oilaning eng avvalo, e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi benazir roli ta'kidlagandir. Shu sababli oila hamda mahalla tizumida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an'analarning, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarining tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularning ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tadbiiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. Bugungi kunda oiladay ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy muhitni hosil qilish dolzarb masalalardandir.

Chunki oila – asrlar mobaynida xalq an'analari, milliy rasm-rusumlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.Karimov oila va undagi an'analarga, milliy qadriyatlarimizga juda katta e'tabor berib, oilaning mustahkam bo'lishi, unda yosh avlod tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga eng avvalo ulardagi mustaqil fikrlash, sog'lom e'tiqod va teran dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlab, shu asnoda tarkib topadigan qarashlar tizimini millatning mafkurasini, deb ta'riflaydilar: "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'priki bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasini deb bilaman".

Aynan mustaqillik yillarida yoshlarni oila va unda saqlanib kelayotgan azaliy qadriyatlar ta'sirida axloqan tarbiyalash muammosini ko'payib nazariy va empirik izlanishlar predmetiga aylanmoqda. Zero, bunday yondashuv o'tmish allomalarning falsafiy-g'oyaviy qarashlari, oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan o'g'itlari ma'no-mohiyatiga mosdir. Alohida ta'kidlash joizki, oxirgi yillarda chop

etilayotgan qator risola va kitoblarda, ilmiy va ommabop maqolalarda ham bu masalaning turli jihatlari yoritilmoqda. Biroq, yuqorida ta'kidlangan oilaga tegishli an'analarga nisbatan shaxs e'tiqodliligining har bir jamiyat a'zosining ehtiyojiga aylantirilishiga imkon beruvchi ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini o'rganish o'z yechimini kutib turibdi.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri yuritish ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir. Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari-jismoniy, axloqiy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birgalikda bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda ong oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, sahovat, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga yetishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda oila xo'jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo'jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega.

Oila tarbiyasini tashkil etish shakli, metod va vositalari. Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi.

Xullas, yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo'ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlarida ota-ona, oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yovdoshuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi. Shu bilan birga har bir kamol topayotgan yosh avlodni tarbiyalashda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, milliy g'oya va milliy iftixor tuyg'ularini singdirishda milliy qadriyatlarga tayanib ish qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

KONSTITUTSIYASINING ASOSIY PRINTSIPLARI

*Azamat Onarboev,
NamDU talabasi*

O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li Konstitutsiyaga asoslangandir. Bizning konstitutsiyaviy siyosatimiz o'z milliy davlatchiligimizni, iqtisodiyotimizni va ma'naviyatimizni kamolot cho'qqilariga olib chiqishga qaratilgan.

O'zbekistonning asosiy qonuni – Konstitutsiyadir. Chet mamlakatlarning va xalqaro tashkilotlarning mutaxassislari bizning Konstitutsiyamizni, qabul qilingan qonunlarimizni eng ilg'or, progressiv qonunlar sirasiga dadil kiritish mumkin, deb tasdiqladilar.

Konstitutsiyaviy qonunchilikni va huquq tartibotni qaror toptirishning boshqa jihati ham bor. U mamlakatimizda o'tkazilayotgan demokratik va iqtisodiy islohotlar uchun barqaror huquqiy zamin yaratishdir.

Konstitutsiyamiz xalqimizga milliy, demokratik huquqiy davlat soyasida yashash uchun huquqiy sharoit yaratib berib, ularni bozor iqtisodiyotiga va bu yo'ldan yangi hayot ufqlari tomon yo'llab boradi hamda O'zbekiston Respublikasiga jahon miqyosida buyuk demokratik davlatlar qatorida yuksak va e'tiborli o'rin tutish uchun yordam beradi.

O'zbekistonda izchil ravishda, bozor iqtisodiyotiga o'tila borgan sari huquqiy institutlar ham shakllanmoqda, bozor munosabatlarini madaniy shaklda joriy etishga imkon beradigan, soxta bozor iqtisodining ildiz otib ketishiga qarshi qaratilgan qonunlar majmui yaratilmoqda. Vazifa faqat xalqaro normalarga mos keladigan qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishdagina emas, balki ularga so'zsiz rioya etilishidan ham iboratdir.

O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini tanlab olgan, bu yo'l bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishga asoslangan. Shu narsani alohida ta'kidlamoq lozimki, tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va maqsadi-bu soxta revolyutsion sakrashlarsiz, fojiali oqibatlar va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan, madaniy ravishda normal taraqqiyotga o'tishdir.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida ikkita asosiy vazifa ustuvor hisoblanadi.

Birinchisi-iqtisodiy bazasi ijtimoiy yo'naltirilgan yangi davlatning, yangi tuzumning modelini yaratish.

Ikkinchisi-bozorga o'tishni tashkiliy jihatdan ta'minlash, yangi kadrlar korpusini shakllantirish. Islohotga aloqador kishilar va avvalo, mas'ul xodimlar uning mohiyatini tushunib etgan, respublika va xalq ehtiyojlari to'g'risida o'ylaydigan, islohot kim uchun va nima uchun o'tkazilishini tushungan, haqiqiy vatanparvar bo'lgan taqdirdagina islohotlar yurishib ketadi. Ular maqsad va vazifalarimizni aniq tasavvur etishlari, o'ylab qo'yilgan rejalarni amalga oshirishga layoqatli bo'lishlari kerak.

Qomusimizning 13-moddasiga binoan, O'zbekistonda qonunchilik demokratik, umuminsoniy printsiplarga asoslanib, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari, oliy qadriyat hisoblanadi, demokratik huquq va erkinliklar, konstitutsiya va qonun bilan himoya qilinadi. Ushbu modda o'zining yorqin va komil ifodasi bilan, inson maqomini va uning asosiy huquqlarini eng yuksak va oliy darajaga ko'taradi.

Biz mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum va davlat modelini yaratmoqdamiz. O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. Davlatimizning hamma narsasi: tabiiy boyliklari, serhosil erlari, buyuk daryolari bor. Bu muqaddas erda mehnatsevar, iste'dodli xalq yashaydi. Bizga tinib-tinchimas, serg'ayrat, ishchan, xalqqa sadoqat bilan xizmat qiladigan, bu modelga hayot bag'ishlaydigan bilimdon, tashabbuskor kishilar kerak." deya ta'kidlaydi yurtboshimiz I.A. Karimov. Zero, bunga javoban yoshlarimiz o'zlarining intellektual salohiyati, bilimi, turli sohadagi yutuqlari, xalqaro fan olimpiadalari hamda sport musobaqalarida erishgan muvaffaqiyatlari bilan javob berishmoqda.

KUSHON DAVLATINING DAVLATCHILIGIMIZ TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

*Abror Mamadaliev,
NamDU talabasi*

Barotjon Ibrohimov,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedراسi o'qituvchisi

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Yuechjilar miloddan avvalgi 140-130 yillar oraliq'ida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Tarixda bu qabilalar kushonlar nomi bilan tilga olingan. Chjan tszyan ma'lumotlariga ko'ra Yuechjilar xink qabilalaridan mag'lubiyatga uchiragan O'rta Osiyoning janubi tomon harakatlanadi va Daxya (Baqtriya)ni bosib oladilar. Ular ya'ni Yuechjilar Go'ysho'y daryosining shimoliy tomonidan o'z davlatlariga asos solganliklari ta'kidlangan.

Oradan ko'p o'tmay Baqtriyada katta Yuechji davlati tashkil topadi. Katta Yuechji hukmdorlari qo'l ostida 5 ta hokimlik (XI-XEU) bor bo'lib ular Xyumi, Shuanmi, Go'yshuman, Xise va dulinlardan iborat edi. Birlashgan besh Yuechji qabilasining birinchi hukmdori Kujila kadfiz (Kioji, Zyukyu) kushon davlatiga asos solindi va 1-hukmdori sanaladi.

Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko'pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun Yuechji davrini uch bosqichga bo'ladilar.

1. Miloddan avvalgi 139-135 yillar - katta Yuechji doxiya viloyatni bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimolda edi.

2. Miloddan avvalgi 25 yilga qadar - Katta Yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi davlatning poytaxti Amudaryodan shimol tomonda bo'lib janubiy chegarasi Gubin atrofida (Kashmir yoki Qandahar) edi. Yuechjilar bo'ysindirgan

hududlar Xise, Shuanmi, Go'yshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo'lib ular Xi-Xoy (YaBG'U) tomonidan birlashtirilgan.

3. Miloddan avvalgi 25 yildan so'ng Yuechji davlatining inqirozi va yuqoridagi mulklarning mustaqil bulishi Kushon (Go'yshuan) YaBG'Usi Kiotszyuky (Kujula Kadfiz) Qom 4 ta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soladi.

Kushon davlati tashkil topishida Kujula Kadfiz uning vorisi Vima Kadfiz hamda Konishkalar davlatni rivojlantirib hududlarini kengaytirishga madaniy hayotning yuksalishiga olib kelganlar Kushon davlatining gullab yashnashi Konishka (miloddan avvalgi 78-123) zamoniga to'g'ri keladi. Bu davrda Kushon davlati o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi.

2. Iqtisodiy isloxtarlari: Kushon davlati ham o'z ahamiyatiga ko'ra antik davr Xitoydagi Ham davlati, Parfiya hamda Rim davlati bilan raqobatlashadilar.

Ulkan imperiyalardan biriga aylandi. Ularning hukmdorlari o'z nomidan tangalar zarb qildilar. Ilk Kushon davriga oid topilma manbalarda aks ettirilgan. "Kushon podshosi Kujula Kadfiz"ga aynan moslashadi. Ammo manbalar guvohlik berishicha Kadfiz I davrida to'la shakllanib bo'lgan edi.

Bu davrda Kadfiz I. Rim imperatorlariga taqlid qilib (Avgust, Tiberiy) tanga zarb ettirgan.

Undan so'ng taxtga vorisi Vima (Gima) Kadfiz (Kadfiz II) o'tiradi. U markaziy Hindistonni zabt etib u erga o'z sarkardalaridan birini qoldiradi. Shu davrdan boshlab Yuechji kuchli boy davlatga aylandi. Tangashunoslarning so'ngi tadqiqotlariga ko'ra Kadfiz II zarb ettirgan. "Shoxlar-shoxi buyuk haloskor" degan yozuv bor tangalar Hindiston, Avg'oniston, O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar hozirgi Toshkent voxasi Surxandaryo, Qashqadaryo, Panjikent hududlaridan ham topilgan. Kadfiz II. Rim saltanati bilan aloqalar o'rnatgan ularning tangalarida "Shox" "Shoxlar Shoxi" atamasi ko'plab uchraydi. Xitoy mualliflari bergan ma'lumotlarni davlatning harbiy qudrati ko'pchilik mamlakatlar tomonidan tan olinganligini isbotlaydi. Kushon davlatining taraqqiyot cho'qqisi Konishka davriga to'g'ri kelib u Panjob va Kashmirni o'z davlatiga qo'shib oladi. Uning davrida ma'lum viloyat, shaharlar hukmdor noiblar tomonidan boshqarilgan. Ular podshoh tomonidan tayinlangan yaqin kishilari bo'lib ular podshohga so'zsiz itoatda bo'lib doim davlat xazinasiga ulpon to'lab turganlar. Podshohlik Satrakliklarga bo'lib boshqarish ularning podsho tomonidan tayorlangan noiblar boshqargan. Kushon markazlashgan davlat hisoblangan, unda qishloq jamoalarining ahamiyati katta bo'lgan.

Kushon davlatida ichki va tashqi savdo ham taraqqiy etdi. Kushonlar buyuk ipak yo'lining sharqiy tarmog'i nazoratini o'z qo'llariga olgan edilar. Chetdan keltirilgan ipak, mo'yna, bronza, ko'zgular, shisha idishlar xaykalchalar tashqi savdo taraqqiyotidan dalolat bersa, ko'plab hunarmandchilik buyumlari, kumush va bronza tangalar ichki savdo rivojlanganini isbotlaydi.

Kushon shaharlari hunarmandchilik va savdo markazi ham edi. O'rta Osiyoning barcha hududlaridan hunarmandchilik, sopol buyumlar, metal ishlash

ishlari zargarlik, harbiy va xo'jalik buyumlari o'rganilgan. Kushon davlati yodgorliklari ham bo'lish Halchayon, Dolvarzintepa, Zartepa, Qoratepa, Ayritom va boshqalardan topilgan topilmalar buni isbotlaydi. Kushon davlati iqtisodiyotining asosini sug'orma dexqonchilik, savdo sotiq va hunarmandchilik tashkil etgan.

Kushon davlati tashkil topayotganda Baqtriya va So'g'diyonaning asosiy axolisi zardushtiylik dinida edi. Kanishka Hindistonning bir qismini egallaydi va yaqindan aloqalar o'rnatadi. Shundan buddaviylik dini zardushtiylik dini bilan VIII asrgacha O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan. Buddaviylik davrlar diniga aylangan. Eski Termiz, Ayritom va Dalvarzintepa, Muxtasham Buddha dini ibodatxonalari bo'lgan. Aynan shu erdan buddaviylik dini O'rta Osiyo bo'ylab tarqala boshladi. Bu hududlardan tanilgan 10 dan ziyod budda ibodatxonalari yuzdan ziyod budda xaykallari topib o'rnatilgan. Kushonlarning davlati Xitoy manbalari guvohlik berishicha Kanishka davrida Kushonlarsaltanati gullab yashnagan eng yuqori cho'qqisiga erishgan. Kanishka hukmronligi davrida poytaxt Baqtriyadan Peshavorga ko'chiriladi. Kanishka Panjob va Kashmir mamlakatiga qo'shiladi. Uning hududi Hindiston va Xitoydan O'zbekistonning janubiy viloyatlari Avg'onistongacha bo'lgan hududini egallaydi. Rim Parfiya, Xitoy davlati qatorida ulkan saltanat imperiyaga aylanadi.

Ular saltanatni boshqarishda ma'lum shahar va viloyatlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqargan. Noiblar podshoh tomonidan tayinlanib eng yangi ishonchli kishilari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga so'zsiz bo'ysungan. Kushonlar davrida axolidan yig'ilgan soliq tarkiblari haqida ma'lumot bergan lekin bunday tizim bo'lgani aniq. Kushon podsholigi ruhoniylar qo'lidagi davlat bo'lib bu davlat podsho xokimiyatini boshqarish bilan birga bosh koxin sanalgan davlatni esa Satraliklarga bo'lib boshqarilgan.

Bu davlatni inqirozga yuz tutishi Rim saltanati taqdiriga o'xshash bo'lgandi ulardagi o'zaro ichki nizolar oqibatida zaiflashgan Kushon davlati tashqi dushmandan himoyalaniishi uchun etarli harbiy imkoniyatlar topa olmaydi. Miloddan avvalgi III-asrda to'xtovsiz urushlar oqibatida Kushon davlati inqirozga yuzlanishi IV-asrda parchalanib ketdi.

Xulosa: Shunday Kishon podsholigiga o'z tarkibiga ko'pgina hududlar va ko'plab xalqlar va elatlarni birlashtirgan bo'lsada uning tarixi o'zbek davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Kushon davlatining savdo aloqalari va madaniy aloqalari tufayli O'rta Osiyoda qadimiy oroliy yozuvi keng tarqaldi. U G'arbiy Osiyoda paydo bo'lgani alifboga asoslangani uchun o'zlashtirishi oson bo'lgan bundan tashqari yodgorliklarni o'rganish chog'ida boshqa yozuvlar ham mavjudligi aniqlangan. Kushon davlatida turli yozuvlarni mavjudligi jixatidan ko'p davlatlar bilan keng ko'lamli aloqalardan guvohlik beradi.

O'zbek xalqi davlatchiligi tarixida Kushon davri ijtimoiy siyosiy iqtisodiy va madaniy hayot va tashqi aloqalar sohasida ulkan yutuqlarga erishgan davr bo'lib keldi.

AMNISTIYA AKTINI QO'LLASH - INSONPARVARLIK TAMOYILI

*Nodirbek Otaxonov,
NamDU talabasi*

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlar, chiqarilayotgan yangi qonunlar, xalqimizning farovon turmushi uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar inson huquqlari-oliy qadriyat ekanligidan dalolat beradi. Konstitutsiyamizning 14-moddasida "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshiradi" deb belgilab qo'yilgan. Shu asnoda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini yigirma yilligi munosabati bilan amnistiya akti qabul qilindi. Amnistiya jinoyat sodir etgan, shuningdek jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan bildirilgan insonparvarlik namoyishidir.

Amnistiya akti-jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazoni engillashtirish, jazoning huquqiy oqibatlaridan ozod etish masalalarini hal qilish bilan jinoiy-huquqiy, jinoiy-prosessual va jinoiy-ijroiya munosabatlar doirasida muvofiqlashtiriladi.

Amnistiya akti muayyan jinoyat uchun javobgarlikni ko'zda tutgan jinoiy qonunni bartaraf etmaydi, sud hukmini bekor qilmaydi. U faqat jinoyat sodir etgan mahkumlar va jinoyat sodir etgan shaxslar qismatini engillashtiradi, ya'ni jinoiy huquqqa tegishli insonparvarlik tamoyilini ro'yobga chiqaradi.

Amnistiya aktlari, odatda, jazoni o'tash jarayonida hulqi ularga nisbatan bildirilgan ishonchni oqlaydilar va yangi jinoyatga qo'l urmaydilar deyish uchun asos bo'ladigan shaxslarni ozod etish masalasini hal qiladilar. Amnistiya aktlari jinoyat toifasi, ayblanuvchi shaxsining ta'rifi, jinoyatning ilk marotaba sodir etilishi kabi muayyan shartlarni ko'zda tutishi mumkin. Ana shu nuqtai nazardan amnistiya retdivistlar va boshqa xavfli jinoyatchilarga nisbatan qo'llanmaydi.

Jinoyat kodeksining 68, 76 va 79-moddalariga muvofiq, amnistiya akti qo'llanilishi natijasida quyidagi huquqiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin:

- Birinchidan, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi;
- Ikkinchidan, mahkum asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ozod etilishi;
- Uchinchidan, mahkumga tayinlangan asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazo muddatining kamaytirilishi;
- To'rtinchidan, mahkum jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilishi;
- Beshinchidan, mahkumga tayinlangan jazoning o'talmagan qismi engilrog'i bilan almashtirilishi;

Oltinchidan, jinoyat sodir etgan shaxsdan sudlanganlik muddatidan ilgari olib tashlanishi. (Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 22 dekabrda 16-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 3 apreldagi 2-sonli, 2007 yil 14 noyabrda 17-sonli, 2010 yil 14 may 6-sonli

qarorlariga asosan kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan)

Amnistiya akti yuridik kuchi muayyan doiradagi shaxslarga nisbatan yoki muayyan turdagi jinoyat sodir etganlarga nisbatan chiqarilgan normativ akt hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikamizda amnistiya akti to'g'risida alohida qonun qabul qilinmagan. Bunga xojat ham yo'q. Chunki, bunday qonunni qabul qilishni hech qanday amaliy ahamiyati yo'q. Har safar amnistiya akti chiqqanida, shu aktni o'zida aministiya qilinishi lozim bo'lgan shaxslar guruhi va amnistiyaning qo'llash tartibi ko'rsatiladi.

Amnistiya aktlari, odatda, voyaga etmaganlar, ayollar, homilador ayollarga, keksalar, juda og'ir kasallikka chalinganlarga, shuningdek boshqa belgilar: jinoyat xarakteri va og'irlik darajasiga ko'ra qo'llaniladi. Ammo, boshqa ijtimoiy-siyosiy asoslarga ko'ra ham amnistiya aktlari qabul qilingan bo'lib, ularni doirasi an'anviy tartibda emas, balki, alohida tartibda belgilanadi. Ana shu nuqtai nazaridan amnistiya retdivistlar va boshqa xavfli jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Umumiy qoidaga ko'ra, amnistiya akti u chiqarilguniga qadar sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan tadbir etiladi. Amnistiya akti asosida shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish davlat tomonidan uning jinoyatini emas, balki shaxsni kechirilishidir.

Qonunga ko'ra, sudlanganlik holati tugallangan yoki olib tashlangan paytdan boshlab u bilan bog'liq bo'lgan barcha huquqiy oqibatlar barham topadi. Shuning uchun ham amnistiya aktini qo'llash chog'ida qonunda belgilangan tartibda tugallangan yoki olib tashlangan sudlanganlik inobatga olinishi mumkin emas.

Mulkiy zarar ko'rgan jabrlanuvchi keltirilgan zarar uchun "kuyib" qolaveradimi? Yo'q, albatta. Davlatimiz tomonidan bu borada kerakli mexanizm ishlab chiqilgan. Surishtiruv, tergov bosqichida yoki sudda jinoyat ishining amnistiya akti asosida tugatilishi jinoyat natijasida etkazilgan mulkiy ziyonni qoplash to'g'risidagi masalaning jinoyat protsessida hal etilishi imkoniyatini istisno etadi.

Jinoyat ishida fuqaroviy da'vo mavjud bo'lganda surishtiruv, tergov organi yoki sud amnistiya akti asosida jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror, ajrimda da'vo ko'rilmadan qoldirilganligini ko'rsatadi. Ayni paytda, JPK 276-moddasi beshinchi qismiga muvofiq, manfaatdor shaxslarga bunday da'voni fuqarolik sudida ishlarni yuritish tartibida taqdim etish huquqi tushuntiriladi. (O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Protsexual Kodeksi. Toshkent: Adolat. 2010 y. 150-bet)

Amnistiya akti ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan muayyan toifa shaxslarga nisbatan davlat tomonidan ko'rsatiladigan insonparvarlik ifodasi bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad mazkur shaxslarga nisbatan ma'muriy yoki jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini qo'llamagan holda ularning axloqan tuzalishi uchun imkoniyat berish yoxud bunday choralar qo'llanilgan shaxslar holatini engillashtirishdir.

KUCHLI DAVLATDAN KUCHLI FUQAROLIK JAMIYAT SARI

*Dilshodbek Rayimqulov,
Nam DU talabasi*

Bugun O'zbekiston xalqi ulug' ajdodlarining an'analarini, urf-odatlarini davom ettirib, taqdirini o'z qo'liga olib, qaddini rostlab, el-yurtimizda osoyishtalik, barqarorlikni, millatlararo ahillikni va fuqarolarning totuvligini asrab-avaylab ya'ni tarixiy sharoitda o'z kelajagini qurmoqda, milliy davlatchiligini tiklamoqda. O'zbekiston Respublikasida insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish muhim maqsadli vazifalardan biri bo'lib, u xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari asosida, taraqqiy topgan davlatlarning huquqiy davlat qurishdagi tajribalaridan etarli me'yorda foydalanilib, mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlangan holda amalga oshiriladi.

2010 yil 12 noyabr mamlakatimizda demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyasi ko'ra davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratlashtirish, sud-huquq tizimini islox etish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, O'zbekiston saylov huquq erkinligini hamda saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutini shakllantirish va yuksaltirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni rivojlantirishni yanada chuqurlashtirish kabi oltita yo'nalish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Rivojlangan fuqarolik jamiyati bo'lmagan joyda davlat va shaxs ziddiyati o'zaro huquq va majburiyatlarni biroz tenglashtirish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Qolaversa, huquqiy davlatni ham rivojlangan fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki, pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir.

Biz fuqarolik jamiyatini kengroq tasavvur etadigan bo'lsak, demokratiya, qonun ustuvorligi va inson huquqlari kabi tushunchalarni bu hodisaning belgilovchi kategoriyalari deyish mumkin. Islohotlarning amaliyotdagi tadbiqu ana shu tushunchalarning nazariy ishlanmalariga asoslanadi.

Fuqarolik jamiyati huquqiy davlatning negizi, bosh zaminidir. Fuqarolik jamiyatining mohiyati jamiyat va davlat bajaradigan vazifalar tizimining xilma-xilligi bilan belgilanadi. Faqat keng siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy huquqlarga ega bo'lgan shaxsgina fuqarolik jamiyatini rivojlantirishi, binobarin, uning rivojlanish omili bo'lishi mumkin. Zero, fuqarolik jamiyatining ayrim tamoyillari o'tmishda o'tgan Sharqning buyuk mutafakkirlarimizning siyosiy-huquqiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Ularning siyosiy-huquqiy kontsepsiyasi huquqning siyosiy tartibotlardan ustunligi haqidagi g'oya bilan yo'g'rilgan. Bu borada IX-XI asrlarning Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari mutafakkirlari, faylasuflari, umuman, taraqqiyparvar allomalarining g'oyalari alohida qiziqish uyg'otadi.

Ularning fikricha, bunday davlatning asosiy vazifasi o'z fuqarolarining moddiy ahvolini yaxshilash, tarbiyalash haqida g'amxo'r bo'lish, adolat o'rnatish, xalqni ma'rifatlil qilish, ezgulik va yuksak ma'naviyatni tarqatish, o'z fuqarolarining hayoti, sog'ligi, sha'ni, qadr-qimmatini, mol-mulkini muhofaza etish, fan rivoji uchun sharoit yaratish, tartibot va qonunchilikni ta'minlash, lavozimli shaxslar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish va hokazolardan iborat.

Fuqarolik jamiyati-kishilar o'rtasidagi ob'ektiv, o'zaro zaruriy ta'sir doirasi bo'lib, unda huquq hamda qonun ustuvorligi asosida kishi bir vaqtning o'zida boshqa kishilarning maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilish barobarida, o'z manfaatlarini amalga oshiradi. Fuqarolik holatini birdamlikning ijtimoiy mexanizmlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi shaxs manfaatlarining boshqa barcha manfaatlardan ustuvor darajada rivojlanishi bilan bog'liq, ya'ni bu "shaxs-jamiyat-davlat"ga oid konstitutsiyaviy printsipting amaliy ifodasidir. Bunday holat huquqsiz, mazkur manfaatlarni qonunlar shaklida ifoda etadigan va himoya qila oladigan huquqiy davlatsiz mavjud bo'la olmaydi.

Huquqiy davlat-inson huquqlarini amaliy ta'minlash tamoyilini bajarishga qodir idoradirki, u rasmiy huquqlarni qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki ana shu huquqlarni kafolatlaydi, ularni amalga oshirish vositalarini yuzaga chiqaradi. Bunday davlatda xalq hokimiyati yoki irodasi shaxs manfaatlarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini aks ettirib, uning majmuasi milliy manfaatlarni tashkil etuvchi qat'iy talabli bo'ladi. Inson manfaatlari ustuvor jamiyatda turli qatlamlarning ehtiyojlari, manfaatlari va qadriyatlaridan millat manfaatlari tarkib topadi. Shu asosda qonunlar, jamiyat va davlat tartibotlari shakllanadi, izchil islohot siyosati olib boriladi.

Fuqarolik jamiyatini inson erkinligi va huquqlari tushunchasidan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, jamiyat aynan shulardan tarkib topadi va ular uchun o'z tartibotlarini rivojlantira boradi. Faqat shunday holdagina, ayni paytda, xalqning o'z-o'zini boshqarishi asosida iqtisodiy erkinligi, inson huquqlari, shaxs qadr-qimmatini muayyan mazmun bilan boyiydi, davlat esa taraqqiyotning ilgari lab borishi uchun muayyan omilga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda qurilayotgan demokratik huquqiy davlat va insonparvar fuqarolik jamiyati mulk shakllarining yangi tizimi, qudratli ishlab chiqarish kuchlari va vositalari, ilg'or fan va madaniyat barpo etish, xalq faravonligini oshirish, takomillashtirish, erkin shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qulay sharoitlar vujudga keltirayotgan jamiyatdir.

OILA JAMIYATNING ASOSIY BO'G'INI

*Durbek Mehmonov,
Nam DU talabasi*

Oila kishilarning tabiiy-biologik, iktisodiy, hukukiy va ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir. Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish borasida davlatimiz tomonidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2012 yil O'zbekiston Respublikasi «Mustahkam oila yili» deb e'lon kilingan edi. 2013 yil esa mazmunan davomi sifatida «Obod turmush yili» qilib belgilandi. Ko'rinib turibdiki, davlatimiz tomonidan oila institutiga katta ahamiyat berilmoqda. Shuningdek bosh qomusimiz-Konstitutsiyada ham oila alohida etborga olingan. O'zbekistonda oila haqida g'amxo'rlik konstitutsiyaviy yo'l bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining uchinchi bo'lim XIV bobi "Oila" deb nomlanib, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi zikr etilgan.

O'zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini oshirish, fuqarolar totuvligini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezident I.A.Karimov bu boradagi vazifalari haqida gapirib: "Eng muhim vazifa-xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog'lom hamda madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi", -deb ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasida oilaga jamiyat va davlat g'amxo'rliqi kun sayin oshib bormoqda. Chunki katta-kichik jilg'alar va irmoqlardan ulkan daryo hosil bo'lgani kabi, oilalar majmuidan jamiyat paydo bo'ladi. Muayyan jamiyatning hayot tizimi, ong yuksakligi mana shu oilalar majmuining darajasiga bog'liq. Shunday ekan, jamiyatni rivojlantirish uchun barcha diqqat-e'tibor, eng avvalo, oilaga qaratilmog'i lozim. Har bir oila a'zosining jamiyatni tushunishi, hayot, mehnat, qonun va huquqni qay darajada anglashi va unga rioya qilishi jamiyat ravnaqini belgilovchi muhim omildir.

Oilaning jamiyat tomonidan muhofaza qilinishi, unga nisbatan g'amxo'rlikning yangi shakli hisoblanib, bunga alohida e'tibor berish kerak.

Davlatimizning oila to'g'risidagi g'amxo'rliqi katta hajmda uy-joy qurilishi, bolalar muassasalarining keng shahobchalarini barpo etish va rivojlantirish, maishiy xizmat, bola tug'ilganda nafaqa to'lash, ko'p bolali oilalarga nafaqalar va imtiyozlar berish, shuningdek, oilaga nafaqa va yordam berishning boshqa turlarini rivojlantirish orqali namoyon bo'lmoqda.

Prezident I.A.Karimov "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashabbuskor guruhi yig'ilishida so'zlagan nutqida shunday deydi: "Harakat ... yosh oilalarga yordam berishni o'zining asosiy burchi deb bilishi, shu maqsadda "Yosh oila" dasturini ishlab chiqish masalasiga alohida ahamiyat qaratish zarur. ... Harakat

endigina turmush qurgan yosh oilalarga ma'lum bir imtiyozlar berilishi, aytaylik, ularga keyin bo'lib-bo'lib qaytarish sharti bilan imtiyozli kreditlar ajratilishi haqida o'z takliflarini ilgari surish va ularni amalga oshirish uchun harakat qilishi o'rinni, deb bilaman. Ishonchim komilki, bu yosh oilalarga moddiy yordamgina bo'lib qolmay, ayni paytda ularni mustahkamlashga ham xizmat qilishi muqarrar".

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni mustahkam bo'lishiga, oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgandir.

Oila sog'lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqaror. Jamiyatning asosiy bug'ini sifatida oilaga berilayotgan e'tibor ertangi kelajagi buyuk davlatning, kuchli fuqarolik jamiyatining mustahkam asosidir.

KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI-MILLIY DAVLATCHILIK ASOSI

*Ziyoviddin Sultonov,
Nam DU talabasi*

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga demokratik, huquqiy, bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilib qo'ygan. Fuqarolik jamiyati deganda fuqarolarning huquq va manfaatleri, irodasi ifoda etilib, barcha davlat idoralari xalq manfaatleri uchun xizmat qiluvchi jamiyat tushiniladi. Shu bilan birga aytib o'tish kerakki, davlatda demokratik printsiplarni ta'minlash avvalambor, uning huquqiy asosini yaratishdan boshlanishi lozim. O'zbekiston Respublikasida demokratiyaning ilk huquqiy shakllari bo'lmish 1991 yildagi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunda, shuningdek, bosh qomusimizda fuqarolik jamiyati qurish va huquqiy davlatchiligimiz asoslarini yaratish bilan bog'liq normalar aks etgan. Bundan tashqari, respublikada amalda bo'lgan barcha meyoriy-huquqiy hujjatlar shu maslaga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 60 yilligiga bag'ishlagan tadbirlar dasturi to'g'risida» gi Farmonini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu farmonda Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan keyin qo'shilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat ekanligi, shuningdek, demokratik, huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekiston inson huquqlari va manfaatlarini jamiyatni rivojlantirish hamda davlat qurilishining, butun ichki va tashqi siyosatining eng ustivor yo'nalishi etib belgilangashshgi aks etgan.

Huquqiy davlatchilikni barpo etish uchun bir qancha huquqiy faktlar jamiyatda o'z amaliy ifodasini topish lozim: *Birinchidan*, huquq davlat uchun asos bo'lib

xizmat qi-luvchi qonunchilik bazasini yaratish va zamon talablaridan kelib chiqqan holda muntazam takamillashtirib turishga erishish. *Ikkinchidan*, huquqiy tizim tarkibi bo'lmish qonun hujjatlarini tartibga solish munosabatlarida markaziy va asosiy o'rinni inson, uning huquq va manfaatlarini egallamog'i lozim. *Uchinchidan*, qonun hujjatlari bir insonning manfaatlarini himoya qilish bilan birga boshqa inson huquqlarini ham ifoda etishi lozim, ya'ni barcha uchun ijobiy xususiyatga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. *To'rtinchidan*, davlatdagi fuqarolar qonunlarni o'z xohish-irodalarining aksi sifatida qabul qilib, unga og'ishmay amal qilish uchun etarli bo'lgan huquqiy va siyosiy ongga ega bo'lishlari zarur. Bundan tashqari, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, O'zbekiston Respublikasi kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari borar ekan, buning uchun avvalambor, davlatni huquqiy davlatga aylantirish lozim. Bundan kelib chiqadiki, «Jamiyat va dav-lat» tushunchalari orasida asosiy - hal qiluvchi o'rinni jamiyat egallaydi. Shunga ko'ra, «fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat» tushunchalaridan fuqarolik jamiyati ustivor o'rinda bo'lib, huquqiy davlat yo'li bilangina kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish mumkin bo'ladi. Huquqiy davlat tushunchasiga e'tibor berilsa, avvalo «huquq» keyin esa «davlat» turishi lozimligini bilib olish mumkin. Ya'ni avvalo huquqiy tizimning aso-sini yaratib, shundan keyingina davlatchilik asoslari, uning boshqaruvchilik o'rnini belgilash lozim.

Fuqarolik jamiyatini qurishda huquqiy davlat asoslarini yaratishning mezonlarini ko'rsatib o'tish joiz:

Birinchidan, huquq ustivorligini ta'minlash lozim. Buning uchun jamiyatda huquq normalari umuminsoniy axloqiy-huquqiy qadriyatlarga (oqilonalik, mantiqiylik, adolat) bo'ysunishi, davlat va jamiyat idoralarining har bir harakati hamda qarorini insoniy g'oyaviy-huquqiy nuqtai nazardan baholashning imkoni bo'lishi, inson manfaatlarini himoya qilish, uning o'z xohish-irodasini bildirish uchun davlatda oson va qulay rasmiy tartib-taomillar mavjud bo'lishi lozim. Davlatimizda ushbu mezon har tomonlama amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning davlat organlari vakolatlarini nodavlat notijorat tashkilotlariga, mahalliy vakillik va boshqaruv organlariga, qolaversa, mahallalarga o'tkazilishi borasida qilayotgan sa'y-harakatlari buning yorqin dalilidir.

Ikkinchidan, inson va fuqaroning huquqiy himoyalanganligi. Ushbu mezonning asosida inson va davlat hamda uning boshqaruv idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlarining o'zaro munosabatida huquqiy ingilizm, ortiqcha rasmiyatchilikdan voz kechish, inson uchun barcha qulayliklarni yaratish kabilar yotadi. Bu asosan har qanday insonning yashash, turli tajovuz va tahdidlardan himoyalaniish kabi tabiiy huquqlarini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, ushbu printsipning ustivor xususiyatga ega ekanligi shunda ko'rinadiki, shaxsning davlat, uning irodalari va mansabdor shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlari faqat qonun yo'li bilan tartibga solinishi lozim. HUKUQ va qonunlarning o'zaro bir xilligi. Ya'ni qonunni qabul qilish-bu yarim ish bo'lib, uning amalda ishlashi hamda fuqarolarga naf

keltirishi esa ishning ikkinchi yarmidir. Shundagina qonun normalari insonlar uchun foydali bo'lishi, ijobiy huquqiy mazmun kasb etishi va insonlar huquqlarini to'la ifoda etishi mumkin.

To'rtinchidan, turli davlat idoralari vakolatlarining huquq yo'li bilan muvozanatiga erishish hamda o'zaro mutanosibligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi-hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsipiga asoslanishi belgilangan. Shunday qilib, yuqoridagilardan mamlakatimizda huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati qurish uchun barcha asoslar yaratilganligini, barcha imlohatlar har tamonlama, bosqichma-bosqich hamda ildam olib borilayotganligini ko'rish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish joizki, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatchilik asoslarini yaratishning hayotdagi barcha sohalarni bir xilda, o'zaro mutanosiblikda rivojlantirish bilangina imkoni bo'ladi. Bunda hech bir soha oldinlab ketishi yoki orqada qolishi kerak emas. Shundagina haqiqiy, tom ma'nodagi huquqiy davlatchilikka asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish mumkin bo'ladi. Bunday sharoit O'zbekiston Respublikasida davlat yo'li bilan, ham fuqarolarning ham intilishlari bilan ta'minlanmoqda.

FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHDA YOSHLARNING HUQUQIY ONGI VA MADANIYATI

*Nodirbek Otaxonov,
Nam DU talabasi*

“Aholinig huquqiy tarbiyasini tubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratib berish-huquqiy davlatning qaror topishida muhim yo'nalishdir”.

I.A.Karimov

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari huquqiy fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatimizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida huquqiy demokratik jamiyat barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining 1997 yil 25 iyunda qabul qilingan "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi Farmonida aholining huquqiy madaniyatini oshirish va

huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligini etirof etadi. Bu farmon yoshlar o'rtasida huquqiy bilim va yangi yaratilayotgan qonunlarning mohiyatini teran anglash, huquqiy ong va madaniyatini oshirishda muhim dasturilamal bo'lmoqda.

Farmon ijrosini ta'minlash yuzasidan Oliy Majlis qarori bilan tasdiqlangan **"Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi"** e'lon qilindi. Ushbu milliy dasturning maqsadi aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishuvi, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir.

Ma'lumki, har bir demokratik davlat o'zida qonun ustuvor bo'lishini ko'zlar ekan, avvalo, xalqining huquqiy ongi, madaniyatini yanada yuksaltirish hamda yoshlarning huquqiy tarbiyasi va tafakkuriga jiddiy ahamiyat qaratilishini taqozo etadi. Bu jarayonda yoshlarning qalbiga, vujudiga go'daklik paytidan boshlab Vatanga muhabbat, o'z yurtiga sadoqat tuyg'ulari bilan hamohang ravishda odob-axloq, qonun-qoidalar haqidagi ilk tasavvur va tushunchalarni singdirib borish ularning jamiyatda o'z o'mini topishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, Konstitutsiyani bolalar bog'chasidan boshlab o'rgatishni, maktablarda darslik tariqasida o'qitishni, oliy o'quv yurtlarida maxsus bir dars sifatida o'rganish lozimligi qonun ustuvorligiga erishishni ko'zlagan jamiyatning birlamchi vazifasidir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish barcha o'quv yurtlarida, maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablarda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va huquq haqida bolalarbop bilimlarni o'rgatish, huquqqa oid fanlardan imtihonlar joriy etish, shu bilan birgalikda ilm dargohlarida odil sudlov, prokuratura, ichki ishlar organlarining ish tajribasi yuzasidan uchrashuv va muloqotlar tashkil etish huquqiy ongni rivojlantirishga ko'mak bergan bo'ladi.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan davlat boshqaruv organlari va jamoat tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish ishlari aniq chora-tadbirlar rejaları asosida tashkil qilindi. Shu bois, o'tgan davr mobaynida adliya organlari va muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan huquqiy targ'ibot ishlari salmog'i va samarasi ancha oshdi.

Qonun hujjatlarini targ'ib qilish va ularning tub mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, shuningdek aholining huquqiy tafakkurini oshirish maqsadida adliya organlari va muassasalari tomonidan 2008 yilning I choragi davomida 11 mingdan ortiq marotaba huquqiy targ'ibot ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, 2009 yilning 1-choragida 14 mingdan ortiq huquqiy targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi.

Ushbu tadbirlarning 2179 tasi ommaviy axborot vositalari orqali olib borildi. Ularning 517 tasi teleko'rsatuvlarni, 628 tasi radioeshittirishlarni, 943 tasi gazetalar va 91 tasi jurnallarda bosilgan maqolalarni tashkil etadi.

O'tkazilgan 8743 marotaba og'zaki targ'ibot tadbirlarining 3524 tasi tushuntirish ma'ruzalari shaklida, 4164 tasi davra suhbatlari shaklida, 1015 tasi seminarlar shaklida, 40 tasi ilmiy-amaliy konferentsiyalar shaklida o'tkazildi.

O'tkazilgan tadbirlarning 147 tasi Prezidentimizning 2001 yil 4 yanvardagi **"Konstitutsiyani o'rganishni tashkil etish to'g'risida"**gi Farmoyishi asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishga oid hamda 151 tasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 sentyabrdagi **"Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"**gi qarorida belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyatini aholi o'rtasida targ'ib qilish, shuningdek, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan tadbirlar jumlasidandir.

Shuningdek, respublika bo'yicha 190 ta darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar va boshqa materiallar 27742 nusxada chop etildi. Huquqiy targ'ibot ishlarini ko'rgazmali qurollar yordamida ham olib borishga alohida e'tibor berilib, 2984 turdagi plakat va bukletlar 11215 nusxada tayyorlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2009 yilning I choragi davomida olib borilgan huquqiy targ'ibot ishlari 2008 yil I choragida amalga oshirilgan huquqiy targ'ibot ishlariga qaraganda 2971 taga yoki 26,7 % ga oshdi.

Olib borilgan huquqiy targ'ibot ishlarining 571 tasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini, 436 tasi mustaqillik mohiyatini, 6407 tasi inson huquqlarini himoya qilishni, 1453 tasi tadbirkorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishni, 350 tasi diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirishni, 4877 tasi boshqa qonun hujjatlarining mazmun mohiyatini targ'ib qilishga qaratildi.

O'tkazilgan huquqiy targ'ibot ishlarining barchasi yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan. Bu singari tadbirlar yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik holatlari, odob-axloqimizga zid xatti-harakatlarning oldini olishda hamda ularning huquqiy ongi va madaniyatini o'stirishda o'zining ijobiy samarasini beradi. Shuni alohida takidlab o'tishim lozimki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan chora tadbirlar, yosh avlodning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashishi, biz qurayotgan kuchli huquqiy fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim sanaladi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek dunyoning demokratik va huquqiy qadriyatlaridan bahramand bo'lishda aholining bilimdonligi muhim kasb etmoqda. "Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini... hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda".

Yoshlar huquqiy madaniyatining eng muhim belgisi faqat huquqni bilish emas, balki to'g'ri tushinish hamdir, qonun amalga oshirish vosirasi bo'lib xizmat qiladigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy vazifalarni tushinishdir. Bilim hajmini kengaytirish va darajasin oshirish yoshlarda qonuniy va qonunsiz, maqsadga muvofiq va maqsadga nomuvofiq xulq-atvorni to'g'ri baholash qobiliyati vujudga kelishiga, ya'ni huquqni tushinishga olib boradi. Albatta, hozirga vaqtda har bir yosh inson davlat huquqiy faoliyatni ma'lum darajada tushinadi.

Biroq, qonun ko'rsatmalarini bilish, tushinish ularni ro'yobga chiqarish uchun kifoya qilmaydi. Qonunni bilishning o'zi, agar bu qonunga hurmat shakllangan

bo'lmasa, huquqbuzarlikdan tiyib qola olmaydi. Shu munosabat bilan huquqiy madaniyatning tarkibida huquqqa hurmat degan narsa alohida ajratib ko'rsatiladi.

Huquqiy madaniyatni boyitib borish uchun izchil huquqiy tarbiya ishlarini olib boorish lozim. Bu yo'nalishda quydagi ishlarni amalgam oshirish fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, yuksak malakali sud-adliya kadrlarini tayyorlab borish;

Ikkinchidan, aholining huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida qonun hujjatlarini muntazam chop etib borish;

Uchinchidan, davlat boshqaruvi, va unda fuqarolarning bevosita yoki bilvosita ishtirokini ta'minlovchi huquqiy sohalarni rivojlantirish, keng jamoatchilik etboriga havola qilish;

To'rtinchidan, boshqa davlatlarning huquqiy tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish,

Beshinchidan, badiiy adabiyotlarda, san'atda huquqiy bilimlarni tarqatish,

Oltinchidan, yoshlar va davlat siyosati o'rtasidagi munosabatlarda, qonunlar ijrosini ta'minlash borasida duch kelinayotgan muommolarni, huquqiy nigilizm (jamiyatdagi kishilar tomonidan amaldagi qonun normalarini mensimaslik) oqibatida kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli qilmishlarni bir pardali yoki qisqa- qisqa saxna asarlari orqali teatrlashgan holda jamoatchilikka etkazish;

Yettinchidan, huquqiy targ'ibotni OAV orqali yanada kuchaytirish;

Sakkizinchidan, o'zini ozi boshqarish organlari-MFY lari idoralari tarkibida yuridik kilinikalar yoki yosh huquqshunos to'garaklari tashkil etish;

To'qqizinchidan, sud, prokuratura, ichki ishlar organlarining ish tajribasini ommalashtirib berish;

O'ninchidan, huquqiy xulqni rag'batlantirish kabi ishlarni amalgam oshirsak, mening fikrimcha, yoshlarning huquqiy ongini oshirishga, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida bir muncha qadam tashlangan bo'lardi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyatining ma'naviy shakl-shamoyili, davlatchilikning rivoji va huquqiy tizimi takomilining muhim ko'rsatgichi hisoblanadi. Zero, yuksak huquqiy madaniyatga erishgan taqdirdagina nafaqat alohida shaxs, balki butun boshlik jamiyatning ijtimoiy hayot jarayonrari sog'lomlashadi. Shuningdek, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga erishiladi. Natijada mamlakatda barqarorlik, o'zaro ishonch, qonun ustuvorligi, tinchlik-totuvlik ta'minlanadi.

O'XSHASH VOQEALARNI O'RGANISHDAGI USLUBLAR

*Izzatilla Omonov,
Nam DU talabasi*

Tarix odamlarni uylantiradi, bo'lib o'tgan tarixiy voqea va hodisalarni tahlil qilish, fikrlash va ulardan amaliy hayotiy xulosalar chiqarish asosida dasturiy harakatlar yo'llanmasini belgilashga yordam beradi.

Vatan tarixi mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnasha oladigan idrokli va qobiliyatli, o'zining tarixiy ildizlarini anglashga qodir, yurtiga, Vataniga, ona xalqiga yuksak mehr muhabbat, his-tuyg'ulari bilan to'lib toshgan avlodni kamol toptirish, ularning ongida milliy istiqlol tafakkuri va harbiy vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish qurolidir. Vatan ostonadan, inson yashab turgan insonning kindik qoni to'qilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi uning uchun ham qarz ham farzdir. Miloddan avval yashagan yunon adibi Lukyaning «Vatan sha'niga» nomli asarida shunday so'zlar bor: «Mening bu gaplarim g'oyat eski gaplardir. Lekin haqiqat shundaki, o'z otasini sevmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qila olmaydi. O'z Vatanini sevmagan kishi o'zгалar Vatanini ham qadrlay olmaydi».

Tarix fanini chuqur o'rganish har jihatdan muhimdir. eng avvalo tarix fanini o'qitishda o'ziga xos qulay uslublardan foydalanish lozim. Shulardan biri taqqoslash uslubidir. Bu borada bir-ikki misollar keltiramiz.

Insoniyat tarixida juda ko'p tarixiy voqealar yoki jarayonlar borki, go'yo ular zamonlar o'tishi bilan qaytadan takrorlanayotgandek tuyuladi. Abituriyentning darslikni o'zlashtirish jarayonida ushbu jihatlarga e'tibor qaratishi foydadan holi emas albatta.

Birinchi misol: Masalan, 1)Miloddan avvalgi 480 yil Salamin bo'g'ozidagi jangda yunonlarning g'alaba qilish sabablari: Eron harbiy kemalarining katta, qo'pol ekanligi-yu, yunonlar kemasi-trialarning ixcham va tez harakat qila olganligi edi. Oqibatda 700 ta harbiy kemaga ega bo'lgan fors floti ustidan 370 kemaga ega ega bo'lgan yunon floti g'alabaga erishdi. 2)1588 yil La-Mansh bo'g'ozida ispanlarning 134 ta og'ir, ulkan, beso'naqay kemalarga ega "Yengilmas Armada" harbiy-dengiz floti inglizlarning engil, tezyurur kemalari hujumlari ostida tor-mor etildi. 3)1281 yil Xitoydagi mo'g'ul hukmdori Xubilayxonning Yaponiyaga hujumi. Mo'g'ul harbiy-dengiz flotining halokati sabablari: Yaponiya flotining engil, ixcham kemalardan tashkil etilganligi, Xubilay flotining dengiz janglariga tez moslasha olmaydigan og'ir kemalardan iborat ekanligi.

Yuqoridagi uchchala dengiz jangida ham aynan bir xil sabab va natijani ko'rish mumkin.

Ikkinchi misol: Eftaliylar davlati tugatilgach. uning yerlari Turk hoqonligi va Sosoniylar davlati o'rtasida taqsimlab olinadi. Bu ikki davlat o'rtasidagi chegara etib

Amudaryo belgilanadi. Amudaryoning janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan yerlar sosoniylar mulki etib, shimoldan Amudaryogacha bo'lgan yerlar esa, Turk hoqonligi yerlari etib belgilanadi. Huddi shunday holni Somoniylar davlati yerlarini o'zaro bo'lishib olgan Qoraxoniylar va G'aznaviylar misolida ham ko'rish mumkin.

Uchinchi misol: 1)1807 yilning 25 iyunida Fransiya imperatori Napoleon I va Rossiya imperatori Aleksandr I o'rtasida Tilzit sulhi imzolandi. Unga ko'ra, Rossiya Yevropaning shimoliy va sharqiy hududida, Fransiya esa g'arbiy hududida erkin harakat qilishga kelishib oldilar. 2)1939 yil 23 avgustdagi Sovet-German shartnomasi (Molotov-Ribbentrop pakti)ga ko'ra ham huddi shunday holatni ko'rish mumkin. Unda imzolangan mahfiy shartnomaga muvofiq ham, SSSR hukumati Yevropaning shimoliy va sharqiy hududlarida, Germaniya esa G'arbiy hududlarida erkin harakat qilish huquqini qo'lga kiritdi.

Shu bois o'qituvchi va o'quvchilar voqealarning o'xshashlik jihatlari e'tibor bergan holda mashg'ulotlar o'glib borsalar, albatta natijalar samarali bo'lishi shubhasiz.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI

Kamoliddin Bahriddinov,

Nam DU talabasi.

Nargiza Talapova,

Qurilish va dizayn KHK o'qituvchisi

Bugungi jahon miqyosida yuz berayotgan globalashuv sharoitida o'z kelajagi, ertagi istiqbolini o'ylagan har bir davlat mamlakat yoshlariga, ularning jamiyatda tutgan o'rni va ularga yaratilgan shart-sharoitlarga alohida e'tibor qaratishi zaruriy hol bo'lib qolmoqda. Darhaqiqat, bizning respublikamizda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib 1991 yili 20 noyabrda, davlat mustaqilligi e'lon qilinganiga endigina sakson kun bo'lganda "O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" qonun qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo'lgan davlatning yoshlar masalasiga doir asosiy strategik yo'nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma- bosqich amalga oshirish imkoniyatini berdi.

Yoshlarning ijtimoiy hamda ma'naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan siyosatning asosiy mohiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov rahnomoliklarida ishlab chiqilib, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan mamlakatimiz Konstitutsiyasida o'z aksini topdi. Konstitutsiyamizning qator moddalari yoshlarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan. Chunonchi, 37- moddada "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatti mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalalanish huquqiga egadir", deb belgilangan. Asosiy

Qonunimizning 40- moddasida har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi, 41- moddasida esa har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi kafolatgangan.

Konstitutsiyaning yana boshqa qator moddalarida yoshlarga oid davlat siyosatining mohiyatini ko'rsatuvchi normalar mujassamlangan. Masalan, 45- moddada voyaga etmaganlarning huquqlari davlat himoyasida ekani qayd etilgan bo'lsa, uning 64- moddasida ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklari, davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalarning vasiyiligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini amalga oshirishi belgilangan. 65- moddada esa farzandlar ota-onalarning nast-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi mustahkamlab qo'yilgan.

Mustaqillik yillarida yurtboshimizning taklif va tashabbuslari bilan mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Bola huquqlari- ning kafolatlari to'g'risida"gi, "Voya etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi kabi qonunlar qabul qilindi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarga oid jami 22 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15 ta farmoni va 11 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 41 ta qarori, 32 ta idoraviy-me'yoriy hujjat, jami 150 dan ortiq huquqiy me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, bular yoshlar bilan ishlaydigan 500 ortiq davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi ishlarini muvofiqlashtirib kelmoqda.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida yillarimizga "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili" nom deya berilishi yoshlarga bo'lgan alohida e'tiborning yuksak namunasidir. Yoshlar bilan ishlashni yanada takomillashtirish masalalari davlatimiz rahbariyatining doimiy diqqat markazida turibdi. Buning yaqqol misoli: 2011 yil 3 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida "Yoshlar siyosati masalalari bo'yicha alohida sektor" tashkil etildi. 2011 yil sentyabr oyidan boshlab barcha viloyat hokimliklari tarkibida jamoat tashkilotlari va diniy ishlar bo'yicha hokim o'rinbosarlariga yoshlar bilan ishlash mas'uliyati topshirildi. Bularning barchasi mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yaqqol nishonasidir.

TIL O'RGANISH IMKONIYATLARI

*Dilafruz Qodiraliyeva,
Namangan tumani Axborot texnologiyalari va servis KHK talabasi*

Bugungi kunda Respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida keng miqyosli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim olish va ta'lim berish imkoniyatlari kengaymoqda.

Respublikamiz hozirgi vaqtda jahonning ko'plab davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, ular bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda hamkorlikda faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston yuzlab xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosi hamdir.

Bu o'z o'rnida xorijiy tilning mamlakat hayotidagi, ijtimoiy taraqqiyot va davlatlararo munosabatdagi o'rniga alohida e'tibor berish lozimligini ko'rsatadi.

Albatta, barcha fan mutaxassslari mazkur fanlarni qulay tarzda o'zlashtirish bo'yicha ma'lum bir uslubiy tavsiyalarni beradilar. Bu esa o'z navbatida ushbu fanlarni oson va tez o'zlashtirish, o'rganish imkoniyatini beradi. Men ham bu borada o'z tajribalarimdan kelib chiqqan holda, quyidagi fikrlarni bildirgan bo'lar edim. Jahondagi ko'p tillarning kelib chiqishiga nazar solib, solishtirma tarzda, tillarni qiyosiy tahlil qilinsa, til o'rganishda qulay yo'llarni tanlash imkoniyatlari kengayadi.

Masalan, ingliz, nemis, rus va tojik tillari, Hind-Evropaning tillar oilasiga mansub bo'lib. Mazkur tillar grammatik qoidalar bo'yicha bir-biridan farq qilsa ham, lekin ularda fonetik jihatdan, so'zlarning o'zakdoshligi jihatidan bir-biriga yaqin turadigan jihatlari mavjud. Misol tariqasida ayrim so'zlarni keltiramiz. Masalan, Aka-Brat (ruscha), Bruder (nemischa), birodar (tojikcha), Brother (inglizcha); Tun-noch' (ruscha), Nacht Night (inglizcha); Singil-sestra (ruscha), Schwester (nemischa), Sister (inglizcha); Ona-mother (inglizcha); modar-(tojikcha), mat' (ruscha), mutter (nemischa), Ota-padar (tojikcha), father (inglizcha); Vater (nemischa), mening-my (inglizcha), Mein, meine (nemischa), moy, moya (ruscha), Suv-voda (ruscha), water (inglizcha), wasser (nemischa) hokazo. Ushbu taqqoslashni yana davom ettirish mumkin.

Masalaga bunday yondashuvning afzal tomoni shundaki, o'rganilayotgan tildagi o'zakdosh yoki ohangdosh so'zni topib qiyoslansa, ushbu til tez va oson o'rganiladi.

Agar tariximizga nazar solsak, xalqimiz orasidan etishib chiqqan buyuk shaxslar avvalo juda ko'plab tillarni o'zlashtirganliklarini bilamiz. Ibn Sino, Farobiy, Navoiy, Beruniy, Abdulla Qodiriy, Fitrat va boshqalar kamida uch yoki to'rtta tilni mukammal bilganliklari ma'lum. Aslini olganda ularni buyuklik pog'onalari sari etaklagan omillardan biri ham aynan shu emasmi?

Bugungi kunda Respublikamiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'rganish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Maxsus til o'rgatish markazlari faoliyat yuritmoqda. Birgina Namangan shahrining o'zida o'nlab shunday markazlar faoliyat yuritmoqda. Shunday markazlardan biri "ZIYOKOR" o'quv markazidir. Ushbu markazda xorijiy tillar puxta o'rgatiladi. O'quvchilar til o'rganish bilan birga boshqa xalqlar madaniyati, urf-odatlarini, kuy va qo'shiqlaridan ham xabardor bo'lib boradilar.

Demak, bugun jamiyatimizning har bir fuqarosi, davlatimiz, mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqchi bo'lsa, O'zbekistonning jahon miqyosidagi o'rnini va mavqeyini mustahkamlanishida o'zini ulushi bo'lishini istasa albatta xorijiy tillarni mukammal egallashi lozim. Buning uchun esa barcha imkoniyatlar mavjud.

YOSHLARNI MA'NAVİY KAMOLOTIDA OILADAGI RUHIY MUHITNING TA'SIRI

Odina Tillayeva

Chust tumanidagi 17-maktab o'qituvchisi

Ma'naviy barkamol, jismoniy sog'lom farzandlarni voyaga etkazishda oilada amalga oshiriladigan axloq, odob tarbiyasining ham o'rni benihoya katta. O'zbek xalqining axloq va odob tarbiyasi borasidagi an'analari, qadriyatlarini asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan. Hozirgi zamon o'zbek oilalarining tarbiya jabhalaridagi umumiy va xususiy tomonlarini, vazifalarini bilish nihoyatda ahamiyatlidir. Biz tarbiyaviy vazifalarimiz xususiyatlaridan kelib chiqib, bolalar kamolotiga yakka holda yondashish, aqliy, axloqiy, mehnat, jinsiy, ateistik tarbiya ehtiyojini shakllantirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakasi, maishiy mehnat, ijtimoiy mehnatga ma'naviy-ruhiy tayyorlash kabi mezon va qoidalarni hisobga olib ish tutishimiz maqsadga muvofiqdir. Oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda oila tuzilishining milliy o'ziga xosligini va milliy an'analardan foydalanish darajasini hisobga olish lozim.

Bolalar tarbiyasi oilada insonni bunyod etuvchi tabiiy va ijtimoiy mohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shu ma'noda tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra shunday bir jarayonki, u tarbiyalanuvchining biologik, ijtimoiy ehtiyoj turlarini, o'zining qadri, qiziqish va g'oyalarini jamiyat talablariga bo'ysundirishda namoyon bo'ladi.

Oiladagi ota-onalar va katta yoshdagi kishilarning obro'si va shaxsiy namunalar tarbiyaviy ta'sir samaradorligini belgilovchi omildir. Bunda tarbiyaviy ta'sirning izchil va barkamolligi, oila jamoasida tajribalarni tabiiy o'zlashtirish, ularning qon-qarindoshliklari sababli shaxs faoliyatiga o'ta ta'sirchanligi, o'zaro ishonch, munosabat va mehr-muhabbat, muomaladagi hissiy ifodaning yaqqolligi kabi belgilar oilalardagi tarbiyaning asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Oiladagi axloqiy tarbiya faqat xulqni tarbiyalash bilan cheklanmasdan, balki barkamol inson axloqini to'g'ri tasavvur qildiradi, uning tarkibi, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Mana shu asosda oila a'zolarida inson harakteri, hayot bosqichlari qaror topadi. Oilaviy hayotning o'ziga xosligi ham mana shunda.

Yosh avlodni tarbiyalashda keksa avlodni xizmati ayniqsa beqiyosdir. Bobo va buvilar oilada tarbiyani mukammal yo'lga qo'yishda chinakam izchil tartibni oilaviy tarbiyani yaratishda jonkuyarlik qiladilar. Hayotning achchiq chuchuguni ko'rgan og'ir sinovlarga bardosh bergan keksa avlodchalik bolalar tarbiyasiga katta ma'suliyat bilan qaraydigan kishi bo'lmasa kerak. Ular insoniyat abadiy zanjirida o'tmishda erishgan boy ma'naviy qadriyatalarni kelajak avlodga etkazuvchi bebeho xalqdir. Biz ajoyib yozuvchilar, olimlar, buyuk mutafakkirlarning hayotiga nazar tashlar ekanmiz ularning o'sib yuksalishida insoniyat tarixida buyuk kishilar bo'lib etishishlarida buvi va buvalarining xizmatlari kattadir.

Hozirgi kunda ota-onalar hal qilishlari nihoyatda zarur bir qancha tarbiyaviy muammolar mavjud. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada

bo'lsagina o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlash mumkin. U yoki bunisining yo'qligi tarbiyaviy jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamizda ayni hozirgi kunda oilalarning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Oilalarning moddiy ehtiyojlarini to'laroq qondirish asosida bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni kuchaytirish jarayoni tezlashmoqda. Biz uchun oila mustahkamligini ta'minlovchi axloqiy ruhiy aloqalar juda muhimdir. Xuddi ana shu aloqadorlik oilaviy munosabatlar, to'laqonli hissiy-emotsional, otalik yoki onalik, oilaviy baxtni ta'minlash ehtiyojlarini qondiradi.

Hozirgi zamon oilalari tobora biqiqlikdan ozod bo'lmoqda. Atrof-muhit bilan bevosita aloqa, o'z millatiga mansub an'anaviy urf-odatlar bilan tanishish, ulardan o'z bolalarini g'oyaviy axloqiy jihatdan tarbiyalashda foydalanishlariga yordam bermoqda.

Oilada bolalarni tarbiyalash o'zining bir qancha milliy xususiyatlariga ega. Ular xalqning shakllangan oilaviy an'analari, urf-odatlari, xalqning ruhiyati, hayoti va turmush tarzidir.

Barkamol inson tarbiyasida oila jamiyat bilan yaxlit bir birlikni tashkil etadi, bu esa hozirgi kunimiz uchun xos hususiyatlardan biridir. Ayniqsa, ot-onalar va jamiyat a'zolarining mehnat faoliyatlari harakteri, er va ayolning teng huquqligi, o'zaro hurmat, farzandlarni e'zozlash, hurmatlash, ijtimoiy va fuqarolik e'tiqodi, oilaviy madaniy hayotning mavjudligi va o'sayotganligi o'zbek oilalariga xos fazilat sifatida qadrlanmoqda.

Mundarija

Bahriddin Talapov. <i>Demokratik yangilanish jarayonlari</i>	3
Akmal Husainov. <i>Yangicha qadriyat</i>	6
Obidxon Mamatov. <i>Mafkuraviy to'siqlar</i>	8
Tohirjon Qozoqov. <i>Til taraqqiyot omili.</i>	10
Odiljon Topildiev. <i>Yoshlarni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilishning ahamiyati</i>	12
Bobomurod Tillaev. <i>Temur tuzuklaridagi ma'naviy g'oyalar</i>	15
Bobomurod Tillaev. <i>Jamiyat ma'naviy taraqqiyotda mahallaning o'rni</i>	17
Barotjon Ibrohimov. <i>O'rta Osiyo notqlik san'ati tarixidan (voiz Koshifiy misolida)</i>	20
Barotjon Ibrohimov. <i>Huquqiy madaniyatning yoshlar ongida shakllantirish masalalari</i>	21
Akmal Abdullaev. <i>Iqtidorli yoshlarni shakllantirishning muhim omillari</i>	24
Mansurov Abdulla. <i>Diniy va etnik ziddiyatlarning yoshlar hayotiga ta'siri</i>	29
Bobomurod Tillaev, Doston Abduqahorov. <i>Yoshlarda vatanparvarlik va milliy g'ururni shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning o'rni.</i>	32
Bahromjon Jalolov, Tursunova Farog'at. <i>Turkiston temir yo'li tarixidan</i>	34
Muqaddas Xojiboeva. <i>Yoshlar ongida milliy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish masalalari</i>	37
Nilufar Imomberdieva. <i>Ta'lim-tarbiya jarayonida oila va maktab hamkorligi</i>	39
Sirojiddin Jalolov. <i>Milliylikka tahdid solayotgan xavf-xatarlar</i>	40
Islomxo'ja Xo'jaxonov. <i>Mafkuraviy tarbiya masalasi</i>	42
Iqbol Abduraximov. <i>Kitob-ma'naviyat manbai</i>	45
Qambarali Asqarov, Omonjon Usmonov. <i>Sog'lom g'oyaviy tarbiya</i>	47
Doston Abduqahhorov. <i>Oilada milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati</i>	48
Azamat Onarboev. <i>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy printsiplari</i>	50
Abror Mamadaliev, Barotjon Ibrohimov. <i>Kushon davlatining davlatchiligimiz taraqqiyotidagi o'rni</i>	51
Nodirbek Otaxonov. <i>Amnistiya aktini qo'llash- insonparvarlik tamoyili</i>	54
Dilshodbek Rayimqulov. <i>Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari</i>	56
Durbek Mehmonov. <i>Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini</i>	58
Ziyoviddin Sultonov. <i>Kuchli fuqarolik jamiyati-milliy davlatchilik asosi</i>	59
Nodirbek Otaxonov. <i>Fuqarolik jamiyatini qurishda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati</i>	61
Izzatilla Omonov. <i>O'xshash voqealarni o'rganishdagi uslublar</i>	65
Kamoliddin Bahriddinov, Nargiza Talapova. <i>Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari</i>	66
Qodiraliyeva Dilafruz. <i>Til o'rganish imkoniyatlari</i>	67
Odina Tillaeva. <i>Yoshlarni ma'naviy kamolotida oiladagi ruhiy muhitning ta'siri</i>	69

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI
MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA HUQUQ
ASOSLARI KAFEDRASI

ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI

“SALOHIYAT-MEZON”
ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI

Muharrir:	B.Talapov.
Tex.muhammadir:	A.Ikramov.
Musahhih:	I.Bobomirzayev.

Bosishga beriildi: 21.012013 yil. Bosishga ruxsat etildi:
29.012013 yil. Bichimi: 60x84. Bosma tabog`i: 4, 5 Adadi 100
nusxa. Buyurtma №15

«Namangan» nashriyoti. 160108. Namangan shahri,
Alisher Navoiy ko`chasi, 36-uy.

Nashriyot litsenziya raqami AN-156
2009 yil 14 avgustda berilgan.

«Al Ikrom Print» xususiy korxonasiida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, 5-kichik tuman, 19-uy.



ISBN 978-9943-4050-0-4

